O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI 2023-YILDA SIFATLI VA O‘Z VAQTIDA AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida:

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

“xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi doirasida:

a) 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo‘lga qo‘yilsin;

Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim planshetlari bilan ta’minlansin, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilsin;

banklarning nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun milliy valyutada ajratiladigan, qiymati 20 milliard so‘mgacha bo‘lgan kreditlar bo‘yicha, foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin uning 1,5 baravaridan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun Davlat budjeti hisobidan kompensatsiya taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

b) 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining kasb-hunar egasi bo‘lish istagidagi 10-sinf o‘quvchilari uchun tegishli hududlarda talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslari joriy etilsin.

Bunda, dastlabki bosqichda ushbu tartib zarur kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasiga ega bo‘lgan hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etilsin;

v) 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun “tayanch maktab” etib belgilansin.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari “tayanch maktablar” tomonidan yangi ta’lim dasturlari, dars o‘tishning ilg‘or metodikalari va o‘quvchi bilimini baholashning zamonaviy usullariga o‘rgatiladi.

3. Belgilansinki, 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi hamda Bolalar milliy tibbiyot markazida gemotopoetik suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyoti joriy etiladi;

virusli gepatitning “S” turi bilan kasallangan bemorlarni hamda gemotopoetik suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi muolajasiga muhtoj onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni to‘liq Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolash yo‘lga qo‘yiladi.

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabrdagi 657-son “Onkogematologik, onkologik, birlamchi immunodefitsit va davolash qiyin bo‘lgan hamda qon tizimi kasalliklarini davolash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi qarori.*

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2023-yil 1-oktabrdan boshlab ogʻir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori boʻlgan har bir oila boʻyicha alohida “ijtimoiy xizmat ishi”ni yuritish tartibi amaliyotga joriy etiladi. Bunda, ushbu oilalarda sharoitni yaxshilash, ularga davolash, dori vositalari bilan ta’minlash, farzandlarini maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlariga joylashtirish, moddiy yordam berish kabi ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish nazarda tutiladi;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

Toshkent shahrining tibbiyot muassasalarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar hajmi va dori vositalari roʻyxatini amaliyotga kiritishni nazarda tutuvchi davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

nogironligi boʻlgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya hamda dori vositalari bilan ta’minlash ishlari “vaucher” tizimi asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bunda, nogironligi boʻlgan shaxslarga tovar va xizmatlarni oʻzlari tanlagan yetkazib beruvchidan xarid qilish imkoniyati yaratiladi va ularning xarajatlari Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan qoplab beriladi.

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PQ-319-sonli “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.*

5. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularga oʻz salohiyatini toʻlaqonli roʻyobga chiqarishi uchun qoʻshimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab ogʻir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni qayta kasbga tayyorlash xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etilsin.

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni.*

6. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yoʻnalishi boʻyicha:

2023-yilga moʻljallangan amaliy tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2023-2024-yillarga moʻljallangan maqsadli koʻrsatkichlar 1a-ilovaga muvofiq;

2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari roʻyxati 1b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy oʻsish orqali aholi farovonligini ta’minlash yoʻnalishi doirasida:

a) 2023-yil 1-oktabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga miqdori 10 million soʻmdan yuqori boʻlgan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun, agar tadbirkorlik subyekti huquqbuzarlikni inkor etsa, moliyaviy sanksiyalarni faqatgina sud tartibida qoʻllash amaliyoti yoʻlga qoʻyilsin;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sugʻurtalashda sugʻurta mukofotining 50 foizi miqdorida subsidiya berish tartibi joriy etilsin;

“Izlanish va rivojlanish” (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk soligʻi va yer soligʻi boʻyicha hisoblangan summa miqdorining 1 foizini toʻlash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida hisoblash tartibi joriy etilsin;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori boʻlgan tashkilotlar tomonidan har yili amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari qiymatining kamida 5 foizini obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtirish tartibi joriy etilsin.

8. 2024-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga qoʻshilgan qiymat soligʻini toʻliq qaytarib berish tizimi quyidagilar hisobidan kengaytirilsin:

**xorijiy turistlarga** — Oʻzbekiston xalqaro aeroportlarida Oʻzbekiston hududida sotib olingan va “Tax free” tizimi boʻyicha rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun;

**tur-operatorlarga** — xorijiy kontragentlar bilan shartnomalar doirasida koʻrsatilgan eksport xizmatlari uchun.

9. Iqtisodiyot va moliya vazirligining quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari ma’qullansin:

Oʻzbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamgʻarmasini tashkil etish va uning asosiy vazifalari sifatida energetika, kommunal xoʻjalik, transport, ekologiya, sogʻliqni

saqlash, ta'lim va boshqa ustuvor sohalarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari hujjatlarini sifatli ishlab chiqishni belgilash;

davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan kelib chiquvchi davlatning to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlarini monitoring qilish, boshqarish va tartibga solish tizimini amaliyotga tatbiq etish;

Davlat budjeti loyihasini shakllantirish va ijrosi bo'yicha hisobotlarda budjet xarajatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (J. Qo'chqorov):

a) ikki hafta muddatda:

xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasi faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning majburiyatlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini belgilovchi Hukumat qarori loyihasi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) 2024-yil 1-fevralga qadar Davlat budjeti xarajatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasi kiritilishini ta'minlasin.

*(9-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi PF-205-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2023-y., 06/23/205/0934-son)*

10. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha:

2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar 2a-ilovaga muvofiq;

2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati 2b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi doirasida:

a) 2023-yil 1-noyabrdan boshlab:

ijobiy ekologik ekspertiza xulosasini olmagan obyektlarga nisbatan moliyalashtirish, kreditlash va boshqa moliya operatsiyalarini to'xtatib turish mexanizmi joriy etilsin;

ekologik huquqbuzarlik sodir etganlarga nisbatan zararni qoplash bilan bir qatorda, zarar yetkazilgan tabiat obyektini tiklash va uning muayyan muddat davomida muhofaza qilinishini ta'minlash majburiyati yuklansin;

b) suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

respublikaning uzoq muddatli suv balansi prognozini yuritish, shu jumladan uni har yili yangilash va suv resurslarini tejash dasturlarini qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining, keyinchalik esa, bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun kreditlar 10 foiz stavkada (foiz stavkalarini subsidiyalash hisobiga) ajratilishi ta'minlansin;

v) atmosferaga zararli tashlanmalar hajmini kamaytirish maqsadida xalqaro "karbon market" tizimi doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar tomonidan barpo etiladigan yashil maydonlarni tashkil qilish xarajatlarini qisman jalb qilingan grant mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

Bunda, barpo etilgan yashil maydonlar (yaylovlarni ozuqabop ekinlar bilan, qishloq xo'jaligi yerlarini daraxtlar bilan qoplash) bo'yicha kompensatsiyalar issiqxona gazlarini zararsizlantirish darajasiga mutanosib ravishda ajratiladi.

12. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha:

2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq;

2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar 3a-ilovaga muvofiq;

2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati 3b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi doirasida:

a) davlat xizmatlarini ko‘rsatishda aholiga yanada qulayliklar yaratish va ortiqcha sansalorliklarga barham berish maqsadida:

2024-yil 1-yanvardan boshlab aholiga yo‘l harakati xavfsizligi sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatishda, shu jumladan avtomototransport vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda avtomototransport vositasining oldi-sotdi shartnomalari va boshqa notarial tasdiqlangan bitimlarni “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan olish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin va ariza beruvchilardan mazkur hujjatlarni talab qilish taqiqlansin;

2024-yil 1-martdan boshlab notarial idoraga kelmasdan, shu jumladan chet eldan turib mol-mulkdan foydalanish bilan bog‘liq bitimlarni (mulk huquqini boshqa shaxsga o‘tkazishdan tashqari) elektron raqamli imzodan foydalanib, videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirish tartibi yo‘lga qo‘yilsin;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich barcha shahar va tumanlarda “Mahalla budjeti” tizimi joriy etilsin.

Bunda, tuman va shahar budjetlariga tushadigan soliq tushumlarining bir qismi mahallalarning ijtimoiy-iktisodiy muammolarini hal qilish jamg‘armalariga yo‘naltirilishi belgilansin;

v) tashabbusli budjet amaliyotini va mahallalarning moliyaviy mustaqilligini yanada kengaytirish maqsadida 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 10 trillion so‘m, shundan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari uchun kamida 4 trillion so‘m yo‘naltirilsin;

g) 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalar — tergov sudyalari tomonidan ko‘rib chiqish tartibi joriy etilsin;

d) tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yanada liberallashtirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsni, agar u sud maslahatxonaga kirguniga qadar soliqlar va yig‘imlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilish;

tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘zg‘atilgan har bir jinoyat ishi bo‘yicha tergov hamda sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs jinoyat ishi materiallarini ish yurituviga qabul qilgan vaqtdan boshlab tadbirkorni himoya qilishga Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, shuningdek, tadbirkorlik subyekti a’zo hisoblangan boshqa tashkilotni jamoat himoyachisi sifatida jalb etishi (xabar qilish) tartibi joriy etilsin;

e) 2024-yil 1-yanvardan boshlab aholi punktlarida barcha yangi qurilayotgan ikki va undan ortiq polosali avtomobil yo‘llarida piyodalar o‘tish yo‘laklarini svetoforlar bilan to‘liq jihozlash majburiy etib belgilansin.

14. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha:

2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 4-ilovaga muvofiq;

2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar 4a-ilovaga muvofiq;

2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati 4b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

15. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatini izchil davom ettirish yo‘nalishi doirasida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda joriy yilning noyabr oyida Toshkent shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining uchrashuvi yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin.

16. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha:

2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 5-ilovaga muvofiq;

2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar 5a-ilovaga muvofiq;

2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati 5b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

17. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Xadjayev) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (A. Ko‘chimov) ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda muntazam ravishda:

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish natijalarining ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning ijrosi va natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumot aholiga tezlik bilan yetkazilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2023-yil 11-sentabr,
PQ-300-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
1-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan**

AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YoBGA ChIQARISh UChUN MUNOSIB ShAROITLARNI YaRATISh** | | | | | |
| **1.1. Ta’lim tizimi islohotlari** *(Mas’ul — A. Aripov)* | | | | | |
| **1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash** | | | | | |
| 1. | Maktabgacha ta’lim bilan **qamrov darajasini 74 foizga** yetkazish. | Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini **26 mingtaga yetkazish**. | 2023-yil yakuniga qadar | Respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X. Umarova,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov** |
| 2. | Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida **avtomatlashtirilgan tizimni ishga tushirish**. | **1.** Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida **avtomatlashtirilgan tizimni ishga tushirish** uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish. | 2023-yil noyabr | - | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov** |
| | | **2.** Maktabgacha ta'lim tizimida **noqonuniy moliyaviy xatti-harakatlar, korrupsiya va budjet mablag'larini maqsadsiz** sarflash holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'layotgan omillarni o'rganish. | 2023-yil noyabr | | |
| | | **3.** Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasini qo'llagan holda xodimlar va tarbiyalanuvchilarning davomatini yuritishni yo'lga qo'yish orqali budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | | |
| **2-maqsad: Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish** | | | | | |
| 3. | Islom taraqqiyot banki, Arab muvofiqlashtirish guruhi va Ta'lim | 1. Loyihani boshqarish guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish, **yangi** | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga asosan | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | bo‘yicha global hamkorlik tashkilotining **“O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish”** qo‘shma moliyalashtirish loyihasini amalga oshirish. | **quriladigan obyektlarning loyihaoldi va loyiha hujjatlarini tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish** bilan bog‘liq xarajatlarga Davlat budjetidan mablag‘larni ajratish. | | | **X. Umarova**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov,**<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov** |
| | | 2. Loyiha bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlarni Islom taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan **retroaktiv moliyalashtirish asosida** qoplash bo‘yicha taklif kiritish. | 2023-yil noyabr | | |
| | | 3. Loyiha doirasida umumiy **o‘rta ta’lim muassasalarini qurish uchun zarur yer uchastkalarini** ajratish. | 2023-yil noyabr | | |
| 4. | Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarining qurilish ishlari ustidan **jamoatchilik nazoratini** o‘rnatish. | Yangi quriladigan yoki rekonstruksiya qilinadigan maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida olib borilayotgan ishlarni, shu jumladan nogironligi bo‘lgan bolalarga “to‘siqsiz muhit” yaratish ustidan **doimiy nazorat qilish va keng jamoatchilikni jalb qilish mexanizmlarini** ishlab chiqish.<br>Umumta’lim maktablari qurilishi va saqlanishi to‘g‘risida **alohida shaharsozlik, sanitariya qoidalarini ishlab chiqish hamda** | 2023-yil dekabr | - | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br>**B. Zakirov,**<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>**X. Umarova** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **yangi quriladigan maktablarning namunaviy loyihaoldi va loyiha** hujjatlarini xalqaro tashkilotlar bilan **birgalikda ishlab chiqish** amaliyotini joriy etishning maqsadga muvofiqligi boʻyicha takliflar kiritish. | | | |
| **3-maqsad: Umumiy oʻrta taʼlim tizimini yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | |
| 5. | Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida **1-sinfdan kompyuter savodxonligi darslarini** joriy etish. | **1.** Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida amaldagi tayanch oʻquv rejasi doirasida 1-sinfda **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fanining haftasiga **bir soatdan** oʻqitilishini yoʻlga qoʻyish.<br>**2.** “Informatika va axborot texnologiyalari” fani boʻyicha boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun **qisqa muddatli malaka oshirish** oʻquv kurslarini tashkil etish. | 2023-yil dekabr | - | Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi<br>**V. Hamidov** |
| 6. | Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida yuqori sinf oʻquvchilarining **qobiliyati va tanlovi asosida taʼlim jarayonlarini tashkil etish.** | 1. Tayanch oʻquv rejasi hamda amalda mavjud sinflar doirasida **kimyo — biologiya, fizika — matematika, ona tili — chet tili, matematika — chet tili** yoʻnalishlarida oʻquv rejasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.<br>**2.** 2023/2024 oʻquv yilida respublika boʻyicha 120 dan ortiq umumiy oʻrta taʼlim | 2023-yil sentyabrdan boshlab bosqichma-bosqich | 2023-yil uchun Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablagʻlari doirasida | Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirli�i<br>**X. Umarova,**<br>Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi<br>**V. Hamidov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | muassasalarida tajriba-sinov tariqasida tanlov fanlarini joriy qilish. | | | |
| **4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish** | | | | | |
| 7. | Pedagoglarga **malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish**. | “El-yurt umidi” jamgʻarmasi koʻmagida Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarni **xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish** rejasini ishlab chiqish.<br><br>Umumiy oʻrta taʼlim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga **haq toʻlash sharoitlarini** yaxshilash boʻyicha takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | - | Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>“El-yurt umidi” jamgʻarmasi<br><br>**A. Bekmurodov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**O. Fozilkarimov** |
| **5-maqsad: Umumiy oʻrta taʼlimni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish** | | | | | |
| 8. | Nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish. | Har yili nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish uchun kamida respublika boʻyicha **50 gektar yer uchastkalarini** auksionga chiqarish. | 2023-yil oktyabrdan boshlab | - | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br><br>**A. Ortiqov**<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| **6-maqsad: Professional taʼlim tizimini rivojlantirish orqali oʻquvchilarni zamonaviy bilim va koʻnikmalarga oʻrgatish** | | | | | |
| 9. | Oʻrta boʻgʻin mutaxassislarini tayyorlashda **davlat grantini** axborot texnologiyalari, | **1.** Kollej va texnikumlarga 2024/2025 oʻquv yili uchun tasarrufida professional taʼlim | 2023-yil dekabr | - | Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qurilish, transport va logistika yo‘nalishlarida **100 foizga** yetkazish. | muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarning taklifi asosida **qabul parametrlarini shakllantirish bo‘yicha choralarni ko‘rish.** | | | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov** |
| 10. | Professional ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning **zamonaviy uzluksiz shaklini joriy qilish** hamda ushbu sohada yagona metodik ta’minotni amalga oshirish. | **1.** Davlat oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi professional ta’lim muassasalari xodimlarining malakasini oshirishga **ixtisoslashgan fakultetlar faoliyatini** bosqichma-bosqich tugatish.<br>**2.** Pedagogik innovatsiyalar, professional ta’lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan **Ilg‘or professional tayyorgarlik markazlarini** tashkil etish. | 2023-yil oktyabr | - | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov** |
| 11. | Malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash uchun **raqamli portfolio** tizimini joriy etish, har bir xodimning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish. | **1.** Professional ta’lim muassasalari xodimlari faoliyatini o‘rganish va malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash uchun maxsus **elektron axborot tizimida raqamli portfolio modulini** ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **2. Raqamli portfolio moduli** orqali professional ta'lim muassasalari xodimlarining **faoliyati samaradorligini baholash** mexanizmini yo'lga qo'yish. | | | |
| **7-maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish** | | | | | |
| 12. | **5 ming** nafargacha professor-o'qituvchilarni tajriba almashish uchun, **200 nafar**gacha yosh olimlarni ilmiy daraja olish uchun tanlov asosida xorijiy ilmiy tashkilotlarga yuborish. | Yillar kesimida xorijiy va mahalliy grant mablag'lari doirasida professor-o'qituvchilarni **tajriba almashish va yosh olimlarni ilmiy daraja olish uchun** xorijiy ilmiy tashkilotlarga yuborish rejasini tasdiqlash. | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga asosan | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmonov,** "El-yurt umidi" jamg'armasi **A. Bekmuradov** |
| **8-maqsad: Oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash** | | | | | |
| 13. | Oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini takomillashtirish va rektorlarni saylash tizimini joriy qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. | Oliy ta'lim tashkilotlari rektorlarini tashkilot kengashi (jamoasi) tomonidan saylash tizimini joriy qilishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmonov,** oliy ta'lim tashkilotlari *(kelishuv asosida)* |
| **9-maqsad: Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo'nalishlar bilan boyitish** | | | | | |
| 14. | Dunyoda tan olingan ilmiy maktablar bilan hamkorlikda **matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya,** | 1. Fundamental tadqiqotlar sohasida **kompleks ilmiy dasturlarni shakllantirish** uchun nufuzli olimlar (akademiklar, fan doktorlari) tarkibidan | 2023-yil oktyabr | - | Fanlar akademiyasi **B. Yuldashev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **seysmologiya, bioxilma-xillik** kabi yoʻnalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kompleks ilmiy dasturlarni ishlab chiqish. | ilmiy kengashlar (ekspert guruhlari) tashkil etish talablarini ishlab chiqish. | | | |
| | | **2.** Xorijiy nufuzli ilmiy maktablar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish. | | - | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov** |
| | | **3. Matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik** kabi yoʻnalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kompleks ilmiy dasturlarni shakll�ntirish. | 2023-yil noyabr | - | |
| 15. | **Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, ma'naviyat, madaniyat va san'at kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar yoʻnalishlari** boʻyicha alohida ilmiy-tadqiqot dasturlarini amalga oshirish. | **1**. Oʻzbekistonni jahonga tanitib, tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga oid tadqiqotlarni faol qoʻllab-quvvatlash yuzasidan takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil sentyabr | - | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov** |
| | | **2**. **Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, ma'naviyat, madaniyat va san'at kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar** yoʻnalishlari boʻyicha alohida ilmiy-tadqiqot dasturlarini shakllantirish uchun nufuzli olimlar (akademiklar, fan doktorlari) tarkibidan ilmiy kengashlar | 2023-yil oktyabr | - | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov**, Fanlar akademiyasi<br>**B. Yuldashev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | (ekspert guruhlari) tashkil etish talablarini ishlab chiqish. | | | |
| **10-maqsad: Iqtisodiyotning eng tez oʻsib borayotgan yoʻnalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish** | | | | | |
| 16. | Tashkilotlar, vazirlik va idoralarning ilmiy-tahliliy va uslubiy ishlarga buyurtmalarini oliygohlar, ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshirish boʻyicha **yagona elektron portal**ni tashkil etish. | **1.** Ilmiy-tahliliy va uslubiy ishlarga buyurtmalarni amalga oshirish maqsadida **cooperation.uz yagona elektron por�alida** maxsus boʻlinma ishlab chiqish.<br><br>**2.** Sinovlar natijasida portalni qayta takomillashtirib, amaliyotga joriy qilish. | 2023-yil noyabr<br><br>2023-yil dekabr | Ijrochilarning mablagʻlari | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov,**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov**,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |
| **11-maqsad: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qoʻllab-quvvatlash** | | | | | |
| 17. | Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura **kvotalari sonini bosqichma-bosqich oshirish**. | **1.** Tizimida ilmiy tashkilot va ta’lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralardan **stajor-tadqiqotchilikka, tayanch doktoranturaga, doktoranturaga hamda maqsadli doktoranturaga qabul kvotalari** talabnomalarini oʻrnatilgan tartibda qabul qilish.<br><br>**2.** Qabul kvotalari talabnomalarini umumlashtirgan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga oʻrnatilgan tartibda taqdim etish.<br><br>**3.** Ilmiy tashkilot va ta’lim muassasalari | 2023-yil sentyabr | Davlat budjeti mablagʻlari doirasida | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov,**<br>Fanlar akademiyasi<br>**B. Yuldashev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kesimida akkreditatsiyadan oʻtgan ixtisosliklar boʻyicha oliy taʼlimdan keyingi taʼlim institutlarining samaradorlik koʻrsatkichlarini oshirish. | | | |
| **12-maqsad: Barcha yoʻnalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash** | | | | | |
| 18. | Global innovatsiya indeksida (GII) qayd etilgan past indikatorlar boʻyicha Oʻzbekiston pozitsiyasini yaxshilash boʻyicha **maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish**. | **1.** GII-2023 hisoboti va avvalgi ikki yillik hisobotlardagi doimiy past baholangan, maʼlumoti mavjud boʻlmagan va eskirgan indikatorlarni tahlil qilish. | 2023-yil oktyabr | - | Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov** |
| | | **2.** Masʼul davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda GII-2023 hisoboti indikatorlari maʼlumotlarini shakllantirish va bahosini koʻtarish boʻyicha Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash respublika komissiyasining 2024-2025-yillarga moʻljallangan maqsadli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2023-yil noyabr | | |
| | | **3.** Tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq belgilangan ishlarni muddatida amalga oshirish choralarini koʻrish. | ish rejasiga asosan | | |
| **1.2. Aholi salomatligini taʼminlash boʻyicha islohotlar** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *(Mas'ul — A. Aripov)* | | | | | |
| **13-maqsad: Aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | | |
| 19. | Aholi o'rtasida **ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni barvaqt aniqlash** va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish. | **1.** Oylar kesimida **40 va undan katta yoshdagi** aholini *(2,1 mln)* qandli diabet, yurak-qon tomir kasalligining xavf omillarini aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvi bilan qamrab olish dasturini tasdiqlash.<br><br>**2.** Qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklariga **moyilligi bor fuqarolarga** *(kamida 5 mln)* **tushuntirish-targ'ibot ishlarini** olib borish choralarini ko'rish.<br><br>**3.** Xavf guruhiga mansub ayollarni *(1 mln)* xavfli o'sma kasalligini erta aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvidan o'tkazish. | 2023-yil dekabrdan boshlab | - | Sog'liqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov** |
| **14-maqsad: Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish** | | | | | |
| 20. | Bemorlarning **tibbiy xizmatlar sifatidan qoniqishini** baholash bo'yicha elektron axborot tizimini ishlab chiqish. | **1.** Bemorlarning **tibbiy xizmatlar sifatidan qoniqishini** baholash bo'yicha elektron axborot tizimini yaratish bo'yicha texnik topshiriqni ishlab chiqish.<br><br>**2.** Sog'liqni saqlash tizimi mutaxassislarining malakasini oshirish va uzluksiz tibbiy ta'lim jarayonlarida jamoatchilik ishtiroki | 2023-yil noyabr | Sog'liqni saqlash vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov,**<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>**Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | uchun imkoniyatlarni yaratish. | | | |
| **15-maqsad: Bolalar oʻrtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish** | | | | | |
| 21. | **Erta va qarindoshlar oʻrtasidagi nikohlarning oldini olish**, tugʻishlar oʻrtasidagi **maqbul oraliqqa rioya qilish**, irsiy kasalliklar profilaktikasi dolzarbligini aholi oʻrtasida keng targʻib qilish. | **1.** FHDY organlarida **“Yosh kelin-kuyovlar maktabi”** faoliyatini olib borish va ularning maxsus kurslardan toʻliq oʻtishini taʼminlash.<br><br>**2.** Maktablarda, mahalla va oilalarda oʻsmir yigitlar va ularning otalari, shuningdek, voyaga yetmagan qizlar va ularning onalari bilan **qarindoshlar orasidagi hamda erta nikoh va homiladorlikning salbiy oqibatlari** boʻyicha alohida davra suhbatlari oʻtkazish.<br><br>**3. Maqbul oraliqqa rioya qilmagan holda tugʻishlarning ona va bola organizmiga salbiy oqibatlari, tugʻishlar orasidagi maqbul oraliqqa rioya qilishning afzalliklari va zamonaviy choralari** toʻgʻrisida oilalarda yosh kelinchak va uning oila aʼzolari bilan birgalikda individual suhbatlar oʻtkazish.<br><br>**4.** Erta va qarindoshlar oʻrtasidagi nikohlarning oldini olish, tugʻishlar | 2023-yil dekabr | Ijrochilar mablagʻlari | Vazirlar Mahkamasi<br>**Z. Maxkamova,**<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov**,<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov**,<br>Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi<br>**X. Umarova**,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o'rtasidagi maqbul oraliqqa rioya qilish, irsiy kasalliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha tarqatma materiallar (flayer, buklet), videomaterial va roliklar tayyorlash, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda namoyish qilish. | | | |
| **16-maqsad: Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash** | | | | | |
| 22. | Ayollar salomatligini muhofaza qilish, **kasalliklarning oldini olish tadbirlarini** yanada takomillashtirish. | **1.** Tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarining **"Ayollar maslahatxonasi" bo'limida** homiladorlarni hisobga olishdan boshlab, tug'ruqdan keyingi **42 kunga qadar bo'lgan davrni qamrab oluvchi yagona elektron bazani shakllant�rish** va amaliyotga to'liq joriy qilish.<br>**2. 15 — 49 yoshli ayollarni har yili 1-marta profilaktik ko'riklardan o'tkazish**, ekstragenital kasallik aniqlanganlarni homiladorlikkacha sog'lomlashtirish choralarini ko'rish. | Doimiy | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida | Sog'liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| 23. | Tug'ish yoshidagi va homilador ayollarga hamda bolalarga **7 turdagi vitaminlar, yod va** | Quyidagilar:<br>**6 oylikdan 5 yoshgacha** bo'lgan | 2023-yil noyabr oyidan | Hisob-kitoblar asosida Davlat budjeti mablag'lari va xalqaro moliya | Sog'liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **foliy k�slotasini bepul tarqatish** ishlarini davom ettirish. | bolalarni **“A” vitamini** bilan;<br>**1,0 million** nafar homilador va **1,5 million nafar** bola emizuvchi ayollarni yod preparati bilan;<br>**5,9 million** nafar 35 yoshgacha tug‘ish yoshidagi ayollarni temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta’minlash. | boshlab har yili | institutlari mablag‘lari | |
| 24. | Bolalarning sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash orqali **ratsional o‘sishi va rivojlanishi, aqlan barkamol bo‘lib shakllanishini** ta’minlash. | **1.** Respublika bo‘yicha **6 — 23 oylik** bo‘lgan jami **1,2 million** nafar bolani mikronutriyent kukuni bilan bepul ta’minlash.<br>**2.** Quyidagilarni:<br>**6,5 million nafar 2 — 10 yoshdagi** bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar bilan;<br>**8,8 million nafar 3 — 15 yoshdagi** bolalarni yod preparati bilan **bepul ta’minlash**. | 2023-yil noyabr oyidan boshlab har yili | Hisob-kitoblar asosida<br>Davlat budjeti mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| 25. | Koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazgan bolalarda doimiy asosda **nutq protsessorlarini almashtirish** dasturini yo‘lga qo‘yish. | 2023-yilda **132 nafar**, 2024-yilda **125 nafar** bolalarda nutq protsessorlarini almashtirish. | 2023-yil noyabr oyidan boshlab har yili | Ijrochilar mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| 26. | Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo‘yicha epidemiologik | Respublika bo‘yicha **12 million** nafar bolani **13 turdagi** vaksinalar | 2023-yil sentyabr — | Davlat budjeti mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | barqarorlikni ta’minlash maqsadida **profilaktik emlash tadbirlarini** davom ettirish. | bilan boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash. | dekabr oylari | | **A. Inoyatov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov** |
| **17-maqsad: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va oʻlim koʻrsatkichini kamaytirish** | | | | | |
| 27. | Xavf guruhiga mansub aholini **onkologik kasalliklarni erta aniqlash** boʻyicha skrining tekshiruvlaridan oʻtkazish. | **45 — 65 yoshdagi 2 million nafar** ayolni 2 yilda 1-marta koʻkrak bezi saratonini erta aniqlash boʻyicha ommaviy skrining tekshiruvidan oʻtkazish. | Har yili | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablagʻlar doirasida | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| **18-maqsad: Yuqumli boʻlmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish** | | | | | |
| 28. | Bolalar va katta yoshdagi aholi orasida profilaktik koʻriklar va skrining tekshiruvlar qamrovini oshirish. | **1. 3 million nafar** maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va umumta’lim maktablari oʻquvchilarini chuqurlashtirilgan tibbiy koʻrikdan oʻtkazish.<br>**2. 2 — 10 yoshli 1,3 million** nafar bolani gelmintozni, **3 — 18 yoshli 3 million** nafar bolani 2 yilda 1-marta gematoonkologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida ommaviy va selektiv skrining tekshiruvlaridan oʻtkazish.<br>**3. 4 million nafar 18 — 40 yoshli aholini** har yili 1-marta profilaktik koʻrikdan oʻtkazish va salomatlik holatini baholash. | Tarmoq reja asosida | - | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **4. 2,1 million nafar 40 yosh va undan katta yoshdagi** aholi orasida yuqumli boʻlmagan kasalliklar xavf omillarini erta aniqlash maqsadida skrining tekshiruvlarini joriy qilish**.** | | | |
| **19-maqsad: Sogʻlom va faol keksalikni ta'minlash** | | | | | |
| 29. | Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining **Faol keksalik konsepsiyasi va Keksa odamlarning salomatligi hamda farovonligini baholash indikatorlarini** amaliyotga joriy etish. | **1.** Keksa yoshdagi aholining salomatligini va faolligini baholash tizimini joriy etish.<br>**2. 4,6 million** nafar 55 va undan katta yoshdagi aholini har yili profilaktik koʻrikdan oʻtkazish.<br>**3.** Surunkali kasalligi aniqlanganlarning tizimli nazoratini, ambulator va statsionar sogʻlomlashtirishni tashkillashtirish.<br>**4.** Yuqumli boʻlmagan kasallikka chalingan keksa yoshdagi bemorlar va ularning farzandlarini **oʻzini oʻzi parvarish qilishga oʻrgatish** maqsadida koʻp tarmoqli markaziy poliklinikalarda "Profilaktika maktabi" mashgʻulotlarini oʻtkazish. | Tarmoq reja asosida | Hisob-kitoblar asosida Davlat budjeti mablagʻlari | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| 30. | Katta yoshdagi aholi orasida toʻgʻri ovqatlanish, **jismoniy faollik va** | **1.** Keksa yoshdagi aholi vakillarining kun tartibini tashkillashtirish, | 2023-yil dekabr | "Nuroniy" jamgʻarmasi mablagʻlari | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **yuqumli boʻlmagan kasalliklar profilaktikasi** boʻyicha individual va ommaviy targʻibot tadbirlarini oʻtkazish. | jismoniy faolligi va kasalliklar **profilaktikasi boʻyicha targʻibot materiallarini tayyorlash.**<br>**2.** Katta yoshdagi aholi orasida skandinavcha yurish va ularga mos boshqa sport turlarini joriy qilish, “**Keksalik gashti” shiori ostida yengil sport musobaqalarini** oʻtkazib borish. | | | **B. Musayev,**<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A.Inoyatov** |
| **20-maqsad: Aholi orasida toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish** | | | | | |
| 31. | Kasallik turlari, jumladan yurak-qon tomir va diabet kasalligi boʻyicha bemorlar uchun **parhez odatlariga asoslangan ovqatlanishni baholashning milliy tizimini** ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish. | 1. Kasallik turlari, jumladan yurak-qon tomir va diabet kasalligi boʻyicha bemorlar uchun parhez odatlariga asoslangan ovqatlanishni baholashga oid ilmiy-tadqiqot loyihasini tayyorlash boʻyicha tanlov oʻtkazish.<br>2. Kasallik turlariga koʻra bemorlarni ovqatlantirish boʻyicha parhez stollari boʻyicha meʼyoriy hujjatni JSST tavsiyalari va ilgʻor mamlakatlar tajribasi asosida qayta koʻrib chiqish. | 2023-yil dekabr | Ilmiy dasturlarga ajratilgan mablagʻlar | Innovatsion rivojlanish agentligi<br>**O. Toʻychiyev,**<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| 32. | Oziq-ovqat mahsulotlarida **transyogʻlar va boshqa zararli moddalarni aniqlash** tizimini yoʻlga qoʻyish. | Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasining **Milliy referens-laboratoriyasi,** | 2023-yil noyabr | - | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov,**<br>Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi hamda Xorazm, Samarqand, Namangan viloyatlari mintaqaviy laboratoriyalarining** oziq-ovqat mahsulotlarida transyogʻlar va boshqa zararli moddalarni aniqlash imkonini beruvchi asbob-uskunalar roʻyxatini va tender hujjatlarini shakllantirish. | | | jamoat salomatligi qoʻmitasi<br>**B. Yusupaliyev** |
| **21-maqsad: Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish** | | | | | |
| 33. | Davolashning uzluksizligini ta’minlash uchun **bemorning umri davomidagi klinik ma’lumotlarini elektron tizimda** respublika hududida almashish imkonini yaratish. | Elektron sogʻliqni saqlash tizimi yagona platformasining **arxitekturasi va milliy standartlarini** ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>Bunda, tibbiy ma’lumot almashish standartlari va raqamli sogʻliqni saqlash tizimi **yagona platformasining batafsil loyihasi** hisobga olinadi. | 2023-yil sentyabr | Germani�ning “KfW” banki,<br>Sogʻliqni saqlash vazirligining budjetdan tashqari mablagʻlari | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov,**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |
| 34. | **Nodavlat tibbiyot tashkilotlarini** sogʻliqni saqlashning yagona axborot tizimiga integratsiya qilish. | Nodavlat tibbiyot tashkilotlarining sogʻliqni saqlashning yagona axborot tizimiga ulani�ini belgilovchi talabni tibbiy faoliyatga oid **litsenziyaning talab va shartiga kiritish.** | 2023-yil dekabr | - | Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov,**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |
| **1.3. Ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha islohotlar** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *(Mas'ul — J. Qo'chqorov, Z. Maxkamova, M. Olloyorov)* | | | | | |
| **22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish** | | | | | |
| **18-maqsad: Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish** | | | | |
| 63. | Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni **erta aniqlash** darajasini oshirish. | foiz | **50** | **55** |
| 64. | Aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish. | foiz | **59,3** | **61,0** |
| 65. | Tibbiyot muassasalarining yuqumli bo'lmagan asosiy kasalliklarni davolash uchun zarur bo'lgan bazaviy diagnostik testlar, jihozlar va asosiy dori vositalari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish. | foiz | **35** | **40** |
| **19-maqsad: Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash** | | | | |
| 66. | 55 va undan katta yoshdagi aholini har yili **profilaktik ko'rikdan o'tkazish.** | foiz | **100** | **100** |
| **20-maqsad: Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish** | | | | |
| 67. | **Anemiya** bilan kasallanishni kamaytirish. | 100 ming aholiga nisbatan | **3858,6** | **3665,6** |
| 68. | **Yod yetishmasligi** bilan bog'liq kasallanishni kamaytirish. | 100 ming aholiga nisbatan | **493,9** | **469,2** |
| 69. | **Ichak infeksiyalari** bilan kasallanishni kamaytirish. | 100 ming aholiga nisbatan | **156,3** | **148,4** |
| **21-maqsad: Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish** | | | | |
| 70. | **Raqamli texnologiyalar** joriy etilgan tibbiyot muassasalari ulushini oshirish. | foiz | **55** | **70** |
| **1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar** | | | | |
| **22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish** | | | | |
| 71. | Mahalla darajasida manzilli professional ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy xodimlar faoliyatini yo'lga qo'yish. | nafar | 600 | 4200 |
| **23-maqsad: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim hamda ular uchun qulay va maqbul muhit yaratish** | | | | |
| 72. | Nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari (son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari) bilan ta'minlash. | foiz | 8 | 16 |
| 73. | Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimida yengillik yaratish maqsadida sirtdan nogironlik belgilanadigan kasalliklar va uning asoratlari ro'yxatini kengaytirish. | foiz | 7 | 15 |
| **24-maqsad: Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish** | | | | |
| 74. | Oilada hamda muqobil parvarish qilishning boshqa shakllarida tarbiyalanayotgan yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sonining jami va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar umumiy sonidagi ulushi. | foiz | 99,2 | 99,3 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **25-maqsad. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash** | | | | |
| 75. | Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turarjoyga muhtoj **xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash.** | mingta | **4** | **4** |
| 76. | Davlat tomonidan ehtiyojmand xotin-qizlarga **maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish.** | mingta | **2,7** | **3** |
| 77. | **Boshqaruv lavozimlaridagi** xotin-qizlar ulushini oshirish. | foiz | **29,6** | **30,2** |
| 78. | Oliy ta’limdagi **talabalar orasida xotin-qizlar ulushini** oshirish. | foiz | **49,2** | **50,1** |
| 79. | Xotin-qizlarning **axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan** faol foydalanishini oshirish. | mingta | **47** | **50** |
| **26-maqsad: Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash** | | | | |
| 80. | Nuroniylar uchun respublika bo‘ylab diqqatga sazovor joylar, xususan **tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning so‘lim go‘shalariga** sayohatlar tashkil etish. | million nafar | **1, 2** | **1, 3** |
| **27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish** | | | | |
| 81. | **Kambag‘allik darajasini** kamaytirish. | foiz | **12** | **10** |
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish** | | | | |
| 82. | Mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan **yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning barqaror va samarali bandligini ta’minlash** orqali ishsizlik darajasini tushirish. | foiz | **8,5** | **8,1** |
| 83. | Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali **ishsiz aholini ishga joylashtirishga** ko‘maklashish. | ming nafar | **415** | **423** |
| **29-maqsad: Har bir fuqaroni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish** | | | | |
| 84. | Ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni **kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga** o‘qitish. | ming nafar | **160** | **200** |
| 85. | Xalqaro standartlar asosida kasbga o‘qitish markazlari o‘qituvchilarining **malakasini oshirish**. | nafar | **50** | **100** |
| 86. | Kasb-hunarga o‘qitishda **xususiy sektor va “usta-shogird” maktablari** ulushini oshirish. | foiz | **15** | **20** |
| **1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar** | | | | |
| **30-maqsad: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish** | | | | |
| 87. | Yoshlarni **zamonaviy kasblarga** o‘qitish. | ming nafar | **5** | **7,5** |
| 88. | Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarning **imtihon xarajatlarini qoplab berish**. | ming nafar | **5** | **6** |
| **31-maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish** | | | | |
| 89. | Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali **yoshlarning iqtidorini rivojlantirish**. | ming nafar | **500** | **800** |
| 90. | Iste’dodli yoshlarni **xorijning eng nufuzli oliygohlariga** o‘qishga yuborish. | nafar | **500** | **500** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish** | | | | |
| 91. | Yoshlarning **bandligini ta’minlash**. | ming nafar | **200** | **300** |
| 92. | Yoshlarning **ishsizlik darajasini** kamaytirish. | foiz | **13,8** | **13,5** |
| **33-maqsad: Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish** | | | | |
| 93. | **IT sohasida** yoshlarni ish bilan ta’minlash, maktab o‘quvchilarini **xalqaro IT bozorida** talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘rgatish. | ming nafar | **50** | **75** |
| **34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish** | | | | |
| 94. | Yoshlarni **ommaviy sport tadbirlariga** jalb qilish. | million nafar | **6,2** | **6,5** |
| 95. | **Sport bilan shug‘ullanishga** jalb qilingan aholi ulushi. | foiz | **26** | **28** |
| 96. | Mahallalarda **ko‘p funksiyali sport maydonchalarini** barpo etish. | ta | **446** | **400** |
| **35-maqsad: Respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish** | | | | |
| 97. | **Sport-ta’lim muassasalarida** muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar soni. | ming nafar | **360** | **400** |
| 98. | Mavjud sport maktablarida aholi soni va ixtisoslashuviga ko‘ra **olimpiya sport turlari** bo‘yicha sport seksiyalarini tashkil etish. | ta | **300** | **450** |
| **36-maqsad: Milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish** | | | | |
| 99. | **Razryadli va unvonli** sportchilar soni. | ming nafar | **28** | **30** |
| 100. | Sport sohasida **oliy ma’lumotli xodimlar** ulushi. | foiz | **62** | **69** |
| 101. | Sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha **ilmiy tadqiqot va izlanishlar** soni. | dona | **52** | **60** |
| **37-maqsad: Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish** | | | | |
| 102. | Parij-2024 Olimpiya va paralimpiya o‘yinlariga **litsenziyalar va ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritish.** | dona | **25** | **140** |
| **1.5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar** | | | | |
| **38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash** | | | | |
| 103. | Ma’rifat targ‘ibotchilari sonini oshirish. | nafar | **1000** | **2000** |
| 104. | Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul xodim va mutaxassislar malakasini oshirish. | nafar | **500** | **1500** |
| 105. | Targ‘ibot media mahsulotlari ishlab chiqish. | dona | **100** | **150** |
| **39-maqsad: “O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish** | | | | |
| 106. | “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” deb nomlangan ko‘p jildlik kitoblar majmuasini chop etish. | nusxa | **-** | **1150** |
| 107. | “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” 100 jildligini o‘zbek tilida nashr qilish. | ming nusxa | **-** | **20** |
| **40-maqsad: Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish** | | | | |
| 108. | Davlat teatrlari tomonidan namoyish etiladigan spektakllarga **tomoshabinlarni jalb etish.** | million nafar | **3,2** | **3,6** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 109. | Davlat teatrlarining **xalqaro festival va gastrollarga yuborilishi**ni tashkil etish. | ta | **14** | **20** |
| 110. | Har yili davlat teatrlarida faoliyat yuritayotgan ijodiy va yordamchi xodimlarning **xorijiy davlatlarning nufuzli teatrlarida mahoratini oshirish**. | nafar | **-** | **50** |
| 111. | Davlat buyurtmasi asosida davlat teatrlarida **yangi spektakllarni sahnalashtirish.** | dona | **40** | **42** |
| 112. | Joylarda o‘tkaziladigan **sirk tomoshalarining sonini oshirish.** | ta | **490** | **550** |
| | **41-maqsad: O‘zbek milliy san’atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish** | | | |
| 113. | Respublikada **xalqaro festivallar, anjumanlar, forumlar** va boshqa tadbirlarni o‘tkazish. | dona | **7** | **11** |
| 114. | Davlat konsert-tomosha muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy tadbirlar va festivallarga **tomoshabinlarni jalb etish.** | million nafar | **9,5** | **10** |
| 115. | Madaniyat va san’at tizimidagi oliy ta’lim muassasalarining **il�iy salohiyatini oshirish**, xususan ilmiy darajali va unvonli kadrlar sonini ko‘paytirish. | nafar | **10** | **10** |
| 116. | Madaniyat va san’at sohasida iste’dodli va yuqori malakali **ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish.** | dona | **23** | **35** |
| | **42-maqsad: Madaniy mer�sni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish** | | | |
| 117. | Davlat muzeylari binolarini **rekonstruksiya qilish va tiklash.** | dona | 7 | **16** |
| 118. | Davlat muzeylaridagi **elektron identifikatsiya qilinadigan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari** sonini oshirish. | ming dona | **-** | **500** |
| 119. | Davlat muzeylariga **tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy sayyohlar** oqimini oshirish. | million nafar | 3 | **4** |
| 120. | Davlat muzeylari **rahbar va xodimlarining malakasini oshirish.** | nafar | **20** | **80** |
| 121. | Arxeologiya obyektlarida **ilmiy-tadqiqot ishlarini** amalga oshirish. | dona | **70** | **110** |
| 122. | Arxeologiya yodgorliklar�da **konservatsiya va muzeylashtirish** ishlarini amalga oshirish. | dona | - | **3** |
| 123. | Madaniy meros obyektlarida **restavratsiya, ta’mirlash-tiklash ishlarini** amalga oshirish. | dona | **62** | **123** |
| | **43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish.** | | | |
| 124. | **324 ta** bolalar san’at maktabi hamda **826 ta** madaniyat markazini **milliy musiqa cholg‘ulari bilan to‘liq ta’minlash.** | komplekt | **1150** | **1150** |
| 125. | Nukus shahri, viloyatlar va Toshkent shahri markazlarida **ijodkorlarning doimiy ko‘rgazmalari**ni tashkil qilish. | ta | - | **250** |
| 126. | Madaniyat va san’at muassasalarini **davlat-xususiy sheriklik asosida** tashkil etish. | dona | **15** | **15** |
| | **44-maqsad: Milliy kinematografiyani rivojlantirish** | | | |
| 127. | Jahonning eng nufuzli **xalqaro kinobozor va kinofestivallarida ishtirok etish**. | dona | - | **5** |
| 128. | Dunyodagi eng ommabop **Internet platformalariga milliy filmlarni joylashtirish** soni. | dona | - | **5** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 129. | Milliy qahramonlar haqida **multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarish**. | dona | **2** | **10** |
| 130. | Ta’lim tashkilotlari uchun **o‘quv-uslubiy filmlar yaratish**. | dona | - | **10** |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
1b-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari**

RO‘YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **1.1. Ta’lim tizimi islohotlari** (*Mas’ul — A. Aripov*) | | | | |
| **1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash** | | | | |
| 1. | **Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish** bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun **bog‘cha xarajatlarini davlat tomonidan qoplash** tizimini joriy qilish.<br><br>**2.** Tarbiyalanuvchilarni zamonaviy texnologiyalarga o‘rgatish maqsadida **maktabgacha ta’lim tashkilotlarini kompyuter sinflari bilan ta’minlash.**<br><br>**3.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini **ichimlik suv bilan ta’minlash** va ularning **sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash** choralarini ko‘rish.<br><br>**4.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida **muqobil energiya manbalari, energiya tejamkor material va texnologiyalarni joriy qilish** orqali energiya samaradorlikni oshirish.<br><br>**5.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida **oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berishni** yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil noyabr | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**O. Fozilkarimov** |
| **2-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish** | | | | |
| 2. | Ta’lim uchun qulay muhitni yaratishga oid | Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida boshlang‘ich sinf | 2023-yil noyabr | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | oʻquvchilarini **ta’lim planshetlari** bilan bosqichma-bosqich ta’minlash. | | **X. Umarova,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov** |
| **4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish** | | | | |
| 3. | Pedagog kadrlarga **malaka toifasini berishning** yangi tartibini joriy qilish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1. 2024-yil 1-sentabrdan boshlab** davlat maktabgacha, umumiy oʻrta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibini joriy qilish.<br>**2.** Malaka toifasini olish boʻyicha sinovlarni bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda oʻtkazish hamda **birinchi bosqichda talabgorning mutaxassislik fani va kasb standarti boʻyicha bilim darajasi, ikkinchi bosqichda — pedagogik mahoratini baholash** tarzid� oʻtkazish. | 2023-yil noyabr | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>**X. Umarova**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov,**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |
| 4. | Milliy baholash tizimida **ona tili va adabiyot hamda tarix fanlarini bilish** boʻyicha ser�ifikatlarga qoʻshimcha ragʻbatlantirishni joriy etish borasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Milliy baholash tizimida **ona tili va adabiyot hamda tarix fanlarini bilish** boʻyicha tegishli darajadagi sertifikatga ega boʻlgan oʻqituvchilarga **50 foiz miqdorida** ustama toʻlash amaliyotini joriy etish. | 2023-yil noyabr | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>**X. Umarova**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov,**<br>Adliya vazirligi<br>**A.Tashkulov** |
| **5-maqsad: Umumiy oʻrta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish** | | | | |
| 5. | **Nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etishni** soddalashtirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda ularning **elektron kutubxonasi, axborot-resurs markazlari, oʻqituvchilarning toifalari, bitta sinfda ta’lim oluvchilarning maksimal soniga qoʻyilgan talablarni** yengillashtirish.<br>**2.** Nodavlat umumiy oʻrta ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun qoʻyilgan talablarni **davlat umumiy oʻrta** | 2023-yil noyabr | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Adliya vazirligi<br>**A.Tashkulov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlariga qo'yilgan talablarga muvofiqlashtirish.** | | |
| 6. | Nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etishda **tadbirkorlarga yengillik yaratish** borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun olinadigan **kreditlar bo'yicha foiz stavkasining bir qismini qoplab berish** amaliyotini kiritish. | 2023-yil dekabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov,**<br>Markaziy bank<br>**M. Nurmuratov**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |
| **6-maqsad: Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish** | | | | |
| 7. | Texnikumlarda **kredit-modul tizimini joriy etish** bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Ta'limning kredit-modul tizimi joriy etiladigan ta'lim tashkilotlari ro'yxatini tasdiqlash.<br>**2.** O'quv jarayoniga **kredit-modul tizimini joriy etishda** ta'lim dasturi, fanlar katalogi, akademik mobillik, ta'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma, kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazishga taalluqli hujjatlarni tasdiqlash.<br>**3.** Texnikumlarning **o'quv yuklamasi va o'quvchi tomonidan bir o'quv yilida to'planadigan kreditlar hajmini** belgilash.<br>**4.** Kredit-modul tizimida o'qiydigan o'quvchilarni **o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish** tartibini belgilash. | 2023-yil oktyabr | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmanov**, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| **7-maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mut?xassislar tayyorlash sifatini oshirish** | | | | |
| 8. | Oliy ta'lim muassasalariga kirish jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun berilgan imtiyozlarni xatlovdan o'tkazib, ularni qayta ko'rib chiq�an holda yagona hujjatda tugal ro'yxati shaklida shakllantirish.<br>**2.** Ushbu imtiyozlarni umumiy kvotaga kiritmaslik to'g'risidagi qoidani belgilash. | 2023-yil noyabr | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **8-maqsad: Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash** | | | | |
| 9. | **Navoiy davlat pedagogika instituti** negizida Navoiy davlat universitetini tashkil qilishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | **1. Navoiy davlat pedagogika instituti** negizida Navoiy davlat universitetini tashkil qilish.<br><br>**2.** 2023 — 2026-yillar uchun universitetni **kompleks rivojlantirish dasturini** tasdiqlash.<br><br>**3.** Xalqaro aloqalarni mustahkamlash, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, ilg‘or tajribalarni o‘quv va ilmiy jarayonga tatbiq etishni nazarda tutuvchi amaliy chora-tadbirlarni belgilash.<br><br>**4.** Universitetga **ta’lim standartlarini ishlab chiqish, malakaviy talablar, o‘quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, ilg‘or xalqaro tajribani** hisobga olgan holda talabalarning bilimini baholash hamda o‘quv jarayonining amaliyot bilan integratsiyalashuvini ta’minlash tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash huquqini berish.<br><br>**5.** Universitetga bosqichma-bosqich **moliyaviy mustaqillik b�rishni** nazarda tutish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**O. Fozilkarimov,**<br><br>Navoiy viloyati hokimligi<br><br>**N. Tursunov** |
| 10. | **Buxoro davlat tibbiyot instituti** negizida Buxoro davlat tibbiyot universitetini tashkil qilish. | **1. Buxoro davlat tibbiyot instituti** negizida Buxoro davlat tibbiyot universitetini tashkil qilish.<br><br>**2.** Universitetning **asosiy vazifalarini** belgilash.<br><br>**3.** 2023 — 2026-yillar uchun universitetni **kompleks rivojlantirish dasturini** tasdiqlash.<br><br>**4.** 2026-yilga qadar universitetni rivojlantirishning **maqsadli ko‘rsatkichlarini** belgilash.<br><br>**5.** Universitet **moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlash,** simulatsion markaz, o‘quv va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etish hamda zamonaviy asbob- | 2023-yil noyabr | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov**,<br><br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**O. Fozilkarimov,**<br><br>Buxoro viloyati hokimligi<br><br>**B. Zaripov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | uskunalar bilan jihozlash bo‘yicha choralarni belgilash.<br><br>**6.** Buxoro viloyati hamda qo‘shni hududlar s�g‘liqni saqlash tizimi ehtiyojlarini va muammolarini muntazam o‘rganib borish, ularni vakolati doirasida bartaraf etish maqsadida sog‘liqni saqlash tizimi hamda nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rtasida uzviy hamkorlikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yishni nazarda tutish.<br><br>**7.** Universitetning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan professor-o‘qituvchilarning xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalari tomonidan e’tirof etilgan yuqori reytingli jurnallarda ilmiy **maqolalar chop etish sarf-xarajatlarini qoplashni** belgilash. | | |
| **1.2. Aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar**<br><br>*(Mas’ul — A. Aripov)* | | | | |
| **13-maqsad: Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | |
| 11. | Aholi o‘rtasida noinfeksion kasalliklarning oldini olishga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Aholiga o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilishni o‘rgatish va **to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova** yaratish.<br><br>**2.** Bolalarga mo‘ljallangan nosog‘lom oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, bolalar oziq-ovqat mahsulotlari hamda energetiklar, dori vositalari, biologik faol moddalar reklamasiga **talab va cheklovlarni kuchaytirish.**<br><br>**3.** Ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlar uchun tavsiya etilmaydigan mahsulotlar, shu jumladan tarkibida **shakar, tuz, transyog‘lar miqdori yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, ta’m va rang beruvchi qo‘shimchalar** ro‘yxatini tasdiqlash va ularning iste’molini kamaytirish.<br><br>**4.** Mahalliy mahsulotlar turlaridan kelib chiqib, aholining har bir xavf guruhi va kasallik turlari uchun alohida-alohida sog‘lom ovqatlanishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | Sog‘liqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **5.** Bolalar, kattalar va keksalar uchun qisqa to'g'ri ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar, **sog'lomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalari** to'plamini yaratish.<br><br>6. **Surunkali kasalliklarni boshqarish dasturini** ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish.<br><br>7. Ambulator sharoitda **dinamik nazoratga olinadigan kasalliklar** ro'yxatini shakllantirish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish.<br><br>8. Toshkent shahrida tajriba-sinov tariqasida aholining eng ko'p murojaatlariga sabab bo'lgan **surunkali (gipertoniya kasalligi, yurak ishemik kasalligi, qandli diabetning 2-turi, bronxial astma, o'pkaning surunkali kasalligi) kasalliklar** bilan dispanser nazoratida turgan bemorlarni "reimbursatsiya" dasturi doirasida 11 turdagi dorilar bilan ta'minlash. | | |
| **1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar**<br><br>*(Mas'ul — J. Qo'chqorov, Z. Maxkamova, M. Olloyorov)* | | | | |
| **24-maqsad: Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish** | | | | |
| 12. | Bolalarga nisbatan **tazyiq va zo'ravonlik o'tkazishning oldini olish**ga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish bo'yicha qonun loyihasi. | **1.** Bolalarni **tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish**da davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash.<br><br>**2.** Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash, tazyiqlarga chek qo'yish mexanizmini takomillashtirish.<br><br>**3.** Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan bolalarga **kompleks yordam** ko'rsatishni yo'lga qo'yish. | 2023-yil oktyabr | Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov,**<br><br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>**M. Olloyorov**,<br><br>Ichki ishlar vazirligi<br><br>**P. Bobojonov**,<br><br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova** |
| 13. | Oilaviy bolalar uyi bitiruvchilarining **jamiyatga moslashuvini yaxshilash** | **1.** "Oilaviy bolalar uylari to'g'risida"gi nizomga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish.<br><br>**2.** Oilaviy bolalar uylari bitiruvchilarining jamiyatga | 2024-yil mart | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br><br>**J. Abruyev,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **maqsadida 18 yoshga toʻlgandan keyin ham oʻqishni** tugatib, ishga joylashib olgunga qadar **oilada qolish mexanizmini** joriy etish. | moslashuvida jamoatchilik nazoratini yoʻlga qoʻyish. | | Oliy Majlisning Bola huquqlari boʻyicha vakili<br>(Bolalar ombudsmani)<br>**A. Yunusova,**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |
| **25-maqsad. Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini taʼminlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni taʼminlash** | | | | |
| 14. | Xotin-qizlarning taʼlim olishi, kasbiy koʻnikmalarni egallashi va **munosib ish topishiga koʻmaklashish**, tadbirkorligini rivojlantirish tizimini takomillashtirishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanmoqchi boʻlgan xotin-qizlar uchun **qoʻshimcha imtiyozlar** taqdim etish.<br>**2.** Buyurtma asosida ishsiz va ish qidiruvchi xotin-qizlarni davlat yoki nodavlat taʼlim tashkilotlarida hamda tayyorlov kurslarida maqsadli oʻqitish tizimini yaratish. | 2023-yil sentyabr | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi<br>**O. Parpiboyeva** |
| 15. | Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi tizimida faoliyat olib borayotgan masʼul xodimlarning **malaka va koʻnikmalarini oshirish**, shuningdek, xotin-qizlar faollari hamda **“Oqila ayollar”** harakati aʼzolarini **ragʻbatlantirish** boʻyicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi tizimida faoliyat olib borayotgan masʼul xodimlarning **muntazam malakasini oshirib** borish tizimini joriy etish.<br>**2.** Mahallalardagi **xotin-qizlar faollari** va **“Oqila ayollar” harakati** aʼzolarini samarali faoliyatiga asosan **ragʻbatlantirib borish** mexanizmini yaratish.<br>**3.** Faoliyat samaradorligi natijalariga koʻra yuqori koʻrsatkichlarga **erishgan mahalladagi xotin-qizlar faollarini ragʻbatlantirish tizimini** joriy etish. | 2023-yil dekabr | Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi<br>**O. Parpiboyeva,**<br>“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti<br>**N. Egamberdiyeva,**<br>Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abdurahmonov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16. | **Davlat xizmati, ta’lim, ilm-fan, sport, sog‘liqni saqlash hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy** sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun **teng huquq** hamd� **imkoniyatlarni** ta’minlash, xotin-qizlarning **ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish** bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish. | **1. Xodimlari sonining 30 foizi xotin-qizlardan iborat bo‘lgan hamda markaziy apparati rahbari yoki uning o‘rinbosaridan bir nafari** ayol bo‘lgan davlat tashkilotlarini qo‘shimcha rag‘batlantirish tizimini joriy etish.<br>**2. Genderga oid audit** o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.<br>**3.** Audit yakunlari (xulosasi)ga ko‘ra xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha takliflar tayyorlash. | 2023-yil dekabr | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>**O. Parpiboyeva**, Statistika agentligi<br>**B. Begalov** |
| 17. | Xotin-qizlar **muammolari bilan ishlash tizimini raqamlashtirishga** oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Xotin-qizlar **muammolari bilan ishlash tizimini raqamlashtirish.**<br>**2.** Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va ularni tizimli ravishda hal etish **modulini yaratish** va amaliyotga tatbiq etish. | 2023-yil sentyabr-oktyabr | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi<br>**O. Parpiboyeva** |
| **27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish** | | | | |
| 18. | 2024 — 2030-yillarga mo‘ljallangan **kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiyani** amalga oshirishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Xitoylik mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda strategiya loyihasini ishlab chiqish.<br>**2.** Loyihani vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>**3.** Tasdiqlangan hujjatni belgilangan muddatlarda amalga oshirish. | 2023-yil noyabr<br>2023-yil dekabr | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev** |
| 19. | Har bir viloyatda **kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan** bittadan jami **14 ta tumanni kambag‘allikdan chiqarish** uchun kompleks rivojlantirish va | **1.** Har bir viloyatda **kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan** bittadan jami **14 ta tumanni kambag‘allikdan chiqarish** uchun kompleks rivojlantirish va kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha dasturni tasdiqlash.<br>**2.** Tanlab olingan **14 ta tumanni** Xitoy tajribasi asosida, shu jumladan yangi yondashuvlar, innovatsion va “yashil” | 2023-yil dekabr | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**A. Xaydarov,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | kambag'allik�an chiqarish bo'yicha dasturni amalga oshirishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | texnologiyalar hamda boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llagan holda **kambag'allikdan chiqarish**. | | Biznes-ombudsman<br>**D. Kasimov** |
| 20. | Kambag'al aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Yangi moliyaviy instrumentlar joriy etish orqali kambag'al aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shu jumladan ularga **imtiyozli kredit va subsidiyalar berish tizimini** takomillashtirish.<br>**2.** Ehtiyojmand aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qulay shartlarda qo'llab-quvvatlash maqsadida raqamli mikromoliya tashkilotini tashkil etish. | 2023-yil noyabr | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev** |
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish** | | | | |
| 22. | Xalqaro mehnat tashkilotining **sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligi sohalarida mehnat munosabatlarini tartibga solishni** nazarda tutadigan **121-, 132-** va **95**-sonli konvensiyalarini ratifikatsiya qilish masalalarini o'rganib chiqish. | **1.** Ishchi guruh tuzish va milliy qonunchilikning xalqaro konvensiyalarga mosligini tahlil qilish.<br>**2.** Xalqaro konvensiyalarni o'rganib chiqish, mutasaddi vazirlik va idoralar takliflarini inobatga olgan holda yakuniy xulosa hamda tegishli qonun loyihasini tayyorlash va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil sentyabr<br>2023-yil oktyabr | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Ish beruvchilar konfederatsiyasi<br>**I. Xaydarov**,<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>**B. Saidov***,*<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov***,*<br>Sog'liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |
| 23. | **Ijtimoiy sug'urta tizimini** joriy etish bo'yicha qonunchilik hujjatlari loyihalari. | **1. Sug'urta to'lovlarini moliyalashtirishning** manbalarini aniqlash, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mabla�lari hisobidan to'lanadigan to'lovlarni belgilash. | 2024-yil yakuniga qadar | Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>**M. Olloyorov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **2.** Ijtimoiy sugʻurta tizimi doirasidagi **kafolatlangan sugʻurta toʻlovlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish va rasmiy mehnat munosabatlariga** oʻtishni ragʻbatlantirish.<br><br>**3.** Ish staji va badallar miqdoridan kelib chiqib, **ijtimoiy sugʻurta toʻlovlari miqdorini belgilash mexanizmini** joriy etish.<br><br>**4.** Milliy qonunchilikni Xalqaro mehnat tashkilotining 1952-yildagi **“Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari toʻgʻrisida”gi** 102-sonli Konvensiyasiga muvofiqlashtirish. | | **A. Xaydarov**,<br><br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>**B. Musayev**,<br><br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov**,<br><br>Kasaba uyushmalari federatsiyasi<br><br>**Q. Rafikov** |
| **1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yoʻnalishlaridagi islohotlar**<br><br>*(Mas’ul — A. Aripov)* | | | | |
| **30-maqsad: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga oʻqitish tizimini yaratish** | | | | |
| 24. | Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ““**Yoshlar daftari”ga kiritilgan talabalar uchun davlat tashkilotlarida ish haqi toʻlanadigan stajirovka tizimini joriy etish toʻgʻrisida**”gi qarori loyihasi. | **1. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan talaba yoshlarning** davlat tashkilotlarida amaliyot oʻtagan vaqtida subsidiya ajratish.<br><br>**2.** Amaliyotni davlat oliy ta’lim muassasalarining oʻquv rejalariga muvofiq **amaliyotni oʻtash dasturi** asosida amalga oshirish.<br><br>**3.** Davlat oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda bitiruvchilarning amaliyot davridan keyin **ish oʻrinlariga** joylashishlariga koʻmaklashish. | 2023-yil noyabr | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmanov**,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>**A. Sa’dullayev** |
| **31-maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini ragʻbatlantirish** | | | | |
| 25. | Oʻzbekiston Respubl�kasi Prezidentining **“Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini ragʻbatlantirish hamda iqtidorini qoʻllab-quvvatlash** | **1.** Dunyoning **eng nufuzli 100 ta oliygohiga** grantga oʻqishga qabul qilingan yoshlarga **“El-yurt umidi” jamgʻarmasi** mablagʻlarini qoʻshimcha imtihonlarsiz ajratish.<br><br>**2.** Dunyoning **eng nufuzli 500 ta oliygohiga** grant asosida qabul qilingan yoshlarning **transport** va **turarjoy** xarajatlarini toʻliq qoplab berish. | 2023-yil dekabr | “El-yurt umidi” jamgʻarmasi<br><br>**A. Bekmurodov,**<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>**A. Sa’dullayev** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **to‘g‘risida”**gi qarori loyihasi. | **3.** Biotexnologiya, sun’iy intellekt va boshqa yuqori texnologik muhandislik yo‘nalishlarida **iste’dodli yoshlarni xorijning eng nufuzli oliygohlariga davlat hisobidan** o‘qishga yuborish. | | |
| **32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish** | | | | |
| 26. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazini tashkil qilish to‘g‘risida”**giqarori loyihasi. | **1.** Har bir hududda kamida 100 gektar maydonda **Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazini** tashkil qilish.<br><br>**2. Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazida** loyiha ofislarini joylashtirish hamda yoshlar g‘oyalarini **tayyor biznesga aylantirishga** ko‘maklashish.<br><br>**3. Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazida** faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga **100 dan** ortiq davlat xizmatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatish.<br><br>**4. “Loyiha fabrikalari”** orqali sanoat zonalarida **“tayyor biznes”** korxonalarini qurib berish va yoshlarga **10 yil muddatga foizsiz lizing** asosida taqdim etish uchun **300 million AQSh dollari** ajratish.<br><br>**5.** Loyihalar uchun zarur mutaxassislarni **Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazida** joylashgan kasbga o‘qitish markazlari tomonidan tayyorlash. | 2023-yil noyabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>**L. Qudratov**,<br><br>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>**B. Musayev,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**O. Fozilkarimov,**<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>**A. Sa’dullayev** |
| **1.5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar**<br><br>*(Mas’ul — A. Aripov)* | | | | |
| **38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash** | | | | |
| 27. | O‘zbekiston xalqini **umummilliy qadriyatlar atrofida birlashtirish** konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga qaratilgan **ilmiy asoslangan monitoring** hamda **sotsiologik tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish** amaliyotini yo‘lga qo‘yish.<br><br>**2.** Mamlakatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarining **zamonaviy va ta’sirchan usullarini ishlab chiqish** hamda hududlarning o‘ziga xosligidan | 2023-yil oktyabr | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi<br><br>**M. Xodjimatov,**<br><br>Madaniyat vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov,**<br><br>Yozuvchilar uyushmasi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | kelib chiqib, **yangi mafkuraviy texnologiyalarni keng joriy etish.**<br><br>**3.** Turli yoshdagi aholining tarixga qiziqishini oshirish maqsadida **“Buyuk ajdodlar izidan”, “Tarixingdir ming asrlar”** va **“Oʻzbekiston — Vatanim manim”** koʻrik-tanlovlarini oʻtkazish.<br><br>**4.** Xorijda istiqomat qilayotgan oʻzbek ziyolilari, maʼrifatparvarlarini mamlakatimiz ravnaqi yoʻlida birlashtirish, ular bilan ilmiy-ijodiy muloqot maydonlarini yaratish maqsadida **“Salom, vatandosh!” ijtimoiy-maʼrifiy loyihasi**ni amalga oshirish.<br><br>**5.** Oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish, **oʻzbek tilini chuqur oʻrganish boʻyicha ilmiy-nazariy adabiyotlar, metodik qoʻllanmalar, lugʻatlar, maxsus atamalar, ixtisoslik yoʻnalishlari** boʻyicha adabiyotlarni yaratishni nazarda tutish. | | **S. Saidov** |
| **39-maqsad: “Oʻzbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini koʻrsatishni rivojlantirish** | | | | |
| 28. | Milliy adabiyotimizni rivojlantirish, **yozuvchi va shoirlarning samarali ijod qilishi** uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga oid Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi. | 2024-yilda **Yozuvchilar uyushmasining 90 yilligini adabiyot va kitobxonlik bayrami** sifatida keng nishonlash. | 2023-yil noyabr | Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov**,<br><br>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br><br>**A. Xodjayev** |
| 29. | **Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalarini** xalqimiz orasida keng ommalashtirishga oid Vazirlar | **1. “Oʻzbek adabiyoti xazinasidan” koʻp jildlik majmuani** koʻpming nusxalarda chop etish va barcha kutubxonalarga yetkazib berish.<br><br>**2. “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” 100 jildligini** oʻzbek tilida nashr qilish. | 2023-yil dekabr | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br><br>**A. Xodjayev,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Mahkamasi qarori loyihasi. | | | O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi<br>**S. Saidov** |
| **40-maqsad: Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish** | | | | |
| 30. | **Teatrlarning xalqimiz ma’naviy hayotidagi rolini oshirish** hamda ularning faoliyatini bugungi zamon talablari asosida rivojlantirishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Teatr va sirk san’ati sohasida iste’dodli va yuqori malakali ijodkorlarning **mahorat maktablari**ni tashkil etish.<br>**2.** Milliy va zamonaviy adabiyotimizning yuqori badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega asarlarini inssenirovka qilish uchun **har yili 10 tagacha davlat buyurtmasini** berish.<br>**3.** Teatrlarning **repertuar strategiyasini** ishlab chiqish.<br>**4.** Teatr jamoalarining **xorijiy davlatlarga gastrol safarlarini** tashkil qilish, **chet ellardagi nufuzli teatrlar bilan hamkorlikni** yo‘lga qo‘yish va **qo‘shma spektakllar** sahnalashtirish.<br>**5.** Har bir teatrda **eksperimental spektakllar** sahnalashtirishni yo‘lga qo‘yish.<br>**6.** Teatr sohasini ilmiy tadqiq etish uchun har yili **5 ta maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihasini** e’lon qilish va amalga oshirish.<br>**7.** Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriga “Akademik” maqomini berish.<br>**8.** **“O‘zbek davlat sirki”** davlat muassasasining faoliyatini rivojlantirish, u erda **hayvonlarni saqlash, sirk tomoshalarini ko‘rsatish** sharoitlarini yaxshilash.<br>**9.** Dunyoda tanilgan sirk jamoalari faoliyatini o‘rganish va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.<br>**10.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ko‘chma sirk (shapito) | 2023-yil noyabr | Madaniyat vazirligi<br>**O. Nazarbekov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | tomoshalarini namoyish etish uchun koʻchma sahna (arena)lar tashkil etish. | | |
| 31. | **Oʻzbekiston davlat akademik rus drama teatri** tashkil topganining 90 yilligini munosib nishonlash boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | **1. Oʻzbekiston davlat akademik rus drama teatri** tashkil topganining **90 yilligini keng nishonlash** chora-tadbirlarini ishlab chiqish.<br>**2.** “**Oʻzbekiston teatr san’ati: tarix, taraqqiyot va istiqbol**” mavzuida xalqaro **ilmiy-amaliy konferensiya** oʻtkazish.<br>**3.** Oʻzbekiston davlat akademik rus drama teatri faoliyatiga bagʻishlangan **ijodiy uchrashuvlar** tashkil etish.<br>**4.** Mamlakatimiz teatrlari vakillari va faxriylari, madaniyat va san’at namoyandalari, keng jamoatchilik ishtirokida teatrning 90 yilligiga bagʻishlangan **teatrlashtirilgan badiiy-musiqiy kecha oʻtkazish.** | 2023-yil noyabr | Madaniyat vazirligi<br>**O. Nazarbekov** |
| **41-maqsad: Oʻzbek milliy san’atini targʻib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish** | | | | |
| 32. | **Maqom, baxshichilik va milliy raqs** yoʻnalishlarini dunyo miqyosida keng targʻib qilish, xususan, 2024-yilda maqom, baxshichilik, raqs va teatr yoʻnalishlarida xalqaro festival va anjumanlar oʻtkazishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi. | **1.** 2024-yilda oʻtkaziladigan ommaviy-madaniy, konsert-tomosha va turizm tadbirlarining rejalarini tasdiqlash.<br>**2.** Maqom, baxshichilik, raqs va teatr yoʻnalishlarida har yili kamida **10 ta xalqaro festival va anjumanlar** oʻtkazish.<br>**3.** Tanlovlar, festivallar va anjumanlarning targʻibot roliklarini ishlab chiqish va nufuzli xalqaro platformalarda keng targʻib etish. | 2023-yil dekabr | Madaniyat vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>**B. Saidov**,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari |
| 33. | Oʻzbek milliy san’atini jahon sahnalarida keng targʻib qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatini | Oʻzbek milliy san’atini jahon sahnalarida keng targʻib qilish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va unda quyidagilarni nazarda tutish:<br>**mahalla — tuman (shahar) — viloyat — respublika** darajasida Mukarrama | 2023-yil noyabr | Madaniyat vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Toshkent shahri hokimligi<br>**Sh. Umurzakov,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | oshirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Turg‘unboyeva �omidagi raqs tanlovlarini o‘tkazish;<br><br>“**Surxoncha”, “Buxorocha”, “Farg‘ona-Toshkent yo‘li”** kabi raqsning boshqa yo‘nalishlarini dunyoga tanitish. | | Tashqi ishlar vazirligi<br><br>**B. Saidov**,<br><br>O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi<br><br>**Q. Rafikov** |
| 34. | **Milliy estrada** sohasini yanada rivojlantirish, estrada yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan **xonandalarni qo‘llab-quvvatlash**, **yosh iste’dodlarni izlab topish** va munosib rag‘batlantirishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Estrada yo‘nalishida **ko‘rik-tanlov**, **teletanlov**, **festival** va **teleshoularni** tashkil etish.<br><br>**2.** Estrada yo‘nalishida jonli ijroda ijod etgan estrada xonandalarining **konsert dasturlarini o‘tkazish bilan bog‘liq to‘lovlarni Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi tomonidan qoplash**.<br><br>**3.** Estrada yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan **iste’dodli yosh xonandalarimiz** uchun **Botir Zokirov nomidagi milliy estrada mukofotini** ta’sis etish. | 2023-yil dekabr | Madaniyat vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov** |
| **42-maqsad: Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish** | | | | |
| 35. | **“Buxoro shahrida Jadidlar muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi** Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** Muzey binosini mukammal ta’mirlash, muzeyni jihozlash, muzey ekspozitsiyasini yaratish hamda eskiz va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.<br><br>**2.** Muzey konsepsiyasi asosida ekspozitsiya yaratish uchun jadidlar harakatiga oid hujjatlar, kino, fono-, fotomateriallar va muzey ashyolari bilan jamlash.<br><br>**3.** Muzeyning shtatlar jadvalini belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash hamda malakali kadrlar bilan to‘ldirish. | 2023-yil noyabr | Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi<br><br>**G. Umerova,**<br><br>Madaniy meros agentligi<br><br>**B. Abdikarimov,**<br><br>Buxoro viloyati hokimligi<br><br>**B. Zaripov** |
| **43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish.** | | | | |
| 36. | O‘zbekiston **Badiiy ijodkorlar** | **1.** Har yili **“Yangi O‘zbekiston manzaralari”, “Tarixiy allomalar”,** | 2023-yil oktyabr | O‘zbekiston Badiiy akademiyasi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **uyushmasi a'zolarini qo'llab-quvvatlash,** tasviriy va amaliy san'at taraqqiyotida faol ishtirok etib kelayotgan yosh ijodkorlarni rag'batlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **"Zamon qahramonlari" turkumida** san'at asarlarini yaratish bo'yicha tanlov tashkil etish va eng yaxshi **50 ta asar uchun g'oliblarga grantlarni** ajratish.<br><br>**2.** Toshkent shahri va viloyati markazlarining "yashil hududlari"da **ijodkorlarning doimiy ko'rgazmalarini** tashkil qilishni nazarda tutish. | | **A. Nuridinov**,<br>Madaniyat vazirligi<br>**O. Nazarbekov,** |
| **44-maqsad: Milliy kinematografiyani rivojlantirish** | | | | |
| 37. | Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi 50 ta loyihadan iborat filmlar turkumini ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** O'zbekiston va jahon tarixi bo'yicha mahalliy va xorijiy mutaxassislar, ekspertlar, tarixchi olimlar, xorijiy prodyuser va ijodkorlardan iborat guruhni shakllantirish**.**<br><br>**2.** 50 ta kinoloyihaning umumiy konsepsiyasi, mavzulari, badiiy-g'oyaviy mazmuni va moliyalashtirish manbalarini belgilash.<br><br>**3.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish**.** | 2024-yil mart | Kinematografiya agentligi<br>*F. Abduxalikov*,<br>Fanlar akademiyasi<br>*B. Abduxalimov* |
| 38. | Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga **o'quv-uslubiy filmlar yordamida dars o'tish** tizimini joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. | **1.** O'quvchi va talabalar uchun **o'zlashtirish murakkab bo'lgan fanlar va ularning mavzulari ro'yxatini shakllantirib borish**, buning uchun professor-o'qituvchilar, ta'lim sohasi mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br><br>**2.** Har yili belgilangan ro'yxatga muvofiq **50 ta o'quv-uslubiy film ishlab chiqarish**, o'qituvchi va pedagoglar ishtirokida namoyishlarni tashkil qilish, xulosalar olish.<br><br>**3. O'quv-uslubiy filmlar portali va uning mobil ilovasini ishlab chiqish**, filmlarni yuklab borish, darslarda | 2023-yil noyabr | Madaniyat vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Kinematografiya agentligi<br>**F. Abduxalikov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | filmlardan foydalanish bo‘yicha qulay imkoniyatlar yaratish. | | |

*Izoh: mazkur ro‘yxatda keltirilmagan maqsadlar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2024 va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan dasturlarda nazarda tutiladi.*

*(1b-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi PF-216-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
2-ILOVA

## “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan

## AMALIY TADBIRLAR REJASI

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISh ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASh** | | | | | |
| **45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirib, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish.** | | | | | |
| 1. | **Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanish**ni energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlagan holda, iqtisodiyotning o‘rtacha yillik **6-7 foiz** darajasida o‘sish sur’atini saqlash. | **1.** 2023-yilda **yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlarini 5,3-5,5 foiz**dan kam bo‘lmagan darajada ta’minlash. Bunda:<br>**inflatsiyani 9,5 foiz**,<br>konsolidatsiyalashgan **budjet taqchilligining YIMga nisbatini 5 foizdan yuqori bo‘lmasligini** ta’minlash;<br>**asosiy kapitalga 29,6 mlrd dollarlik investitsiyalar**ni o‘zlashtirish;<br>**eksport** hajmi o‘sishini 20 foiz darajasida ta’minlash;<br>sanoat mahsulotlari o‘sishini **6,7 foiz**, bozor xizmatlari — **14 foiz**, qishloq xo‘jaligi — **3,5 foiz**, qurilish — **6 foiz** darajasida ta’minlash. | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov**,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov**,<br>Markaziy bank **M. Nurmuratov,**<br>Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov** |
| | | **2.** Ijtimoiy-iqtisodiy | 2023-yil dekabr | - | Iqtisodiyot va moliya vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ko'rsatkichlarning 2030-yilga qadar ko'p ssenariyli prognozini ishlab chiqish. Bunda:<br>yalpi ichki mahsulotni **160 mlrd.** dollarga yetkazish va aholi daromadlarining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;<br>uzoq muddatlarda resurs va infratuzilma bilan bog'liq cheklovlarni yumshatishga qaratilgan islohotlarning yo'nalishlarini belgilash;<br>iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan energiya manbalari bilan ta'minlash;<br>tashqi bozorlardagi o'zgarishlarni tashqi omillar sifatida prognozlar va iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash. | | | **I. Norqulov**,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov**,<br>Markaziy bank<br>**M. Nurmuratov**,<br>Energetika vazirligi<br>**J. Mirzamaxmudov** |
| 2. | **Tovarlar va xizmatlar bozori muvozanatini ta'minlash** orqali yillik inflatsiya darajasining 2024-yildan boshlab **8-9 foiz**dan oshmasligini ta'minlash. | **2024-yilda inflatsiyaning target ko'rsatkichiga erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi**ni ishlab chiqish. Bunda:<br>asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hosildorlikni oshirish;<br>xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bozori prognozlarini inobatga olish;<br>ichki bozorni asosiy turdagi oziq- | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri<br>**J. Qo'chqorov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**I. Norqulov**,<br>Qishloq xo'jaligi vazirligi<br>**A. Voitov**,<br>Markaziy bank<br>**M. Nurmuratov**,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov,**<br>mahalliy hokimliklar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning manzilli choralarini ko'rib borish. | | | |
| **46-maqsad: Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish** | | | | | |
| 3. | Davlat budjeti siyosatida **"natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish"** amaliyotiga o'tish. | Davlat moliyasini boshqarish tizimiga **"Dasturiy budjetlashtirish" tizimi**ni to'liq joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Bunda:<br>Davlat budjeti xarajatlarining Milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga bog'liqligini belgilash bo'yicha mezonlar ishlab chiqishga xorijiy ekspertlarni jalb qilish;<br>2025-yildan boshlab Davlat budjeti loyihasini budjet dasturlari kesimida qabul qilish va dasturiy tasnif (klassifikator) ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo'chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Xaydarov**, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 4. | **"Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish** orqali soliq bazasini kengaytirish. | **1.** Sohalar kesimida tahlil qilgan holda soliqlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish.<br>**2.** Qonun talablariga rioya etgan holda faoliyatini amalga oshirayotgan yoki yashirin faoliyatini qonuniylashtirgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo'chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Xaydarov,** Soliq qo'mitasi **Sh. Qudbiyev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **3.** Jamoatchilik n�zoratini kengaytirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish sohasida ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorlikni yanada oshirish. | | | |
| **47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish** | | | | | |
| 5. | Sanoat sohalarida ilg‘or **muhandislar maktablari**ning faoliyatini yo‘lga qo‘yish va **kasbga tayyorlash markazlari**ni tashkil etishda ko‘maklashish. | **1. Yirik korxonalarga o‘zlarining kasbga tayyorlash markazlarini** tashkil etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.<br>**2.** Tog‘-kon metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, to‘qimachilik kabi sohalarda ilg‘or **muhandislar maktablarini tashkil etish** choralarini ko‘rish. | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmanov** |
| 6. | Metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika, transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik yo‘nalishlarida **ilmiy ishlab chiqarish klasteri**ni tashkil etish. | Tegishli sohalarda **8 ta** klasterni tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmanov** |
| **48-maqsad: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish** | | | | | |
| 7. | Xorijiy investorlarni keng jalb etgan holda har bir tumandagi mavjud sanoat zonalari negizida yangi texnologik | Hududlarning mavjud salohiyatidan kelib chiqib, xorijiy investorlarni keng jalb etgan holda har bir tumandagi mavjud sanoat zonalari negizida tabiiy | 2023-yil oktyabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov**, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sanoat zonalarini tashkil etish. | xomashyo resurslar bazasi, geografik joylashuvi hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik joylashuvidan kelib chiqib, **sanoat zonalarini tashkil etish** bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chi�ish. | | | |
| 8. | Hududlarda mavjud **mineral xomashyo zaxirasidan samarali foydalanish** maqsadida respublika bo‘ylab **60 ming kvadrat** kilometr maydonda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish. | **1.** Kanada, Fransiya, Avstriya, Yaponiya, Xitoy, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari kompaniyalarining **2 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb qilish** bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | - | Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |
| | | **2.** Oltin, kumush, volfram, ko‘mir hamda noruda konlari bo‘yicha **500 ta ruxsatnomalarni auksionga chiqarish.** | 2023-2024-yillarda | - | |
| | | Shundan, 2023-yilda kamida 300 ta konni auksionga chiqarish. | 2023-yil dekabr | | |
| 9. | **To‘qimachilik**da ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. | **1. Sun’iy tola ishlab chiqarish** bo‘yicha loyihalarni shakllantirish. | 2023-yil sentyabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov**, Savdo-sanoat palatasi **D. Vaxabov**, “O‘zto‘qimachiliksanoati” uyushmasi **I. Xaydarov** |
| | | **2.** Sohaga oid dunyodagi **mashhur brendlar bilan hamkorlikda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish**ni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash. | | - | |
| | | **3.** 2023-yilda **ip kalavani qayta** | 2023-yil dekabr | - | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **ishlash** bo‘yicha 78 ta loyihalarni amalga oshirish. | | | |
| 10. | **Charm-poyabzal** sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo‘shilgan qiymatni 5 barobarga oshirish. | **2024 — 2026-yillarda charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish dasturi**ni ishlab chiqish.<br>2023-2024-yillarda jami qiymati **1,2 mlrd dollarlik 790 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish** natijasida **41,8 ming** yangi ish o‘rinlari yaratish. | 2023-yil dekabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** “O‘zcharmsanoat” uyushmasi **F. Boboyev** |
| **49-maqsad: Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish** | | | | | |
| 11. | **Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalari**ni amalga oshirish. | Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy qiymati **150 milliard dollar** bo‘lgan **500 dan ziyod strategik loyihalar**ning manzilli ro‘yxatini shakllantirish va tarmoq jadvallarini ishlab chiqish.<br>2023-yilda **8,7 milliard dollar**lik **23 ta** loyihani ishga tushirish. | 2023-yil dekabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |
| 12. | **Sanoat zonalarini infratuzilma bilan ta’minlash** va ishlab chiqarish loyihalarini ustuvor ravishda ushbu zonalarda joylashtirish. | 2024-yilgi Davlat budjeti doirasida sanoat zonalarini infratuzilma bilan ta’minlash loyihalarini manzilli ro‘yxatini shakllantirish va ularni moliyalashtirish bo‘yicha hisob-kitob qilish. | 2023-yil noyabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Boboyev** |
| 13. | **Hududlarning investitsion reytingi**ni yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan | Reytingni hisoblash metodologiyasi va mezonlarini ishlab chiqish hamda uning | 2023-yil noyabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish. | komponentlari to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qilib borish. | | | |
| **50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish** | | | | | |
| 14. | **Banklarning kuzatuv kengashlari tarkibida** xalqaro tajribaga ega mustaqil a’zolarning ulushini oshirish. | Davlat ulushi ishtirokidagi tijorat banklarining kuzatuv kengashlari tarkibini bank sohasida xalqaro tajribaga ega bo‘lgan mustaqil a’zolar bilan butlash ishlarini jadal davom ettirgan holda, **bank kengashlaridagi mustaqil a’zolar ulushini 2025-yilning yakuniga qadar kamida 50 foizga yetkazish** va kengash raislarini mustaqil a’zolar orasidan saylash bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash. | 2023-yil noyabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev**, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **A. Ortiqov,** Markaziy bank **M. Nurmuratov** |
| **51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish** | | | | | |
| 15. | Sanoatda **“yashil energiya” sertifikatlar bozori**ni rivojlantirish. | Texnologik jarayonlarning ekologik me’yorlarga va talablarga muvofiqligini baholashga asoslangan hamda mahsulotlar va xizmatlarni **ekologik markirovkalash tizimini yo‘lga qo‘yish.** | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov**, Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| 16. | Ko‘p qavatli uy-joylardagi **xonadonlarni energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash** tizimini joriy etish. | Ko‘p qavatli uy-joylardagi **xonadonlarni energiya samaradorligini oshirish** choralarini ko‘rish. Bunda:<br>yangi qurilishlarga alohida mezonlarni joriy etish; | 2023-yil dekabr | - | Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov**, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mavjud ko‘p qavatli uylarda energiya tejamkorlikni rag‘batlantirish;<br>bino inshootlarni energiya sig‘imi bo‘yicha normativlarni ishlab chiqish. | | | |
| 17. | Jamoat transportini **ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish.** | 2030-yilgacha jamoat transportini **ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish** dasturini ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Transport vazirligi **I. Mahkamov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| 18. | Iqlim o‘zgarishi sohasida barcha **issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimi**ni (MRV) yaratish. | **1.** O‘zbekistonning MRV tizimini BMTning iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi asosiy konvensiyasidagi standartlar va ilg‘or tajribaga mos holatga keltirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>**2.** Issiqxona gazlari ajratmalarini inventarizatsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.<br>**3.** Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to‘g‘risidagi hisobotlarini o‘z ichiga oluvchi milliy axborotnomalar chop etish. | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi **Sh. Xabibullayev** |
| **52-maqsad. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash** | | | | | |
| 19. | Barcha turdagi **energiya resurslari hisobini yuritish**ni | **Energiya resurslari hisobini yuritishni to‘liq raqamlashtirish** | 2023-yil oktyabr | - | Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov,** Raqamli texnologiyalar vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | to‘liq raqamlashtirish. | bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | | | **Sh. Shermatov** |
| 20. | Sanoat tarmoqlari korxonalarida **energiya samaradorligini oshirish.** | **Sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini** bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| 21. | Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda **yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.** | 2024-yilga mo‘ljallangan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy so�alarda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlari va ularga erishish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | - | Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| **53-maqsad: O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | | |
| 22. | Mamlakatning tashqi savdo yuklarini eng qisqa yo‘llar bilan asosiy **jahon va mintaqaviy bozorlarga chiqishi uchun samarali va ishonchli muqobil transport va tranzit yo‘laklari**ni shakllantirish. | **1.** Qashqardan — Andijongacha va Peshovardan — G‘alabagacha bo‘lgan **xalqaro avtomobil va temir yo‘llarida tashishni yo‘lga qo‘yish** bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>Bunda **Qoshg‘ar — Irkishtom — O‘sh — Andijon** yo‘nalishida yuk tashuvlar hajmini **4 barobarga** oshirish choralarini belgilash. | 2023-yil oktyabr | - | Transport vazirligi **I. Mahkamov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |
| | | **2.** Afg‘oniston orqali Pokiston bilan, shuningdek Qirg‘iziston orqali Xitoy bilan **temir yo‘l orqali bog‘laydigan** | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **loyihalar**ni yakuniga yetkazish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish:<br>a) “O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston” temir yo‘l loyihasini amalga oshirish bo‘yicha: | | | |
| | | loyiha taqdimotini ishlab chiqish xamda Pokiston va Afg‘onis�on tomonlari bilan kelishish; | 2023-yil sentyabr | | |
| | | xalqaro tender asosida malakali maslahatchini yollash uchun texnik topshiriq ishlab chiqish; | 2023-yil sentyabr | | |
| | | texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish ishlarini moliyalashtirish va boshqarish modelini aniqlash; | 2023-yil dekabr | | |
| | | Pokiston va Afg‘oniston tomonlari bilan taqdimot materiallarini kelishgan holda xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar o‘tkazish; | Doimiy | | |
| | | b) “O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy” temir yo‘l loyihasini amalga oshirish bo‘yicha: | | | |
| | | loyihani moliyalashtirish va boshqarish modelini aniqlash; | 2023-yil dekabr | | |
| | | loyihani moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlari | Doimiy | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | bilan muzokaralar o‘tkazish. | | | |
| | | **3.** Yuklarning jahon va mintaqaviy bozorlarga chiqishi uchun **muqobil transport va tranzit yo‘laklari**ni rivojlantirish bo‘yicha takliflarni kiritish.<br>Bunda, O‘zbekistonning eksport va import yuk tashuvlari yo‘nalishlarini rivojlantirish, xarajatlarni maqbullashtirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish inobatga olinadi. | 2023-yil oktyabr | | |
| | | **4.** Yaqin qo‘shni mamlakatlarda O‘zbekiston Respublikasining **yuklarini samarali tashish va ishlov berish uchun shart-sharoitlarni yaratish** bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rish.<br>Bunda, chegara o‘tkazish punktlari infratuzilmasini yaxshilash hamda chegaradan o‘tish tartibotlarini soddalashtirish va qulay sharoitlar yaratish hisobiga yuklarni qo‘shni mamlakatlarga yetkazib berish hajmini keskin oshirish va muddatlarni 2 barobarga qisqartirish. | 2023-yil dekabr | | |
| 23. | Toshkent — Samarqand va | **Toshkent — Samarqand** va | 2023-yil dekabr | - | Transport vazirligi<br>**I. Mahkamov**, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Toshkent — Farg‘ona vodiysi yo‘nalishlarida **davlat-xususiy sheriklik asosida yangi avtomobil yo‘llari**ni qurish. | **Toshkent — Andijon pullik avtomobil yo‘llari**ni davlat-xususiy sheriklik asosida qurish bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish. | | | Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi **J. Tursunov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| 24. | Shahar va tumanlarni **jamoat transporti bilan to‘liq qamrab olish**. | **1.** Shahar va tumanlar 2030-yilga qadar **jamoat transporti uchun avtobuslar sonini 5 mingtaga** va **elektrobuslar sonini 2 mingtaga yetkazish** bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>**2.** Avtobus qatnovi yo‘nalishi bo‘yicha to‘xtash bekatlari shart-sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflarni kiritish. | 2023-yil noyabr | - | Transport vazirligi **I. Mahkamov**, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi **J. Tursunov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev,** mahalliy hokimliklar |
| 25. | Tezyurar poyezdlarda yo‘lovchi tashish sonini **2,5 barobar** ko‘paytirish. | Toshkent — Samarqand yo‘nalishida ya**ngi tezyurar temir yo‘lni qurish bo‘yicha** TIAni ishlab chiquvchi loyihachini aniqlash bo‘yicha tender hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish. | 2023-yil dekabr | - | Transport vazirligi **I. Mahkamov**, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi **J. Tursunov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| | | **“Toshkent — Samarqand”**, **“Samarqand — Navoiy — Buxoro”** yo‘nalishlarida qo‘shimcha **6 ta tezyurar poyezd**lar qatnovini yo‘lga qo‘yish hamda **600 kilometr** qo‘shimcha temir yo‘llarini qurish bo‘yicha dastlabki loyiha smeta | Reja-grafik asosida | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | hujjatlarini tayyorlash choralarini ko‘rish. | | | |
| 26. | Aeroport xizmatlari tariflarini shakllantirishga **bozor tamoyillari**ni joriy etish hamda samaradorligi past bo‘lgan **hududiy aeroportlarni modernizatsiya qilish** va ishonchli boshqaruvga berish. | Respublikada faoliyat yurituvchi xalqaro va hududiy aeroportlarning daromadliligi hamda istiqbolliligidan kelib chiqib, ularni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga berish bo‘yicha takliflarni kiritish. | 2023-yil oktyabr | - | Transport vazirligi **I. Mahkamov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| 27. | Davlat-xususiy sheriklik asosida **aviareyslarni ko‘paytirish.** | **1.** Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan **xususiy aviakompaniyalar sonini 10 taga yetkazish** bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash.<br>**2.** Farg‘ona vodiysidan Toshkent, Nukus, Buxoro va Urganch shaharlariga **kunlik aviareyslarni ko‘paytirish.** | 2023-yil oktyabr | - | Transport vazirligi **I. Mahkamov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Xaydarov** |
| **54-maqsad: Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish** | | | | | |
| 28. | **Hosildorlik** ko‘rsatkichlarini paxta bo‘yicha o‘rtacha 45-50 sentnerga, g‘alla bo‘yicha — 80-85 sentnerga yetkazish. | Paxta va g‘alla **hosildorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish. Bunda:<br>paxtada **8 ta** va g‘allada **12 ta** yangi tezpishar, **serhosil navlarni tanlash va joylashtirish;**<br>davlat reyestriga kiritilgan yangi yuqori hosilli navlar **birlamchi urug‘chilik tizimini** yo‘lga qo‘yish;<br>tanlab olingan navlar maydonini har | 2023-yil noyabr | - | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov**, Paxtachilik kengashi **I. Abduraxmonov**, mahalliy hokimliklar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yili **10-15 foizdan** kengaytirib borish;<br>zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni paxta va g‘alla maydonlarining **40-50 foizida** joriy etishni nazarda tutish.<br>Shu jumladan, **2023-yilda:**<br>biologik eskirgan navlar o‘rniga yangi yuqori hosilli, ob-havoning noqulay sharoitlariga chidamli g‘o‘za navlari maydonini **150** ming gektarga va kuzgi bug‘doy maydonini **585ming** gektarga kengaytirish;<br>2024-yil hosili uchun **184** ming gektar g‘allani zamonaviy resurs tejovchi seyalkalarda ekish;<br>paxta yig‘im-terimida mashina terimi salmog‘ini **23** foizga yetkazish;<br>2024-yil hosili uchun ingichka tolali g‘o‘za navlaridan **5** ming tonna urug‘lik paxta jamg‘arishni ta’minlash. | | | |
| 29. | **Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug‘lik ta’minotini 50 foizga yetkazish.** | **Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug‘ligini rivojlantirish** bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Bunda:<br>ilmiy muassasalarda olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish; | 2023-yil oktyabr | - | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov,**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmonov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini tijoratlashtirish;<br>ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishni jadallashtirish;<br>xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishni nazarda tutish. | | | |
| 30. | Agrologistika markazlari faoliyatini kengaytirish. | **2,5 million** tonna quvvatga ega bo‘lgan **100 ta yangi agrologistika markazlari** faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularning eksport salohiyatini **1 milliard** dollarga yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br>Shu jumladan, 2023-yilda quvvati 65 ming tonna bo‘lgan 10 ta agrologistika markazlarini tashkil etish. | 2023-yil noyabr | - | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** tijorat banklari, mahalliy hokimliklar |
| 31. | Suvsizlik va qurg‘oqchilikka chidamli, har bir hududning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni oshirish. | Hududlarning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish hamda hosildorlikni **30-35 foizga oshirish** choralarini ko‘rib borish.<br>Bunda:<br>iqlim o‘zgarishlariga moslashish tadbirlariga **250 million dollar** grant mablag‘larini jalb etish;<br>xorijiy ilmiy tadqiqot institutlari bilan birga meva va | 2023-yil noyabr | 250 million dollar grant mablag‘la�i | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmonov,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | uzumning yangi navlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish;<br>yangi turdagi navlarni amaliyotga joriy etish. | | | |
| 32. | **Yer munosabatlarini isloh qilish** doirasida yer ijara huquqini bozor aktiviga aylantirish hamda yer maydonlari ijara huquqini garovga qo‘yish mexanizmini joriy qilish. | Yer ijara huquqi qiymatini baholash va uni garovga qo‘yish tartibini takomillashtirish, shu jumladan yerdan foydalanuvchilar bilan yer ijara shartnomasi bekor qilinganida tuproq unumdorligini oshirish uchun qilingan xarajatlarni qoplab berish amaliyotini joriy etish bo‘yicha takliflarni kiritish.<br>Bunda:<br>er ijara huquqi qiymatini aniqlash va tuproq unumdorligini oshirish uchun qilingan xarajatlarni qoplab berish bo‘yicha xalqaro amaliyotni o‘rganish;<br>qishloq xo‘jaligi yerlariga nisbatan ijara huquqini bozor aktiviga aylantirish, shu jumladan boshqa shaxsga o‘tkazish va garovga qo‘yish bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish. | 2023-yil noyabr | - | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov**,<br>Markaziy bank **M. Nurmuratov** |
| 33. | **Ko‘chatchilik xo‘jaliklari** reyestrini yuritish va ko‘chatlarni | Ko‘chatchilik xo‘jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirish va kafolatlangan ko‘chat | 2023-yil noyabr | - | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov,**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmonov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sertifikatlash tizimini joriy qilish. | yetkazib berish tartibini joriy qilish.<br>2023-yil kuz oylarida in-vitro laboratoriyalarida tayyorlangan, virussiz 5 mln dona meva va uzum ko‘chatlarini yetkazib berish. | | | |
| 34. | Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorvani **sug‘urta qilish** tizimini isloh qilish. | 2024-yildan boshlab dehqon va fermerlarga **hosilni sug‘urtalashga yo‘naltirilgan** sug‘urta **mukofotlarining** 50 foizini Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish (subsidiyalash) amaliyotini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha taklif kiritish. | 2023-yil noyabr | - | Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **J. Karshibayev** |
| **55-maqsad: Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish** | | | | | |
| 35. | Eksport tarkibida **tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini oshirish.** | **Quyidagilarni nazarda tutuvchi** chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish:<br>**GSP+** va boshqa tizimlardan foydalangan holda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksportini **3,3 barobarga** ko‘paytirish;<br>**xalqaro standartlar** joriy qilingan korxonalar sonini **10 barobarga** oshirish va ular sonini **5 mingtaga** yetkazish;<br>xorijiy **brend mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan “autsorsing” va “franchayzing”** asosida hududlarda ishlab chiqarishni | 2023-yil oktyabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish. | | | |
| 36. | **“Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti”** g‘oyasi asosida eksportchi korxonalarni keng qo‘llab-quvvatlash. | **Eksportchi korxonalarni moliyaviy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash** choralarini davom ettirish, shu jumladan ushbu maqsadlarga 2030-yilgacha **2 milliard dollar** mablag‘larni yo‘naltirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br>**2023-yilda 310** million dollar mablag‘larni o‘zlashtirish hisobiga **350 ta** eksportchi korxonaga aylanma mablag‘lar uchun kredit ajratish, **500 ta** korxonaning transport xarajatlarini va **300 ta** tadbirkorga xalqaro tan olingan sertifikat va standartlarni joriy etish xarajatlarini qoplab berish. | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov** |
| 37. | **50 ta** nufuzli xorijiy brendlar bilan **maxsus eksport zonalari**ni tashkil qilish. | Engil sanoat, charm-poyabzal, oziq-ovqat, elektrotexnika, qurilish, farmatsevtika sanoati kabi drayver sohalarda **maxsus eksport zonalari**ni tashkil qilish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish:<br>xorijiy brend egalarini O‘zbekistonga taklif etish va ularga yaratilgan qulay sharoitlar yuzasidan taqdimot o‘tkazish; | 2023-yil oktyabr | - | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | maxsus eksport zonalarida faoliyat yuritish istagini bildirgan xorijiy brendlar ro‘yxatini shakllantirish hamda ularning ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflarini o‘rganish;<br>**maxsus eksport zonalari**ni tashkil etish yuzasidan asoslangan takliflarni kiritish. | | | |
| **56-maqsad: Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish** | | | | | |
| 38. | Ayrim sohalarda **xususiy sektorni keng jalb qilish orqali** davlat monopoliyasini bekor qilish va davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog‘liq sohalarni saqlab qolish. | **Quyidagi 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish** bo‘yicha amaliy chora-tadbir va “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish:<br>neft bazalari va avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari;<br>kimyo mahsulotlari korxonalari;<br>qurilish materiallari korxonalari;<br>aeroport infratuzilmasini boshqarish;<br>iste’molchilarga elektr yetkazib berish *(kichik quvvatli tarmoqlar);*<br>iste’molchilarga tabiiy gaz *(kichik bosimli tarmoqlar)* va suyultirilgan gaz yetkazib berish;<br>iste’molchilarga ichimlik suv ta’minoti va oqova tizimlarini boshqarish;<br>ijtimoiy obyektlarga issiqlik | 2023-yil oktyabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,**<br>Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi **Sh. Sharaxmetov**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev,**<br>Transport vazirligi **I. Mahkamov**,<br>Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov,**<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov,**<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,**<br>Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ta'minoti xizmatini ko'rsatish;<br>avtomobil yo'llarini qurish va boshqarish;<br>temir yo'l vokzallarini boshqarish va xususiy vagonlar bilan ta'minlash;<br>avtomobil savdo shoxobchalari;<br>kichik irrigatsiya tizimlarini boshqarish;<br>chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash;<br>turizm sohasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularni boshqarish;<br>arxitektura rejalarini ishlab chiqish;<br>loyihalashtirish ishlari va injiniring xizmatlari. | | | |
| 39. | Mahalliy tadbirkorlik subyektlariga strategik **foydali qazilma konlarini berish amaliyotini kengaytirish.** | **Mahalliy tadbirkorlik subyektlariga strategik foydali qazilma konlaridan foydalanish** (oltin, kumush, volfram, ko'mir hamda noruda konlar) bo'yicha ruxsatnomalar sonini 4 barobar oshirish bo'yicha aniq rejalarni ishlab chiqish. | 2023-yil sentyabr | - | Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>**B. Islamov** |
| 40. | Soliq tizimining barqarorligini ta'minlash. | **Soliq tizimini to'liq raqamlashtirish,** soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | - | Soliq qo'mitasi<br>**Sh. Qudbiyev,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**A. Xaydarov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 41. | Tadbirkorlik subyektlariga barcha xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida onlayn portal orqali koʻrsatish choralarini koʻrish. | Tadbirkorlik subyektlariga barcha xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida koʻrsatishga qaratilgan onlayn portalni joriy etish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | - | Bosh vazir oʻrinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qoʻchqorov,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** Savdo-sanoat palatasi **D. Vaxobov**, Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| **57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish** | | | | | |
| 42. | Mamlakatni jahon maydonida **“Mintaqaviy IT-NUB”** sifatida keng targʻib qilish, IT-sohasidagi xorijiy va mahalliy kompaniyalar hamda mutaxassislar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni keng ommalashtirish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi “yoʻl xarita”sini ishlab chiqish:<br>har yillik asosda xalqaro sammit, forum, koʻrgazma, seminar va tanlovlarni tashkil qilishni yoʻlga qoʻyish (jumladan, “Digital Leadership Forum in Uzbekistan”, “BPO Leaders Forum in Uzbekistan”, “ICTWEEK Uzbekistan”, “President Tech Award” tanlovi);<br>**Yevropa Ittifoqi, Yaqin Sharq va Amerika mintaqalarida** IT-parkning rasmiy vakolatxonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini doimiy ravishda moliyalashtirish;<br>xorijiy IT-kompaniyalarning chet eldagi ofislariga Vazirlik markaziy apparati hamda tizim tashkilotlarining rahbarlari va mas’ul xodimlarining | 2023-yil oktyabr | Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamgʻarmasi | Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tashriflarini tashkil etish;<br>xorijiy IT-kompaniyalar va IT-autsorsing xizmatlarini koʻrsatish yuzasidan mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar haqida xorijiy ommaviy axborot vositalarida maqolalar, videolavhalar joylashtirgan holda targʻibot ishlarini olib borishni tashkil etish;<br>xorijiy mamlakatlarning hududida forumlar, davra suhbatlari va boshqa targʻibot ishlarini amalga oshirish. | | | |
| 43. | IT-park rezidentlari eksport hajmini oshirish maqsadida “Local 2 Global” va “Zero Risk” dasturlarini ishga tushirish. | **1.** IT-park rezidentlari sonini **7 500 ta**ga (10 barobar oshirish), ular tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmining YIMdagi ulushini **2,2 foiz**ga yetkazish va ularda yaratilgan ish oʻrinlari sonini **100 mingta**ga yetkazish boʻyicha dasturni ishlab chiqish.<br>**2.** Mahalliy rezidentlarni jahon bozoriga olib chiqish maqsadida **“Local 2 Global”** dasturini ishlab chiqish. Bunda:<br>xalqaro BPO va IT-autsorsing kompaniyalarni mamlakatga jalb etish boʻyicha **“Zero Risk”** dasturini ishga tushirish; | 2023-yil noyabr | Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamgʻarmasi, “IT-Park” mablagʻlari | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | xalqaro IT kompaniyalarning mamlakatda mintaqaviy vakolatxonalarini tashkil etish IT-park rezidentlari faoliyat turlarini kengaytirish orqali MDH davlatlariga xizmat ko‘rsatish;<br>xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari (ofislari) sonini **1000 ta**ga yetkazish. | | | |
| | | **3.** Quyidagilarni ko‘zda tutuvchi “Local 2 Global” dasturini amalga oshirish:<br>a) IT-park rezidentlari uchun eksport mentoring dasturini amalga oshirish;<br>b) IT-park rezidentlari tomonidan jahon bozoriga chiqishda zarur bo‘ladigan eksport maslahat xizmatlari xarajatlarining 50 foizini qoplash;<br>v) eksport xizmatlarini amalga oshirmoqchi bo‘lgan IT-park rezidentlari xodimlari malakasini oshirish maqsadida bepul “Coursera” o‘quv kurslarini taqdim etish;<br>g) eksport xizmatlarini amalga oshirmoqchi bo‘lgan IT-park rezidentlarining chet elga xizmat safarlari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini qoplash. | 2023-yil dekabrdan boshlab | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **4.** “Zero Risk” dasturini amalga oshirish va uning doirasida:<br>a) respublika bo‘ylab (Toshkent shahri bundan mustasno) IT-park filiallari va hududlarda joylashgan binolardagi ofislarni 1 yilga bepul ijaraga berish;<br>b) xalqaro BPO va IT-autsorsing kompaniyalari ish faoliyatini boshlash uchun bepul texnika va inventar jihozlari bilan ta’minlash;<br>v) xalqaro BPO va IT-autsorsing kompaniyalarining xodimlari ish haqining 15 foizigacha xarajatlarini qoplash;<br>g) xodimlar malakasini oshirish maqsadida xorijiy mutaxassislarni jalb qilganda 50 foizgacha xarajatlarini qoplash;<br>d) ishchi xodimlarni yollash uchun NR xizmatlaridan foydalanganda sarflanadigan xarajatlarni qoplash. | | | |
| | | **5.** Startap loyihalarni **IT-Parkning akseleratsiya (rivojlantirish) dasturini** ishlab chiqish va bunda milliy bozor kapitallashuvini **1 milliard dollar**ga | 2023-yil noyabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | teng birinchi **Unicorn** startap loyihasini yetishtirib chiqarish vazifalarini nazarda tutish. | | | |
| 44. | Eng iqtidorli **yoshlarni xalqaro nufuzli kompaniyalar talablariga mos dasturlar** asosida tayyorlash. | **“Bir million dasturchi” loyihasi** orqali 15 ming nafar yoshlarni **Coursera** platformasining professional kurslarida o‘qitishni tashkil etish. | 2023-yildan boshlab | Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi, “IT-Park” mablag‘lari | Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| 45. | Xalqaro ahamiyatga ega **avtomagistral yo‘llarni to‘liq mobil Internet bilan ta’minlash.** | Xizmat ko‘rsatuvchi mobil aloqa operatorlari tomonidan xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo‘llari bo‘ylab yuqori tezlikdagi mobil Internet qamrovi darajasini oshirish maqsadida 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan mobil aloqa tayanch stansiyalarini o‘rnatish rejasini tasdiqlash. | 2023-yil oktyabr | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| **58-maqsad: O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish** | | | | | |
| 46. | Turizm sohasi va infratuzilmasini jadal rivojlantirish. | “Mehmonxona — transport — tur-operator — savdo va servis” korxonalari kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan **30 ta yirik turizm klasterlari** manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish. | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| | | Hududlarda 4 mingta yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etib, **mehmon o‘rinlari sonini kamida 2 barobar oshirish bo‘yicha** aniq rejalarni belgilash**.** | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **Turizm markazlari sonini oshirish, shu jumladan kamida 40 ta qishloq va mahallani “turizm mahallalari” qatoriga qo‘shish** bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash. | | | |
| | | **Turizm turlar�ni diversifikatsiya qilish**, shu jumladan hududlarda MICE-turizm, qishloq turizmi, veloturizm, agroturizm, tog‘ turizmi, bolalar va o‘smirlar turizmini rivojlantirish bo‘yicha dasturni ishlab chiqish. | | | |
| 47. | Hududlarda “Inklyuziv-to‘siqsiz turizm” rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish. | **“Inklyuziv-to‘siqsiz turizm”**ni tashkil qilish, har bir viloyatdan yiliga 1 ming nafardan nogironligi bo‘lgan shaxslarning Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga bepul sayohatlarini tashkil qilish dasturini ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Transport vazirligi **I. Maxkamov,** Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari hokimliklari |
| 48. | Mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimini oshirish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish: xorijiy davlatlarda tashkil etiladigan xalqaro turizm ko‘rgazma va yarmarkalarida **O‘zbekistonning turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish**, xalqaro yetakchi nashrlar, telekanallar, mashhur blogerlar uchun mamlakat | 2023-yil noyabr | - | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘ylab press-turlarni tashkil etib borish;<br>mahalliy turoperator, transport tashkilotlari bilan hamkorlikda chet elda **“Road show” va “B2B” uchrashuvlar**ni o‘tkazish. | | | |
| **59-maqsad: Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish** | | | | | |
| 49. | **O‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlar**da zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish. | Xizmat ko‘rsatish sohasida 2023-yil yakuniga qadar **10 mingta savdo servis obyektlarini tashkil etish** choralarini ko‘rish.<br>Bunda:<br>amalga oshiriladigan loyihalarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish;<br>zarur yer va bino-inshootlarni auksion savdolarga chiqarib borish;<br>tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘lari ajratilishiga ko‘maklashish;<br>hokim yordamchilari tomonidan mavjud moliyaviy resurslar doirasida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali o‘zini o‘zi band qilish. | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A.A. Xaydarov**, mahalliy hokimliklar |
| 50. | Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish va 2030-yilgacha aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarning **233 mingta bo‘sh yer** | Yangi xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun **2023-yil yakuniga qadar 2 mingta yer (lot) maydonlarni auksion savdolarga chiqarish**. Bunda: | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **A. Ortiqov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov**, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **maydonlarini auksion savdolariga chiqarish**. | infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan hududlarda bo‘sh yer maydonlarini aniqlash;<br>aniqlangan yer maydonlarini belgilangan tartibda auksionga chiqarish;<br>auksionga chiqarilgan yer maydonlari to‘g‘risida hokim yordamchilari tomonidan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini jadallashtirish orqali sotish. | | | Kadastr agentligi<br>**F.Po‘latov,**<br>mahalliy hokimliklar |
| 51. | O‘rta va yirik shahar markazlarida **xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalar**ni tashkil etish va 2030-yilgacha **36 mingta savdo va servis obyektlari** faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | O‘rta va yirik shahar va tuman markazlarida tanlab olingan **150 ta markaziy ko‘chalarni maxsus xizmat ko‘rsatish ko‘chasiga aylantirish** orqali **850 ta savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil qilish**.<br>Bunda:<br>infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan hududlarda bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish;<br>shakllantirilgan loyihalarga kredit mablag‘lari ajratilishiga ko‘maklashish;<br>ko‘ngilochar ko‘chalarda aholining ma’naviy va madaniy hordiq olishlari uchun har xil ko‘ngilochar | 2023-yil dekabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri<br>**J. Qo‘chqorov,**<br>Transport vazirligi<br>**I. Mahkamov**,<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br>**B. Zakirov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**A.A. Xaydarov**,<br>mahalliy hokimliklar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tadbirlarni tashkillashtirish. | | | |
| 52. | “Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida **savdo va servis obyektlari**ni tashkil etish. | “Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida 579 ta savdo va servis obyektlarini tashkil etish bo‘yicha dasturni ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A.A. Xaydarov**, Transport vazirligi **I. Mahkamov**, mahalliy hokimliklar |
| 53. | Zamonaviy, qulay, barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan **savdo komplekslari**ni tashkil etish. | Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay, barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A.A. Xaydarov**, mahalliy hokimliklar |
| **60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish** | | | | | |
| 54. | Ichimlik va oqova suvi **infratuzilmasini qurishda xususiy sektorni jalb etish.** | Ichimlik va oqova suvi infratuzilmasini qurishda xususiy sektorni jalb etish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Boboyev,** mahalliy hokimliklar |
| **61-maqsad: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uz�q muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash** | | | | | |
| 55. | 2030-yilga qadar **barcha aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash.** | Jami 545 mingdan ziyod ichimlik suvi tarmoqlari, 3 mingga yaqin suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha dasturni ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | - | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Boboyev,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ–300-son qaroriga
2a-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan**

MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | 2030-yilgacha maqsadli ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2023-yil | 2024-yil |
|---|---|---|---|---|
| **45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish** | | | | |
| 1. | Yalpi ichki mahsulot hajmini **160 milliard dollarga** yetkazish. | milliard dollar | **88** | **95** |
| 2. | Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YIM ko‘rsatkichini **4 ming dollarga** yetkazish. | ming dollar | **2,4** | **2,6** |
| 3. | Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha **7-10 foiz** atrofida o‘sishini ta’minlash. | foiz | **5,9** | **6,1** |
| **46-maqsad: Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish** | | | | |
| 4. | Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi ko‘rsatkichini YIMga nisbatan **2-5 foizdan** oshirmaslik. | foiz | **5** | **4** |
| **47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish.** | | | | |
| 5. | Sanoatda texnologik mahsulotlar ulushini **25 foizdan 32 foizga** yetkazish. | foiz | **25** | **26,2** |
| 6. | Avtomobilsozlik sohasida ishlab chiqarish hajmini **1 million donaga** yetkazish. | ming dona | **425** | **460** |
| 7. | Yiliga **300 mingta** elektromobil ishlab chiqarish. | ming dona | **-** | **20** |
| 8. | Elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini **300 ming tonnaga** oshirish. | ming tonna | **90** | **100** |
| 9. | Yangi turdagi mahsulotlar o‘zlashtirish va mahalliylashtirish darajasini o‘rtacha **65 foizga** yetkazish. | foiz | **52,5** | **55,1** |
| **48-maqsad: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish** | | | | |
| 10. | Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini **45 milliard dollarga** yetkazish. | milliard dollar | 22,7 | 25,4 |
| 11. | Xom ashyoni chuqur qayta ishlash tarmoqlari hajmini **2,5 barobar** oshirish. | foiz | **110,5** | **108,5** |
| 12. | Sanoat tarmoqlarida **2,5 millionta** yuqori daromadli ish o‘rni yaratish. | mingta | **189,3** | **198,8** |
| 13. | Hududlarda mavjud mineral xomashyo zaxirasidan samarali foydalanish maqsadida respublika bo‘ylab **60 ming kvadrat kilometr** maydonda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish. | ming kvadrat metr | **29,9** | **30,1** |
| 14. | To‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini **100 foizga** yetkazish. | foiz | **50** | **60** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 15. | Farmatsevtika sohasida dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojning **70 foizini** ichki ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash. | foiz | **40** | **45** |
| **49-maqsad: Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish** | | | | |
| 16. | **250 milliard dollar** investitsiyalarni jalb qilish. | milliard dollar | **29,6** | **31,6** |
| 17. | **110 milliard dollar** xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. | milliard dollar | **13,2** | **14,7** |
| 18. | **30 milliard dollar** davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish. | milliard dollar | **2,1** | **2,5** |
| 19. | Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini **8 milliard** dollarga yetkazish. | Million dollar | **352** | **475** |
| 20. | Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy qiymati 150 milliard dollar bo‘lgan **500 dan** ziyod “Mega” va strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish. | ta | **1** | **37** |
| 21. | Pay va venchur jamg‘armalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali portfel investitsiyalar hajmini har yili **3-5 foizga** oshirish. | foiz | | **3,8** |
| **50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish.** | | | | |
| 22. | Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini **30 milliard dollarga** yetkazish. | milliard dollar | **21** | **23** |
| 23. | Bank omonatlari hajmini **4 barobarga** oshirish. | foiz | **30** | **25** |
| **51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish** | | | | |
| 24. | 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalarini **25 ming mega-vattga** yetkazish. | ming mega-vatt | **4,4** | **8,8** |
| 25. | Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste’moldagi ulushini **40 foizga** yetkazish. | foiz | **8** | **15** |
| **52-maqsad. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash** | | | | |
| 26. | Elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini **120 milliard kVtga** yetkazish. | milliard kVt soat | 79,5 | 89,6 |
| **53-maqsad: O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | |
| 27. | Respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini **16 million tonnaga** yetkazish. | million tonna | **12,8** | **13,7** |
| 28. | Yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini **3 barobar** oshirish. | foiz | **111** | **112** |
| 29. | Elektrlashgan temir yo‘llari ulushini **65 foizga** yetkazish. | foiz | **45** | **48** |
| 30. | Aviaqatnovlar sonini **4 barobarga** oshirish. | barobar | **1,1** | **1.4** |
| **54-maqsad: Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 31. | Bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni **3 ming dollardan 5 ming dollarga** yetkazish. | ming dollar | **4,1** | **4,3** |
| 32. | Qishloq xo‘jaligida eksport hajmini yiliga **10 milliard dollarga** yetkazish. | milliard dollar | **1,9** | **2,5** |
| 33. | Hosildorlik ko‘rsatkichlarini paxta bo‘yicha o‘rtacha **45 — 50 sentnerga** yetkazish. | sentner/gektar | **34,6** | **35,5** |
| 34. | Hosildorlik ko‘rsatkichlarini g‘alla bo‘yicha o‘rtacha **80 — 85 sentnerga** yetkazish. | sentner/gektar | **68** | **69** |
| 35. | Paxtada **8 ta** tezpishar serhosil navlarni tanlash va joylashtirish. | ta | **2** | **3** |
| 36. | G‘allada **12 ta** yangi tezpishar serhosil navlarni tanlash va joylashtirish. | ta | **5** | **6** |
| 37. | Zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni paxta va g‘alla maydonlarining **40 — 50 foizida** joriy etish. | foiz | **30** | **33** |
| 38. | Qo‘shimcha **300 ming gektar** yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash orqali foydalanishga kiritish. | ming gektar | **100** | **91** |
| 39. | Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug‘lik ta’minotini **50 foizga** yetkazish. | foiz | **9** | **13** |
| 40. | Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichining **25 foizdan yuqori** bo‘lishini ta’minlash. | foiz | **16** | **18** |
| 41. | 2,5 million tonna quvvatga ega bo‘lgan **100 ta** yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | ta | **10** | **11** |
| 42. | Pillachilik sohasida klaster tizimi asosida **105 ming gektar** yangi tutzorlarni barpo qilish. | ming gektar | **4,1** | **23,0** |
| 43. | Pillachilik sohasidagi klaster tizimida **1 milliondan ortiq** yangi ish o‘rinlarini yaratish. | ming nafar | **598,7** | **621,9** |
| **55-maqsad: Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish** | | | | |
| 44. | Jami eksport hajmini **45 milliard dollarga** yetkazish. | o‘sish sur’ati foizda | **22,5** | **20** |
| 45. | Eksportchi korxonalar sonini **6,5 mingtadan 15 mingtaga** yetkazish. | ming ta | **7,1** | **8,1** |
| 46. | Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini **5 mingtaga** yetkazish. | ta | **328** | **822** |
| 47. | Aylanma mablag‘lar uchun **600 dan ortiq** korxonaga Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan qulay shartlarda mablag‘lar ajratish. | ta | **350** | **450** |
| **56-maqsad: Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish** | | | | |
| 48. | Iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini **85 foizga** yetkazish. | foiz | **64** | **66** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish** | | | | |
| 49. | Ikki yilda barcha aholi punktlarini Internet bilan to‘liq qamrab olish. | foiz | **99** | **99,9** |
| 50. | IT-Park rezidentlari sonini **7 500 taga** yetkazish. | ta | **1 515** | **2 000** |
| 51. | IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini **5 milliard dollarga** yetkazish. | million dollar | **300** | **500** |
| 52. | Internet xizmatining kichik tezlikdagi tarif rejasi tezligini **10 barobar** oshirish. | Mbit/s. | **4** | **8** |
| 53. | Xalqaro Internetga ulanish tezligini **5 000 Gbit/s.**ga yetkazish. | Gbit/s. | **3 600** | **4 200** |
| 54. | Optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini **100 foizga** yetkazish. | foiz | **88** | **95** |
| 55. | IT sohasida yaratilgan ish o‘rinlari sonini **100 mingtaga** yetkazish. | ming nafar | **24** | **32** |
| 56. | IT-Parkda xorijiy kompaniyalar uchun “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi”ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari (ofislari) sonini **1 000 taga** yetkazish. | ta | **230** | **300** |
| 57. | Yagona intera�tiv davlat xizmatlari portalidagi xizmatlar va servislar sonini **1 000 taga** yetkazish. | ta | **500** | **600** |
| 58. | Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarni to‘liq mobil Internet bilan ta’minlash. | foiz | **80** | **90** |
| **58-maqsad: O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish** | | | | |
| 59. | Xorijiy turistlar sonini **15 millionga** yetkazish. | million nafar | **10,0** | **10,5** |
| 60. | Ichki sayyohlar sonini **25 millionga** yetkazish. | million nafar | **20** | **21** |
| 61. | Turizm xizmatlari eksportini **5 milliard dollarga** yetkazish. | milliard dollar | **2,0** | **2,5** |
| 62. | Ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini **3 million nafarga** oshirish. | million nafar | **1,2** | **1,5** |
| 63. | “Mehmonxona — transport — tur-operator — savdo va servis” korxonalari kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan **30 ta** yirik turizm klaster (majmua)larini tashkil etish. | ta | **2** | **4** |
| 64. | Tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga **1,5 milliard dollarga** yetkazish. | million dollar | **100** | **200** |
| 65. | Hududlarda **4 mingta** yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etish. | ta | **600** | **600** |
| **59-maqsad: Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish** | | | | |
| 66. | Savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish uchun shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarning | ta | **2 000** | **2 200** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **233 mingta** bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish. | | | |
| 67. | O‘rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalarni tashkil etish orqali **36 mingta** savdo va servis obyektlarni tashkil etish. | ta | **1 750** | **1 560** |
| 68. | “Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida **6 mingta** savdo va servis obyektlarni tashkil etish. | ta | **950** | **1 200** |
| **60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish** | | | | |
| 69. | Urbanizatsiya darajasini **51 foizdan 60 foizga** yetkazish. | foiz | **51,5** | **52** |
| 70. | Qurilish hajmini yiliga **25 milliard dollarga** yetkazish. | milliard dollar | **20** | **22** |
| 71. | “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini **100 taga** yetkazish. | ta | **40** | **45** |
| 72. | “Yangi O‘zbekiston” massivlari barpo etilishini davom ettirish va uy-joy qurilishi hajmini **90 mingtaga** yetkazish. | ming ta | **65** | **80** |
| 73. | “Ochiq budjet”ga ajratiladigan mablag‘larni **3 barobar** oshirish. | trillion so‘m | **8** | **10** |
| **61-maqsad: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash** | | | | |
| 74. | **3 mingga yaqin** suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish. | ta | **400** | **500** |
| 75. | Xususiy sektor ishtirokida **56 ming kilometr** yo‘llarni rekonstruksiya qilish. | ming kilometr | **8,2** | **8,2** |

*(2a-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi PF-205-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2023-y., 06/23/205/0934-son)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
2b-ILOVA

## “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

RO‘YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| **T/r** | **Normativ-huquqiy hujjat loyihasi nomi** | **Asosiy mazmuni** | **Ijro muddati** | **Mas’ul ijrochilar** |
|---|---|---|---|---|
| **47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish** | | | | |
| 1. | **Kon zaxiralarini baholashda ilg‘or xalqaro standartlarni** keng joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida | **Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me’yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash** dasturini ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Hukumat qarori loyihasi. | Bunda:<br>atrof-muhitga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta'minlash;<br>kon-metallurgiya sanoati korxonalarida ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, ekologik menejment tizimini joriy etish choralarini nazarda tutish. | | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi<br>**A. Abduxakimov** |
| 2. | Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda **oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish** to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash** ko'rsatkichining **25 foizdan** yuqori bo'lishini ta'minlash.<br>**2. Meva-sabzavotni qayta ishlash**ni 3,2 million tonnaga, **go'shtni qayta ishlash**ni 450 ming tonnaga, **sutni qayta ishlash**ni 3 million tonnaga, umumiy **eksport hajmida qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari ulushini 40 foizga yetkazish**.<br>**3.** 2030-yilgacha **10 ta xalqaro brendlar**ni jalb etish, **20 ta milliy brendlar**ning tashqi bozorga chiqishiga ko'maklashish hamda **50 ta yangi brendlar** joriy etish.<br>**4.** Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida **ixtisoslashgan oziq-ovqat sanoati texnoparklari**ni tashkil etish. | 2023-yil dekabr | Qishloq xo'jaligi vazirligi<br>**A. Voitov**,<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov** |
| **48-maqsad: Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish** | | | | |
| 3. | **2030-yilgacha metallurgiya sanoatini rivojlantirish dasturi**ni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi | Yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan **mis, oltin**, **kumush**, **uran** mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish.<br>Bunda, mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin — 1,5 barobar, kumush — 3 barobar, uran — 3 barobar, | 2023-yil dekabr | Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi<br>**B. Islamov**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**B. Xodjayev,**<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Prezidenti qarori loyihasi. | qora metall ishlab chiqarish quvvatlarini 2 barobarga oshirish chora-tadbirlarini ko‘zda tutish. | | |
| 4. | **2030-yilgacha avtomobil sanoatini rivojlantirish dasturini** tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Avtomobilsozlik sohasida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini **1 million** donaga yetkazish, shu jumladan yiliga **300 mingta** elektromobil ishlab chiqarish.<br>**2.** Yengil avtomobillar, qishloq xo‘jaligi texnikasi va avtomobillarning butlovchi va zaruriy ehtiyot qismlarini mahalliylashtirish darajasini **60 foizga** yetkazish va bunga investorlarni keng jalb qilish. | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**B. Xodjayev,**<br>“O‘zavtosanoat” AJ<br>**U. Rozukulov** |
| 5. | **2030-yilgacha elektrotexnika sanoatini rivojlantirish dasturini** tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini **300 ming** tonnaga oshirish va barcha maishiy texnika ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga **1,5 milliard** dollar investitsiya jalb qilish.<br>**2.** Yangi turdagi mahsulotlar o‘zlashtirish va mahalliylashtirish darajasini o‘rtacha **65 foizga** yetkazish. | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**I. �orqulov,**<br>“O‘zeltexsanoat” uyushmasi<br>**M. Yunusov** |
| 6. | 2030-yilgacha **qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish dasturini** tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | 1. Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini **2 baravarga** ko‘paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqarishni kengaytirish.<br>**2.** Energiya tejamkor qurilish materiallari, gulqog‘ozlar ishlab chiqarishni **3,5 barobarga**, keramik plitalar, qurilish oynasini — **2-2,5 barobarga** oshirish.<br>**3.** Barcha ishlab chiqarish quvvatlarini energiya tejamkor va muqobil energiya turlariga o‘tkazish. | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov**,<br>“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi<br>**A. Baxodirov,**<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi<br>**B. Zakirov** |
| 7. | 2030-yilgacha **farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish** | **1.** Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining respublika umumiy | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov**,<br>Sog‘liqni saqlash vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **konsepsiyasini** tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | iste’molidagi ulushini **70 foizga** yetkazish.<br>**2.** Rekombinant texnologiyalarga asoslangan mahalliy biotexnologik mahsulotlardan vaksina va rekombinat oqsillar ishlab chiqarishni tashkil etish.<br>**3.** Saraton va autoimmun kasalliklarini davolash uchun monoklonal antitanachalarga asoslangan yuqori texnologiyali dori preparatlarini yaratish. | | **A. Inoyatov** |
| 8. | **2024 — 2026-yillarda charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish dasturini** tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Charm-poyabzal sanoatiga **30 dan ortiq** nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo‘shilgan qiymatni **5 barobarga** oshirish.<br>**2.** Charm mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda kimyoviy va biologik tozalash inshootlarini joriy qilish.<br>**3.** Sport, mebel, mashinasozlik va boshqa sohalarda ishlatiladigan sifatli tabiiy va sun’iy charm mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish. | 2023-yil oktyabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov,**<br>“O‘zcharmsanoat” uyushmasi<br>**F. Boboyev** |
| 9. | **Sanoat ipotekasi tizimi**ni joriy etish to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Tadbirkorlarga **“tayyor biznes”** shaklida bino berish mexanizmlarini joriy qilish.<br>**2. Sanoat ipotekasini amaliyotga joriy etish** hamda ularning asosiy shartlari va yo‘nalishlarini inobatga olish. | 2023-yil oktyabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov**,<br>Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi<br>**Sh. Vafayev** |
| 10. | **Sanoat tarmoqlari ehtiyojlari uchun tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish dasturi**ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi | **1.** Tarmoqlar va hududlar kesimida 2023-2024-yillarda **tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni** mahalliylashtirish loyihalari manzilli dasturini ishlab chiqish.<br>**2.** Yirik korxonalar tomonidan **import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni** | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Prezidenti qarori loyihasi. | **ishlab chiqarish** va hududiy korxonalar bilan **kooperatsiya aloqalarini kengaytirish**, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish. | | |
| 11. | **“Kichik sanoat zonalari to‘g‘risida”**gi qonun loyihasi. | Bunda:<br>kichik sanoat zonalarini **tashkil etish va boshqarish** mezonlari va tamoyillari;<br>davlat tomonidan **qo‘llab-quvvatlash** choralari;<br>kichik sanoat zonalari ishtirokchilarining **huquq va majburiyatlari**;<br>kichik sanoat zonalarida yerlarni **ijaraga berish**, bino va inshootlarni **xususiylashtirish tartibi** nazarda tutiladi. | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov** |
| 12. | **Ilmiy ishlab chiqarish klasterlari** va **“Izlanish va rivojlantirish” (R&D) markazlarini rivojlantirish chora-tadbirlari** to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika, transport va logistika, qishloq xo‘jaligida hosildorlik yo‘nalishlarida **8 ta ilmiy-ishlab chiqarish klasteri**ni tashkil etish.<br>**2. “Izlanish va rivojlantirish”** markazlarini tashkil etishda amaldagi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.<br>**3.** Tarmoq korxonalari bilan birga sohadagi yuqori istiqbolli mahsulotlarni aniqlash, ularni ishlab chiqarish uchun texnologiyani tanlash va o‘zlashtirish, konstruktorlik, dizayn va loyiha ishlarini tashkil qilish asosida yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil noyabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov**,<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmanov** |
| **49-maqsad: Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish** | | | | |
| 13. | **Investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-** | **1.** Mahalliy va xorijiy investorlarga beriladigan **preferensiya va** | 2023-yil dekabr | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **huquqiy bazaga** o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qonunchilik hujjati loyihasi. | **imtiyozlarning yagona reyestri**ni shakllantirish.<br>**2.** Mahalliy va xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish. | | |
| **50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish** | | | | |
| 14. | Aholining **moliyaviy resurslardan foydalanish** imkoniyatlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish orqali aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, **imtiyozli kredit va subsidiyalar berish tizimini** takomillashtirish.<br>**2.** Ehtiyojmand aholini tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qulay shartlarda qo‘llab-quvvatlash maqsadida raqamli mikromoliya tashkilotini tashkil etish. | 2023-yil dekabr | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**O. Fozilkarimov,**<br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>**M. Olloyorov**,<br>Markaziy bank<br>**M. Nurmuratov** |
| **51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish** | | | | |
| 15. | **Iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida “yashil” tamoyillar**ni joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | Davlat ishtirokidagi korxonalarni **“yashil” iqtisodiyotga o‘tish**da peshqadamlarga aylantirish choralarini ko‘rish:<br>ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarning tegishli boshqaruv organlarida SDG, SSR, ESG tamoyillarini joriy etish;<br>korxonalarning yillik hisobotlarida, jumladan yirik sanoat korxonalarida ekologik auditni joriy qilish, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlarini davriy e’lon qilib borish. | 2023-yil dekabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**I. Norqulov**,<br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br>**A. Ortiqov,**<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi<br>**A. Abduxakimov** |
| **52-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash** | | | | |
| 16. | Uglevodorodlarga yangi istiqbolli strukturalarni aniqlash va resurslarni oshirish chora-tadbirlari | **Uglevodorodlarga yangi istiqbolli strukturalarni** aniqlash va resurslarni o‘stirishga qaratilgan seysmorazvedka ishlarini jadallashtirish dasturini ishlab chiqish va uni amalga | 2023-yil dekabr | Energetika vazirligi<br>**J. Mirzamaxmudov**,<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**B. Xodjayev,**<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br>**L. Qudratov,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | oshirishga xorijiy investorlarni jalb qilish. | | “O‘zbekneftgaz” AJ **B. Sidikov** |
| 17. | Elektr energiyasini **taqsimlash va iste’molchilarga yetkazish infratuzilmasi**ni modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Hududlar kesimida yangi barpo etilayotgan quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalari hamda iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga oshib borayotgan talablarini inobatga olgan holda yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoqlari va ularning infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| **53-maqsad: O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | |
| 18. | **2030-yilga qadar avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturi**ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Respublika bo‘ylab **56 ming** kilometr avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish.<br>**2.** Mamlakatning **avtotransport yo‘laklarining tranzit o‘tkazuvchanligini oshirish**.<br>**3.** Avtomobil yo‘llarini qurish va ekspluatatsiya qilishga xususiy sektorni jalb qilish.<br>**4.** Pulli avtomobil yo‘llarini qurish va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish. | 2023-yil noyabr | Transport vazirligi **I. Mahkamov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Boboyev,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |
| 19. | **O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari** to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Temir yo‘l sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish va xizmatlar sifatini raqobatbardosh narxlar asosida belgilash.<br>**2.** O‘zining yo‘lovchi va yuk vagonlariga ega xususiy operatorlar faoliyatini rivojlantirish.<br>**3.** Temir yo‘l transporti korxonalarida operatsion va biznes jarayonlar samaradorligini oshirish.<br>**4.** Temir yo‘l orqali ichki va xalqaro yuk hamda yo‘lovchi tashuvlarini davlat-xususiy sheriklik yoki | 2023-yil oktyabr | Transport vazirligi **I. Mahkamov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | franshiza asosida xususiy sektorga berish.<br>**5.** Temir yo‘llarning qamrovi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shu jumladan temir yo‘l xizmatlarini to‘liq raqamli transformatsiyasini amalga oshirish.<br>**6.** Temir va avtomobil yo‘llari kesishgan markazlar hamda havo yo‘liga yaqin hududlarda logistika xablarini yaratish. | | |
| **54-maqsad: Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish** | | | | |
| 20. | **2023 — 2030-yillarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tumanlarning istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish** chora-tadbirlari to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasi. | Respublikaning barcha hududlarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xatlovdan o‘tkazib, Yer kodeksining 12-moddasiga muvofiq, yer tuzish loyiha ishlarini o‘tkazish va hududlarning istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqishni yillar kesimida tashkil etish. | 2023-yil dekabr | Qishloq xo‘jaligi vazirligi<br>**A. Voitov,**<br>Kadastr agentligi<br>**F. Po‘latov** |
| 21. | **“Qishloq xo‘jaligi sohasida tavakkalchiliklarni sug‘urtalash to‘g‘risida”gi** Qonun loyihasi. | **1.** Qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarini turli xil tabiiy ofatlar va boshqa xatarlardan ko‘riladigan zararlardan sug‘urtalash orqali himoyalash.<br>**2.** Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning huquqiy as�slarini belgilash.<br>**3.** Qishloq xo‘jaligi sohasida tavakkalchiliklarni sug‘urtalashda sug‘urta munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilishning yagona tizimini yaratish.<br>**4.** Qishloq xo‘jaligi sohasida tavakkalchiliklarni sug‘urtalash jarayonida ishtirok etuvchi | 2024-yil mart | Qishloq xo‘jaligi vazirligi<br>**A. Voitov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**J. Karshibayev**,<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | subyektlarining huquq va majburiyatlarini belgilash. | | |
| 22. | Yangi tahrirdagi **“Yaylovlar to‘g‘risida”gi** qonun loyihasi. | **Chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash**, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta’minlash.<br>Bunda:<br>yaylovlardan foydalanishning asosiy qoidalari va foydalanish turlarini belgilash;<br>yaylovlardan samarali foydalanish va muhofaza qilishni tartibga solish;<br>davlat organlari va yaylovlardan foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash;<br>yaylovlarni muhofaza qilish, takror ko‘paytirish va tiklash ishlarini moliyalashtirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini belgilash. | 2023-yil dekabr | Qishloq xo‘jaligi vazirligi<br>**A. Voitov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**I. Norkulov**,<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |
| 23. | **Qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishiga moslashish dasturi**ni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **Qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga mos holda rivojlantirish**, tuproq va yaylovlarda degradatsiyaning oldini olish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish.<br>Bunda:<br>suv oqimi va hajmining kutilayotgan o‘zgarishini hisobga olgan holda taqsimlash va tejamkor texnologiyalarni joriy etish;<br>qishloq xo‘jalik ekinlari tarkibi va agrotexnik tadbirlarni, shuningdek, chorva mollari zotlarini, ozuqa va boqish sharoitlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish;<br>iqlim o‘zgarishida rivojlanadigan zararkunandalar va patogenlarning tarqalish hududlarida o‘simliklarni himoya qilishni nazarda tutish. | 2023-yil noyabr | Qishloq xo‘jaligi vazirligi<br>**A. Voitov,**<br>Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi<br>**A. Abduxakimov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **56-maqsad: Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish** | | | | |
| 24. | **Tabiiy gazning raqobatli bozoriga bosqichma-bosqich o‘tish konsepsiyasini tasdiqlash** to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Tabiiy gazni ishlab chiqarish, uzatish va yetkazib berishda bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish.<br>**2.** Ichki bozorda tabiiy gazga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida kafolatli yetkazib berish uchun xususiy operatorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil mart | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev,** Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov** |
| 25. | **Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Energetika bozori regulyatorini tashkil etish.<br>**2.** “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJdan elektr energiyasini yagona xarid qiluvchi funksiyasini ajratish orqali alohida kompaniya tashkil etish.<br>**3.** Elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlariga bosqichma-bosqich o‘tish konsepsiyasini tasdiqlash. | 2023-yil dekabr | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |
| **57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish** | | | | |
| 26. | **“Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi”ni tashkil etish to‘g‘risida** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | IT-Parkda xorijiy kompaniyalar uchun “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi”ni tashkil qilish, uning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlarni belgilash. | 2023-yil noyabr | Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |
| **60-maqsad. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minla� darajasini oshirish** | | | | |
| 27. | **“Mening birinchi uyim”** dasturini amalga oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Toshkent viloyatida “Mening birinchi uyim” dasturining pilot loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish.<br>**2.** “Mening birinchi uyim” dasturi doirasida quriladigan uylarning kamida 50 foizini ehtiyojmand va yosh oilalar uchun ajratish. | 2023-yil noyabr | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 28. | Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida **ko‘p kvartirali u�larni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish** chora-tadbirlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **1.** Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish.<br>**2.** Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari tomonidan faoliyatni amalga oshirish jarayonida tegishli mulkdorlarning huquqlari buzilishidan himoya qilish.<br>**3.** Respublikada renovatsiya amalga oshirilishini tashkiliy va huquqiy jihatdan ta’minlash. | 2023-yil oktyabr | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi **B. Zakirov**, Adliya vazirligi **A. Tashkulov**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **61-maqsad: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash** | | | | |
| 29. | **Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturi** to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | **Bunda:**<br>sohalar va hududlar kesimida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar.<br>davlat-xususiy sheriklik loyihalarini sifatli tayyorlash va ularga salohiyatli investorlarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar nazarda tutiladi. | 2024-yil aprel | Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri **J. Qo‘chqorov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **B. Xodjayev** |

*Izoh: mazkur ro‘yxatda keltirilmagan maqsadlar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2024 va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan dasturlarda nazarda tutiladi.*

*(2b-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi PF-205-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2023-y., 06/23/205/0934-son)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
3-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan**

AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari va xarajatlar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **III. SUV RESURSLARINI TEJASh VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISh** | | | | | |
| **3.1. Suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlar**<br>*(Mas’ul — J. Xodjayev)* | | | | | |
| **62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish** | | | | | |
| 1. | Uzoq muddatga mo‘ljallangan **respublikaning suv resurslari balansini** ishlab | Xorijiy va mahalliy ekspertlarni jalb etgan holda **suv balansining 2050 yilga qadar prognozining** dastlabki | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | chiqish va uning yuritilishi ustidan **doimiy monitoring** o‘rnatish. | loyihasini ishlab chiqish. Bunda:<br>**iqlim o‘zgarishi**;<br>havo haroratining **keskin isishi** va yillik yog‘ingarchilik darajasi;<br>**yer osti** va **usti suv** zaxiralari;<br>**muzliklarning erishi**;<br>iqtisodiyotning kengayishi va aholini o‘sishini inobatga olgan holda **suvga bo‘lgan talab** va **resurslar balansini** ishlab chiqishni nazarda tutish. | | | Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islomov,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov** |
| 2. | Suv yetkazish tizimiga ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy qilgan holda tuproq qoplamali kanallarni **beton qoplamaga** o‘tkazish. | Respublika hududlarida mavjud tuproq qoplamali kanallarni xatlovdan o‘tkazib, ularni **beton qoplamaga** o‘tkazish va ularni yaroqli holda saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini boshlash. | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| 3. | **Qo‘shni davlatlar bilan suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish** masalalarida manfaatli hamkorlikni davom ettirish. | **Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi**, suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha ikki tomonlama ishchi guruhlar va komissiyalar doirasida **mintaqadagi suv resurslari va suv xo‘jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarini** muhokama qilib borish. | 2023-yil oktyabr oyidan boshlab | - | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |
| 4. | Xizmat ko‘rsatish sohasida **suvni tejovchi va qayta ishlovchi texnologiyalarni** joriy etish. | Xizmat ko‘rsatish sohasida, ayniqsa gilam va avtomobillar yuvish shoxobchalari faoliyatini qonuniy tartibga solish, ularda suvni tejovchi va qayta ishlovchi texnologiyalarni (sirkulyar) joriy etish talabini qonunan mustahkamlab qo‘yish bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil sentyabr | - | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **63-maqsad: Qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Qishloq xo‘jaligida **suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini** joriy qilish. | Sug‘oriladigan maydonning har bir gektariga beriladigan suv hajmini **20 foizga** kamaytirish orqali suvning mahsuldorligini oshirish choralarini belgilash. | 2023-yil oktyabr | - | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov** |
| 6. | **Melioratsiya obyektlarini qurish** va **rekonstruksiya qilish ishlarini** amalga oshirish hisobiga yer unumdorligini oshirish. | **1.** Manzilli dasturga asosan melioratsiya obyektlarini qurish, **rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash** tadbirlarini amalga oshirish.<br>**2.** Sug‘oriladigan yer maydonlarida sho‘rlangan maydonlarni **1,7 mln. gektar**gacha, kuchli va o‘rta sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini **430,0 ming gektar**gacha, yer osti suv sathi muammoli holatda (0-2 metr) bo‘lgan yer maydonlarini **773,4 ming gektar**gacha kamaytirish tadbirlarini amalga oshirish. | 2023-yil sentyabrdan boshlab har yili | - | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| **64-maqsad: Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish** | | | | | |
| 7. | Suvni yetkazib berish va taqsimlash jarayoniga **xususiy sektorni jalb etish**, dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni **tadbirkorlar** (fermer xo‘jaliklari va klasterlar) **boshqaruviga** berish. | **1.** Umumiy suv manbaidan foydalanuvchilarning dalalariga suv yetkazadigan obyektlarni **tadbirkorlar boshqaruviga berish bo‘yicha namunaviy loyiha taklifini** ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>**2.** Suv iste’moliga bozor tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | �uv xo‘jaligi vazirligi **Sh.Xamrayev** |
| **65-maqsad: “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’molini kamaytirish** | | | | | |
| 8. | Nasos stansiyalarini boshqarishni **raqamli texnologiyalar** | Nasos stansiyalari sarflaydigan **elektr energiyasi va chiqarayotgan suv hajmi ko‘rsatkichlarini nazorat** | 2023-yil noyabr | - | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **asosida avtomatlashtirish**. | **qilishning** raqamlashtirilgan masofaviy tizimini joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash. | | | |
| **3.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar** *(Mas’ul — A. Aripov)* | | | | | |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | | |
| 9. | Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikda **yagona ekotizimni rivojlantirish**. | Mintaqadagi mavjud ekologik vaziyatni hisobga olgan holda turli ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan yagona ekotizmni rivojlantirish maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlarini birlashtiruvchi mintaqaviy ekologik hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | - | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |
| 10. | Shahar va tuman markazlarida har **50 — 100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni** tashkil etish. | Hududlarda zamonaviy standartlarga javob beradigan “**yashil jamoat parklari”ni** barpo etish uchun yer maydonlarini belgilash va ularni o‘rnatilgan tartibda ajratish bo‘yicha choralar ko‘rish. | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra, ijrochilar mablag‘lari mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari, homiylik va grant mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish** | | | | | |
| 11. | **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida **200 million tup** manzarali va mevali daraxtlar hamda butalar ko‘chatlari va qalamchalarini ekish. | **1.** Ko‘kalamzorlashtiriladigan maydonlarni aniqlash, har bir hududning tabiiy tuproq-iqlim sharoitiga **mos ko‘chat va qalamchalarni tanlash, ekish va parvarishlash bo‘yicha choralar, moliyalashtirish** manbalari va mas’ullarni belgilash.<br>**2.** Ko‘kalamzorlashtirish va ko‘chat ekish tadbirlari doirasida har yili **bahorda 125** million tup va **kuzda 75 million** tup manzarali, | 2023-yil sentyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar, mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik va grant mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mevali daraxtlar va butalar ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekish.<br>**3.** Ko‘kalamzorlashtiriladigan maydonlarda, shuningdek, **ijtimoiy soha obyektlarida ko‘chatlarni ekish, sug‘orish tizimlarini** o‘rnatish. | | | |
| 12. | **Barcha shaharlarni** to‘liq **“yashil belbog‘”**lar bilan qamrab olish. | **1.** “Yashil belbog‘”larni barpo etish uchun **yer maydonlarini belgilash**, ularni o‘rnatilgan tartibda ajratish bo‘yicha choralar ko‘rish.<br>**2.** Ajratilgan yer maydonlari bo‘yicha hokimliklar bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**3.** Tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida tuproq va **iqlim sharoitiga mos daraxt** turlaridan “yashil belbog‘”larni barpo etish.<br>**4.** “Yashil belbog‘”larni doimiy ravishda **qo‘riqlash** va **parvarish qilish** ishlarini tashkil etish. | 2023-yil oktyabr oyidan boshlab dastur asosida | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari, homiylik va grant mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 13. | Har bir **yirik sanoat korxonasi**ning hududida va unga tutash hududlarda **“yashil belbog‘”**larni barpo etish. | Energetika vazirligi tasarrufiga kiruvchi **12 ta**, “O‘zkimyosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi **11 ta**, “O‘zavtosanoat” AJga qarashli **5 ta**, sement ishlab chiqaruvchi **32 ta**, “O‘zmetkombinat” AJ, “OKMK” AJ hamda “NKMK” AJlarda **“yashil belbog‘”**lar barpo etish uchun jami **4,4 mln dona** ko‘chatlar ekishni ta’minlash. | 2023-yil sentyabrdan boshlab | Xo‘jalik yurituvchi subyektlar mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| **68-maqsad: O‘rmonlar maydonini kengaytirish** | | | | | |
| 14. | Respublikaning **o‘rmon bilan qoplanganlik darajasini 15 foizga yetkazish.** | O‘rmon fondi **yer maydonlarida o‘rmonlarni kengaytirish** tadbirlarini amalga oshirish va o‘rmon bilan | 2023-yil oktyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zga�ishi | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **qoplanganlik darajasini oshirish** bo‘yicha doimiy ravishda monitoring yuritishni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini belgilash. | | vazirligiga ajratilgan mablag‘lar | |
| **69-maqsad: Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish** | | | | | |
| 15. | Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni **2,3 million gektarga yetkazish**, barcha aholi punktlari va mahallalarda **“yashil maydonlar”**ni ko‘paytirish. | **1.** Orol dengizining qurigan tubida **“yashil qoplamalar” himoya o‘rmonzorlari barpo etish** loyihasi va xaritasini ishlab chiqish. **2. “Yashil qoplama”lar va himoya o‘rmonzorlari barpo etish** uchun cho‘l o‘simliklari turlarini tanlash, talab etiladigan urug‘lik va ko‘chat ekish materiallari zaxirasini yaratish. **3.** Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yi mintaqasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari) **“yashil qoplama”larni barpo etish**. | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari, homiylik va grant mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov**, Qoraqalpog‘i�ton Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyati hokimliklari |
| 16. | Orolbo‘yi mintaqasida **chang bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish mintaqalarini** prognozlashtirish modelini ishlab chiqish. | **1.** Statsionar bo‘lmagan **modellashtirish tizimini ishlab chiqish va prognozlashtirish** mexanizmlarini tadqiq qilish. **2.** Tadqiqot natijalari asosida **yangi mezonlarni belgilash uchun xulosalar taqdim qilish**. **3.** Hududdagi **ekologik holatning xavflilik darajasiga** qarab **ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlarini** joylashtirish mexanizmini ishlab chiqish. **4. Chang bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari** va **tarqalish mintaqalarini** | 2023-yil sentyabr oyidan boshlab | Hisob-kitoblarga ko‘ra, homiylik va grant mablag‘lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **prognozlashtirishning** dasturiy ta'minotini yaratish. | | | |
| **70-maqsad: Iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish** | | | | | |
| 17. | Iqlim xavfini baholash va kamaytirishga qaratilgan iqlim monitoringi tizimini takomillashtirish. | Gidrologik, ob-havo va iqlimga oid **ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli taqdim etish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha loyihani** ishga tushi�ish. | 2023-yil oktyabr | Davlat ilmiy dasturlariga ajratilgan mablag'lar | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| **71-maqsad: Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash** | | | | | |
| 18. | Mavjud muhofaza qilinadigan **tabiiy hududlarni kengaytirish** va yangilarini tashkil etish. | **"Zarafshon"** milliy tabiat bog'ini **2 ming gektarga**, **"Surxon"** va **"Nurota"** davlat qo'riqxonalari hududini **4-5 ming gektargacha** kengaytirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| **72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash** | | | | | |
| 19. | Aholini **qattiq maishiy chiqindilarni to'plash xizmatlari bilan to'liq qamrab olish.** | **1. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash** xizmatlari bilan **qamrab olinmagan mahallalarni** xatlovdan o'tkazish.<br>**2. Sohada davlat-xususiy sheriklik loyihalari sonini oshirish** va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash. | 2023 yil noyabr | Mahalliy budjetlar va xalqaro moliya institutlari mablag'lari | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| 20. | Elim qadoqlangan mahsulotlarni�g chiqindisi hajmini keskin kamaytirish. | Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlarini yelim idishlarga qadoqlash amaliyotidan bosqichma-bosqich voz kechib, shisha va qayta ishlanadigan materiallardan tayyorlangan qadoqlarni ishlatish va bu amaliyotni rag'batlantirish tizimi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabr | - | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| **73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo'yicha keskin choralar ko'rish** | | | | | |
| 21. | Atrof tabiiy muhit davlat | Hududlardagi ekologik holatni prognozlash va | 2023-yil noyabr | -- | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | monitoringini samarali tashkil etish. | aholini xabardor qilish tizimini joriy etish hamda yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasini saqlashni ta'minlovchi Situatsion markaz faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. | | | qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |

*(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2023-y., 06/23/199/0882-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
3a-ILOVA

**"O'zbekiston — 2030" strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan**

MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

| T/r | Maqsadli ko'rsatkich | O'lchov birligi | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| **3.1. Suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar** | | | | |
| **62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish** | | | | |
| 1. | Suv ishlatish samaradorligini **20 foizga** oshirish. | foiz | **18** | **20** |
| 2. | Tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini **39 foizga** oshirish. | foiz | **38** | **39** |
| **63-maqsad: Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash** | | | | |
| 3. | Irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti ko'rsatkichini **0,67 gacha** yetkazish. | koeffitsiyent | **0,66** | **0,67** |
| 4. | Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini **1,4 mln gektargacha** yetkazish. | million gektar | **1,2** | **1,4** |
| 5. | Tomchilab sug'orish texnologiyasi qamrovini **550 ming gektargacha** yetkazish. | gektar | **475 000** | **550 000** |
| **64-maqsad: Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish** | | | | |
| 6. | **40 ta** suv xo'jaligi obyektlarida **avtomatlashtirilgan boshqaruv** tizimini joriy qilish. | ta | **20** | **20** |
| **65-maqsad: "Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish** | | | | |
| 7. | Nasos stansiyalaridagi eskirgan **322 ta** nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish. | ta | **174** | **148** |
| 8. | Nasos stansiyalaridagi eskirgan **383 ta** elektrodvigatellarni energiya tejamkorlariga almashtirish. | ta | **234** | **149** |
| 9. | Energiya tejamkor qurilmalar o'rnatish, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, ularning yillik elektr energiyasi iste'molini kamaytirish. | mlrd.kVt/soat | **7,145** | **7,06** |
| **3.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar** | | | | |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | |
| 10. | **14 ta** hududda ekologik toza hudud rejimini joriy qilish. | ta | - | 2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 11. | **14 ta** qarovsiz hayvonlarni saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi pitomniklar yaratish. | ta | - | 14 |
| **67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish** | | | | |
| 12. | “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida **200 million tup** manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish. | million tup | 200 | 200 |
| 13. | Yashillik darajasini **30 foizga** yetkazish. | foiz | 10,4 | 12,4 |
| 14. | **1 984 ta** yashil bog‘lar barpo etish. | ta | 260 | 444 |
| 15. | **112 ta** yirik sanoat korxonasi tomonidan o‘z va tutash hududlarida uch yil davomida 30 million tup ko‘chatdan iborat “yashil belbog‘”lar barpo etish. | mln tup | 1,0 | 2,1 |
| 16. | Loyihaga har yili **400 milliard so‘mdan** ajratib borish. | milliard so‘m | 50 | 500 |
| **68-maqsad: O‘rmonlar maydonini kengaytirish** | | | | |
| 17. | Respublikaning o‘rmon bilan qoplanganlik darajasini **15 foizga** yetkazish. | foiz | 7,7 | 8,1 |
| 18. | Yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun **26 200 gektar** ihota daraxtzorlarini barpo etish. | gektar | 12 514 | 15 014 |
| 19. | Respublikada o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni **6,1 million gektarga** yetkazish. | million gektar | 3,46 | 3,65 |
| 20. | Daraxt va buta urug‘lari tayyorlashni **840 tonnaga** oshirish. | tonna | 644 | 688 |
| 21. | o‘rmon xo‘jaliklarida nihol va ko‘chatlar yetishtirishni **190 million tupga** yetkazish. | million tup | 104 | 112 |
| 22. | Asalari oilalari soni **300 ming** oilaga yetkazish. | ming oila | 220 | 230 |
| 23. | Dorivor o‘simliklar tayyorlashni **11 674 tonnaga** yetkazish. | tonna | 9 041 | 9 640 |
| **69-maqsad: Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish** | | | | |
| 24. | Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni **2,3 million gektarga** yetkazish. | million gektar | 1,7 | 1,9 |
| 25. | Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha **600 ming gektar** yashil maydonlarni barpo etish. | ming gektar | 100 | 100 |
| **70-maqsad: Iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish** | | | | |
| 26. | Cho‘llanish, qurg‘oqchilik, chang-qum bo‘ronlari va haroratning ko‘tarilishiga qarshi chora sifatida asosan jami **600 ming gektar** maydonda “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etish. | ming gektar | 200 | 200 |
| 27. | Xavfli gidrometeorologik hodisalar to‘g‘risida barvaqt ogohlantirishlar darajasini **100 foizga** yetkazish. | foiz | 99 | 100 |
| 28. | Tog‘ daryolari oqimi prognozlarining ishonchliligi darajasini **98 foizga** yetkazish. | foiz | 96 | 98 |
| 29. | Qishloq xo‘jaligi ekinlarining rivojlanishi va hosildorligi haqidagi agrometeorologik prognozlarning ishonchlilik darajasini **96 foizga** yetkazish. | foiz | 95 | 96 |
| 30. | Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan **6 075 gektar** yer maydonlarini rekultivatsiya qilish. | gektar | 2 000 | 2 000 |
| **71-maqsad: Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash** | | | | |
| 31. | Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni **14,3 foizgacha** kengaytirish. | foiz | 14,1 | 14,2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 32. | **2 million gektar** hajmda tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o‘simliklarini **geo**botanik tekshirishni �ar yili amalga oshirish. | million gektar | - | 2 |
| 33. | Dorivor va oziq-ovqatbop o‘simliklarni yetishtirish va ko‘paytirish bo‘yicha har yili **25 ming gektar** maydonda madaniy plantatsiyalarni tashkil etish. | ming gektar | 25 | 25 |
| **72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash** | | | | |
| 34. | Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini **100 foizga** yetkazish. | foiz | 90 | 92 |
| 35. | Chiqindilarni qayta ishlash darajasini **65 foizga** oshirish. | foiz | 36 | 40 |
| 36. | Maishiy chiqindi poligonlarini kamida **50 foizga** qisqartirish. | foiz | 10 | **17** |
| **73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish** | | | | |
| 37. | Atmosferaga chiqarib tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini **10,5 foizga** kamaytirish. | foiz | 1,5 | 3,0 |
| 38. | Atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha I va II toifaga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi ifloslantiruvchi texnologiyalarni to‘liq modernizatsiya qilish. | ta | 106 | 122 |
| 39. | **249 ta** sanoat korxonalarida lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish. | ta | 80 | 93 |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
3b-ILOVA

## “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

RO‘YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi nomi | Asosiy mazmuni | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **III. SUV RESURSLARINI TEJASh VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISh** | | | | |
| **3.1. Suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlar** *(Mas’ul — J. Xodjayev)* | | | | |
| **62-maqsad: Respublikada suvdan oqilona foydal�nish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish** | | | | |
| 1. | Suv iste’moli yuqori bo‘lgan sohalarda **suv resurslaridan unumli foydalanish** va uning **iqtisodiy samaradorligini oshirish** dasturini tasdiqlash bo‘yicha Hukumat qarori. | Qishloq xo‘jaligi, uy-joy kommunal xo‘jaligi, sanoat va boshqa tarmoqlarda **suv resurslaridan unumli foydalanish** va uning **iqtisodiy samaradorligini oshirish** bo‘yicha dasturni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil noyabr | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov** |
| 2. | **Suv resurslarini boshqarish** va **irrigatsiya** | 2024 — 2026-yillarga mo‘ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning asosiy | 2024-yil aprel | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **sektorini rivojlantirish**ning qisqa muddatli strategiyasini tasdiqlash bo‘yicha Hukumat qarori. | yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarini, ichimlik suvining hajmi va sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlarni jamoatchilik uchun onlayn-axborot berish tizimini yaratishni nazarda tutuvchi strategiyani ishlab chiqish. | | |
| 3. | Suv resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadida sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish va tegishli me’yoriy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlash. | 1. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish.<br>2. Me’yoriy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.<br>3. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarorini qabul qilish. | 2023-yil dekabr | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** Qishloq xo‘jaligi vazirligi **A. Voitov,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduhakimov,** Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov** |
| 4. | Hududlar kesimida yer osti suv resurslarini tahliliy aniqlash hamda muqobil suv manbalaridan *(buloq, quduq va boshqa)* samarali foydalanish choralarini ko‘rish. | 1. Hududlar kesimida mavjud buloq va quduqlarni xatlovdan o‘tkazish va ularning reyestrini shakllantirish.<br>2. Xatlov natijasiga ko‘ra har bir suv obyektidan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish.<br>3. Takliflar asosida Vazirlar Mahkamasining reglamentini qabul qilish. | 2023-yil dekabr | Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov,** Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** “O‘zsuvta’minot” AJ **D. Azimov** |
| **3.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar** *(Mas’ul — A. Aripov)* | | | | |
| **66-maqsad: Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | |
| 5. | **Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lganlik** uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi. | Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lganlik uchun ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish va jinoiy javobgarlikni joriy qilish. | 2023-yil sentyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Bosh prokuratura **N. Yo‘ldoshev** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **67-maqsad: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil ma�on" umummilliy loyihasini kengaytirish** | | | | |
| 6. | Suv resurslarini tejash maqsadida "Yashil makon" loyihasi doirasida **ekilgan daraxt va butalarni sug'orish tizimini talab etiladigan joylarda to'liq tomchilab sug'orish** tizimiga o'tkazishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasi. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish:<br>**birinchi bosqichda** — vazirlik va idoralar, davlat ulushi ellik foizdan ortiq bo'lgan tashkilotlar hududidagi (atrofidagi) ko'kalamzorlashtirish, shu jumladan, daraxt va butalarni sug'orish tizimini to'liq tomchilab sug'orish tizimiga o'tkazish;<br>**ikkinchi bosqichda** — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarning markaziy shaharlari va Toshkent shahrida **ko'kalamzorlashtirish tizimini tomchilab sug'orish** tizimiga o'tkazish. | 2023-yil oktyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi<br>**A. Abduxakimov** |
| **69-maqsad: Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish** | | | | |
| 7. | Orolbo'yi mintaqasini **barqaror rivojlantirish**, **innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni** keng joriy etish bo'yicha **milliy dastur**. | 2023 — 2026-yillarda Orolbo'yi mintaqasini barqaror rivojlantirish, innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilashni nazarda tutuvchi milliy dastur loyihasini ishlab chiqish va kiritish:<br>**yashil qoplamalar — himoya o'rmonzorlarini barpo etishni izchil davom ettirish** hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tizimli rivojlantirish;<br>ilmiy va innovatsion faoliyat uchun **zamonaviy infratuzilmani yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish** integratsiyasini mustahkamlash;<br>qishloq xo'jaligi mahsulotlarini **yetishtirish, qayta ishlash va boshqa turdagi ishlab chiqarish** tarmoqlarini rivojlantirish;<br>qayta tiklanuvchi va muqobil **energiya manbalaridan** foydalanish amaliyotini kengaytirish. | 2023-yil noyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi<br>**A. Abduxakimov,**<br>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati hokimligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **70-maqsad: Iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish** | | | | |
| 8. | **“Yashil iqlim”** va Global ekologik jamg‘armalarning **bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olish** loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Loyihalar konsepsiyalarini **ishlab chiqish va donor tashkilotlarga ko‘rib chiqish** va tasdiqlash uchun kiritish.<br>**2.** Loyihalarni amalga oshirish **bo‘yicha xalqaro hamkor bilan o‘zaro** bitim imzolash.<br>**3.** Loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha **Hukumat qarori loyihasini** ishlab chiqish va kiritish. | 2023-yil noyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Qudratov** |
| **71-maqsad: Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash** | | | | |
| 9. | F. Rusanov nomidagi **Toshkent botanika bog‘i**ning viloyatlardagi filiallari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | Toshkent botanika bog‘ining filiallarini tashkil etish va ularning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil oktyabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| 10. | Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan **noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni** kuchaytirish bo‘yicha qonun loyihasi. | Ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazish, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini **nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar** uchun javobgarlikni kuchaytirish. | 2023-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Bosh prokuratura **N. Yo‘ldoshev** |
| **72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash** | | | | |
| 11. | Chiqindilarni maishiy chiqindi turlariga qarab, **alohida-alohida to‘plash** va olib chiqib ketish tizimini joriy qilish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | Xorijiy tajribadan kelib chiqib chiqindilarni alohida saralash tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirish doirasida dastlab **Buxoro shahri va Toshkent tumanida, keyinchalik esa respublikaning barcha hududlarida** joriy qilish. | 2023-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| 12. | Hosil bo‘layotgan chiqindilarni poligonlarga yo‘naltirmasdan, maksimal darajada **qayta ishlash va qayta ishlash** | Maishiy chiqindilarni qayta ishlash va ularni muqobil energiya **ishlab chiqarishga yo‘naltirish hisobiga** 2026-yilgacha barcha maishiy chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish.<br>Bunda:<br>har bir viloyatda aholi soni va hosil bo‘ladigan maishiy chiqindilar ko‘lamidan | 2023-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **imkoni bo‘lmagan chiqindilarini kuydirishni yo‘lga qo‘yish** bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | kelib chiqib **qayta ishlash zavodlarini** ishga tushirish;<br>**chiqindilar bilan to‘lgan poligonlarni yopish** (rekultivatsiya qilish) va mahalliy hokimlik zaxirasiga qaytarish;<br>qolgan poligonlarni **rekonstruksiya qilish va zamonaviy texnologiyalar asosida** yangi poligonlarni qurishni nazarda tutish. | | |
| 13. | Barcha mavjud poligonlardagi chiqindilarning to‘liq qayta ishlash, **“yashil tarif”** va **“yashil subsidiyalar”** tizimlarini joriy qilish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Chiqindilarni qayta ishlash sohasiga **tadbirkorlik subyektlarini keng jalb etish**.<br>**2.** Chiqindilarni **kompleks qayta ishlashni** yo‘lga qo‘yish.<br>**3.** Chiqindilarni qayta ishlash yo‘li bilan olinadigan energiyani sotib olish mexanizmlarini belgilash. | 2023-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov**, Energetika vazirligi **J. Mirzamaxmudov** |
| **73-maqsad: Atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, uning tabiiy tarkibini saqlash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish** | | | | |
| 14. | Respublikaning barcha tuman va shaharlarida **atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini yuritish** uchun avtomatlashgan **stansiyalarni** o‘rnatish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | **1.** Kichik stansiyalarni **o‘rnatish bo‘yicha texnik talablar va hududlarga joylashtirish** xaritalari ishlab chiqish.<br>**2.** O‘rnatilgan avtomatlashgan kichik stansiyalar ma’lumotlari **atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish** orqali vizuallashtirish va **real vaqt rejimida** muntazam yangilab borish.<br>**3.** Atmosfera havosining tabiiy ifloslanishi yuqori bo‘lgan **hududlarni aniqlash va aholini xabardor qilish tizimini** sinov tariqasida joriy etish. | 2023-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov** |
| 15. | Respublika **hududlarida aerobiologik monitoring tizimini** yo‘lga qo‘yish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi. | “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish doirasida **Xalqaro molekulyar allergologiya markazi tomonidan allergiya chaqiradigan o‘simliklarning** changlanishi, aholining **allergik kasalliklarning klinik zo‘rayishi** (rinit, bronxial astma) o‘rtasidagi bog‘liqlikning **gulchang monitoringini o‘tkazish tizimini** yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil dekabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmanov** |

*Izoh: mazkur ro‘yxatda keltirilmagan maqsadlar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2024 va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan dasturlarda nazarda tutiladi.*

*(3b-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.01.2024-y., 07/24/5/0010-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
4-ILOVA

## "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan

## AMALIY TADBIRLAR REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASh, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOShQARUVINI TAShKIL ETISh** | | | | | |
| **4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar**<br>*(Mas'ullar — A. Aripov, J. Qo'chqorov, A. Ramatov)* | | | | | |
| **74-maqsad: Aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'prik"ka aylantirish** | | | | | |
| 1. | Mahalla hududida **faoliyat yurituvchi davlat organlari vakillari bilan o'zaro aloqalarni** mustahkamlash. | Tadbirkorlarga yaqindan ko'maklashish, mahalladagi yolg'iz keksalar va ayollar, nogironligi bo'lgan va ehtiyojmand aholi bilan manzilli ishlashda mahallalarning tuman (shahar) soliq inspektorlari va Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman (shahar) bo'linmalarining ijtimoiy xodimlari bilan o'zaro aloqalarini yo'lga qo'yish. | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>**S. Abdullayev** |
| 2. | Fuqarolarning **o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish**. | Mahallaning mablag'larini aholining ovoziga ko'ra, mahallalardagi muhim masalalar — **yo'l, ichimlik suv, elektr tarmoqlari va gaz ta'minotini yaxshilash** kabi infratuzilma loyihalariga yo'naltirish amaliyotini joriy qilish, mahallalar uchun **"Ochiq budjet"** imkoniyatlarini kengaytirib, unga | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**A. Xaydarov,**<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ajratiladigan mablagʻlarni bosqichma-bosqich **3 barobar** oshirish. | | | |
| 3. | Joylarda **ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma masalalarini hal etishda mahallaning rolini** oshirish. | Mahallalarda **Tadbirkorlik kengashlarini tashkil etish** va ular tomonidan mahalla hududida tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga koʻmaklashish tartib-taomillarini joriy etish. | 2023-yil dekabr | - | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |
| 4. | Mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni **toʻliq raqamlashtirish**. | **1.** Mahalladan turib barcha davlat idoralari rahbarlariga onlayn tarzda shaxsan murojaat qilish tizimi va har bir mahallada davlat xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha "**elektron xizmat nuqtalari**"ni ishga tushirish.<br>**2.** "**Yagona milliy ijtimoiy himoya**" axborot tizimini yaratish va quyidagilarni taʼminlash:<br>mahallada kompleks yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish, aholi bilan ishlash sohasiga raqamli va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;<br>nogironligi boʻlgan shaxslarga davlat tomonidan koʻrsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, sohada dasturiy yechimlarni ishlab chiqish, joriy etish va qoʻllab-quvvatlash. | 2024-yil may<br>2024-yil may | Hisob-kitoblarga koʻra | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov**<br>Ijtimoiy himoya milliy agentligi<br>**S. Abdullayev,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **75-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish** | | | | | |
| 5. | **Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining** mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish. | Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda, uni amalga oshirishda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining **doimiy komissiyalari ishtirokini ta’minlash.** | 2023-yil dekabr | - | Oliy Majlis Senati<br>*(kelishuv asosida)* |
| 6. | Mahalliy Kengashlarning Oliy Majlis Senati bilan birgalikda **hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi ustidan ta’sirchan nazoratni yo‘lga qo‘yish** hamda mavjud muammolarni hal etish borasidagi faoliyat samaradorligini oshirish. | 1. Oliy Majlis Senati qo‘mitalarining mahalliy Kengashlar **doimiy komissiyalari bilan hamkorlikda sayyor majlislar o‘tkazishini** yo‘lga qo‘yish.<br>2. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining o‘rganilishini hamda **sayyor majlislarda muhokama qilinishini** tashkil etish.<br>3. Hududlardagi **mavjud muammolarni hal etish** bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish. | 2023-yil sentyabr — dekabr | - | Oliy Majlis Senati<br>*(kelishuv asosida),*<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari |
| **76-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish** | | | | | |
| 7. | Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining **institutsional asoslarini takomillashtirish orqali** ularga yuklatilgan ortiqcha vazifa va funksiyalarni maqbullashtirish. | **1.** Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini **tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni** xatlovdan o‘tkazish.<br>**2.** Mahalliy davlat hokimiyati organlarining **takrorlanadigan vazifa va funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish** va | 2023-yil noyabr | - | Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | maqbullashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.<br><br>**3.** Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini **tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish** bo‘yicha takliflarni tayyorlash. | | | |
| **77-maqsad: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish** | | | | | |
| 8. | Fuqarolik holati **dalolatnomalarini yozish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish** tizimini yanada takomillashtirish. | **1.** Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko‘rik natijalarini tibbiyot muassasalari tomonidan **“FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimiga real vaqt rejimida joylashtirish** tartibini yo‘lga qo‘yish.<br><br>**2.** Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari bilan bog‘liq bo‘lgan sud qarorlarini ular qonuniy kuchga kirgan kuni ushbu qarorni qabul qilgan sud organi tomonidan **“FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimiga elektron tizim orqali yuborish** hamda sudda ko‘rib chiqilayotgan dalolatnoma yozuvlarini axborot tizimidan yuklab olish orqali, **qarorlarni o‘zaro bog‘lash tartibini** joriy etish. | 2023-yil sentyabr | - | Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov,**<br>Sog‘liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov,**<br>Oliy sud<br>**B. Islomov** |
| 9. | **“Litsenziya”** axborot tizimini **to‘liq ishga tushirish**. | O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan barcha | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra, ijrochilar mablag‘lari | Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini** “Litsenziya” axborot tizimida ishga tushirishni yakunlash. | | | |
| 10. | **Davlat xizmatlari** va **notarius xizmatlarini** koʻrsatishda **fuqarolarning ortiqcha sansalorligiga** barham berish. | **1.** Notarial idoraga kelmasdan, shu jumladan chet eldan turib **mol-mulkdan foydalanish** bilan bogʻliq bitimlarni **elektron raqamli imzodan foydalanib, videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirishni** yoʻlga qoʻyish.<br><br>**2.** Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qilishida **ariza yozish, turli shakllarni toʻldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish,** davlat idoralari zarur hujjatlarni **elektron bazadan oʻzi oladigan tizim** yaratish. | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga koʻra, ijrochilar mablagʻlari | Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov** |
| 11. | **“Elektron hukumat”** tizimining **yangi bosqichi — “Raqamli hukumat”** tizimiga oʻtish. | “Raqamli hukumat” tizimi doirasida **axborot tizimlari va maʼlumotlar bazalari axborot xavfsizligini oshirish** boʻyicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. Bunda:<br><br>axborot tizimlari va maʼlumotlar bazalarida **axborot xavfsizligi hodisalari monitoringi tizimini joriy etish** orqali axborot xavfsizligini oshirish boʻyicha xalqaro tajribani oʻrganish;<br><br>oʻrganish natijalaridan kelib chiqib, **axborot xavfsizligi hodisalari monitoringi tizimini joriy** | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga koʻra | Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>**Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **etish** bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va joriy etish. | | | |
| **78-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish** | | | | | |
| 12. | Davlat funksiyalarini **xususiy sektorga o‘tkazish orqali** ish jarayonlarini maqbullashtirish. | **1.** Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari kesimida davlat funksiyalarini **xususiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi** loyihasini ishlab chiqish.<br><br>**2.** Davlatning iqtisodiyotdagi rolini tubdan kamaytirish maqsadida **sog‘liqni saqlash, qurilish, transport, ta’lim, qishloq xo‘jaligi** kabi sohalarda **xususiy sektor** ulushini oshirish. | 2023-yil oktyabr | - | Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov**,<br><br>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br><br>**O. Xasanov** |
| **79-maqsad: Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish** | | | | | |
| 13. | Parlament palatalari qo‘mitalari **nazorat-tahlil jarayonlariga** keng jalb etilishini ta’minlash. | Hukumat a’zolarining, davlat organlari rahbarlarining **o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan parlament eshituvlarini o‘tkazish** tartibini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish. | 2023-yil noyabr | - | Oliy Majlis palatalari<br><br>*(kelishuv asosida)* |
| **80-maqsad: Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish** | | | | | |
| 14. | Tadbirkorlik sohasida **qulay shart-sharoitlarni yaratish, tartibga solish yukini kamaytirish** borasidagi ishlarni izchil davom ettirish. | Huquqiy tartibga solishning yangi mexanizmlari, shu jumladan, **“tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini amaliyotda qo‘llash** bo‘yicha ilg‘or xorijiy | 2023-yil dekabr | - | Adliya vazirligi **A. Tashkulov**,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**I. Norqulov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tajribani oʻrganish va tahlillarni oʻtkazish. | | | |
| **81-maqsad: Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish** | | | | | |
| 15. | Davlat fuqarolik xizmatida yagona **kadrlar siyosatini olib borish**, xodimlarni samarali boshqarish va **inson resurslarini rivojlantirish** boʻyicha **umumiy konsepsiya** ishlab chiqish. | **1.** Davlat organlarida inson resurslarini **samarali boshqarish, rejalashtirish va tahlil qilish** boʻyicha **umumiy konsepsiyani** oʻz ichiga olgan namunaviy yoʻriqnoma ishlab chiqish.<br>**2.** Davlat organlari va tashkilotlarining **inson resurslarini boshqarish boʻyicha mas’ul xodimlariga umumiy konsepsiyani tushuntirish** yuzasidan oʻquv seminarlari tashkil qilish. | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga koʻra | Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br>**O. Xasanov,**<br>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev** |
| 16. | Davlat fuqarolik xizmatida **zaxirani shakllantirish va kadrlar bilan ishlash jarayonlarini toʻliq raqamlashtirish,** shu jumladan **“HRM-ARGOSG” elektron platformasini** ishga tushirish. | **1.** Ilgʻor xorijiy davlatlarning samarali tajribalarini oʻrgangan holda davlat organlari va tashkilotlarning inson resursini boshqarish faoliyatini raqamlashtirish boʻyicha **“HRM-ARGOS” elektron platformasini** ishga tushirish.<br>**2.** Davlat organlarini “HRMM-ARGOS” elektron platformasida roʻyxatdan oʻtkazish.<br>**3.** Respublikaning barcha darajadagi davlat organlarining inson resursini rivojlantirish boʻlinmalari xodimlarini “hrm.argos.uz” elektron tizimida ishlash boʻyicha | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga koʻra | Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br>**O. Xasanov,**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o'qitish yuzasidan seminarlar tashkil etish. | | | |
| 17. | Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlarini xolis va adolatli baholash, davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasini tizimli ravishda oshirish va rag'batlantirishni ta'minlovchi **Milliy "Karyera modeli"** elektron platformasini joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | Bunda:<br><br>davlat xizmatiga nomzodlarni tanlashda fuqarolarning kasbiy salohiyati asosida kompetensiyani rivojlantirish uchun teng huquqli bo'lishini ta'minlash;<br><br>nomzodni tanlash, saralash va lavozimda ko'tarish jarayonlarini **to'liq raqamlashtirish** orqali inson omilini keskin kamaytirish;<br><br>xizmatchilar kasbiy kompetensiyasini xolis baholash, uning **"meritokratiya" tamoyili** asosida **karyeraviy o'sishini** monitoring qilish tizimini joriy etish;<br><br>jamoada anonim tarzda o'tkaziladigan **"360 darajali so'rovnoma"** kabi komp�tensiya va axloqiy fazilatlarni aniqlashning zamonaviy usullarini joriy etish;<br><br>davlat xizmatchilarining malakasini uzluksiz oshirish maqsadida ta'lim muassasalari va davlat organlari faoliyatini platformada integratsiyalash nazarda tutiladi. | 2023-yil dekabr | - | Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br><br>**N. Maksumov,**<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>**Sh. Shermatov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**O. Fozilkarimov,**<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov** |
| **82-maqsad: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 18. | Davlat organlari va tashkilotlarida **murojaatlar bilan ishlash jarayonlarini raqamlashtirish** darajasini yangi bosqichga olib chiqish, mansabdor shaxslar qabuliga **elektron navbatga yozilish va onlayn maslahat olish** imkoniyatini yaratish. | **1.** Barcha davlat organlarida **murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va ko'rib chiqish natijalarini nazorat qilish** bilan bog'liq jarayonlarni bir platformada birlashtirish imkoniyatini beruvchi **Murojaatlar bilan ishlash yagona onlayn platformasini** ishga tushirish.<br><br>**2.** Davlat organlari va tashkilotlariga **Murojaatlar bilan ishlash yagona onlayn platformasi veb-sayti va "Xalq bilan muloqot" mobil ilovasi** orqali murojaatlarni tunu kun elektron shaklda yuborish imkoniyatini ta'minlash.<br><br>**3.** Davlat organlari va tashkilotlarida Murojaatlar bilan ishlash yagona onlayn platformasi orqali **murojaatlar bilan ishlash tartibini** belgilash.<br><br>**4.** Davlat organlari va tashkilotlarida **murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish amaliyotini tugatish**.<br><br>**5.** Davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslarining **fuqarolarni qabul qilish jadvallarini Murojaatlar bilan ishlash yagona onlayn platformasida yuritilishini ta'minlash**, mansabdor shaxslar qabuliga elektron | 2023-yil noyabr | - | Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov,**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | navbatga yozilish tartibini joriy etish. | | | |
| | | **6.** Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari orqali kelib tushgan murojaatlarning Murojaatlar bilan ishlash yagona onlayn platformasida **avtomatik roʻyxatdan oʻtkazilishini** taʼminlash. | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga koʻra | |
| **83-maqsad: Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, Oʻzbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha xabga aylantirish** | | | | | |
| 19. | Fuqarolik jamiyati institutlarini **davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning shaffof tizimi**ni yaratish. | Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning amaldagi tartibini takomillashtirish. Bunda:<br>davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalarining ustuvor yoʻnalishlarini **keng jamoatchilikning toʻgʻridan-toʻgʻri taklif va mulohazalari** asosida shakllantirish;<br>ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha va dasturlarni moliyalashtirish va baholash jarayonlarining **jamoatchilikka oshkoraligini taʼminlash** orqali **shaffof va sogʻlom raqobat muhiti**ni yaratish;<br>davlat koʻmagida amalga oshirilgan loyiha va dasturlarning natijalari yuzasidan **jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni oshirish, samaradorlikni baholash** nazarda tutiladi. | 2023-2024-yillar | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablagʻlari hamda qonun hujjatlar bilan taqiqlanmagan boshqa mablagʻlar | Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi<br>*(kelishuv asosida),*<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **4.2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar**<br>*(Mas'ullar — B. Islamov, N. Yo'ldoshev, A. Azizov, P. Bobojonov)* | | | | | |
| **84-maqsad: Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish** | | | | | |
| 20. | Tergov hibsxonalarini ayblanuvchi va sudlanuvchini to'liq kuzatish imkonini beruvchi videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash. | Videokuzatuv tizimlari bilan jihozlanmagan tergov hibsxonalarida ayblanuvchi va sudlanuvchilarni ushlab turishni taqiqlash. | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga asosan | Ichki ishlar vazirligi<br>**P. Bobojonov,**<br>Inson huquqlari bo'yicha vakil<br>**F. Eshmatova** |
| **85-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish** | | | | | |
| 21. | Nizolarni muqobil hal etishda **mediatsiya institutini rivojlantirish** orqali fuqarolarning buzilgan huquqlarini soddalashtirilgan tartibda himoya qilish. | **1.** Mediatsiya qo'llaniladigan sohalar doirasini kengaytirish.<br>**2.** Mediatorga doir talablarni qayta ko'rib chiqish.<br>**3.** Hakamlik sudlari faoliyati hamda hakamlik muhokamasini xalqaro standartlarga moslashtirish. | 2023-yil noyabr | - | Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov,**<br>Oliy sud<br>**B. Islamov** |
| **86-maqsad: Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish** | | | | | |
| 22. | Sudning jamoatchilik bilan muloqot qilish samaradorligini oshirish, shu jumladan aholi o'rtasida keng muhokamaga sabab bo'lgan sud qarorlari yuzasidan brifinglar o'tkazish va boshqa shakldagi tushuntirish | **1.** Sud raislarining sudning fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlarini sud orqali himoya qilishga doir faoliyati to'g'risida OAV orqali brifinglarda axborot taqdim etishlarini joriy qilish.<br>**2.** Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan interaktiv | 2023-yil dekabr | - | Oliy sud<br>**B. Islamov,**<br>Sudyalar oliy kengashi<br>**X. Yodgorov,**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ishlarini yoʻlga qoʻyish. | elektron xizmatlar turlarini kengaytirish, har bir murojaatni koʻrib chiqish jarayoni onlayn kuzatib borilishini taʼminlash, sud binolarida interaktiv xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish. | | | |
| **87-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yoʻnaltirish** | | | | | |
| 23. | Jinoyat haqidagi xabarlar boʻyicha **yagona elektron reyestrni** yaratish. | Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga kelib tushadigan jinoyat haqidagi har qanday xabarlar boʻyicha **yagona elektron reyestr** yaratish va bunda, jinoyat ishi qoʻzgʻatilishidan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilganiga qadar boʻlgan jarayonni **individual raqam** va **QR kodi orqali kuzatib borish** imkoniyatini taʼminlash dasturi boʻyicha texnik topshiriqlarni ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga koʻra ijrochilar mablagʻlari hisobidan | Ichki ishlar vazirligi<br>**P. Bobojonov,**<br>Davlat xavfsizlik xizmati<br>**A. Azizov,**<br>Bosh prokuratura<br>**N. Yoʻldoshev,**<br>Oliy sud<br>**B. Islamov**,<br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br>**Sh. Shermatov** |
| **88-maqsad: Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam koʻrsatish tizimini rivojlantirish** | | | | | |
| 24. | Advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish. | **1.** Advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlarini tahlil etgan holda takliflar ishlab chiqish.<br>**2.** Advokatlar malakasini oshirishni takomillashtirish boʻyicha xorijiy tajribani oʻrganish.<br>**3.** Oʻrganilgan tahliliy maʼlumotlar asosida Advokatlar malakasini | 2023-yil sentyabr | - | Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov,**<br>Advokatlar palatasi<br>*(kelishuv asosida)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | oshirishning zamonaviy, uzluksiz va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish. | | | |
| **89-maqsad: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish** | | | | | |
| 25. | Aholi, ayniqsa yoshlar oʻrtasida korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasizlik madaniyatini shakllantirish, korrupsiyadan xoli jamiyat yoʻlida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni keng ommaga yetkazish borasida samarali targʻibot ishlarini tashkil qilish. | **1.** Respublika miqyosida umumiy oʻrta maktab taʼlim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish haftaliklarini tashkil etish.<br>**2.** Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha barcha oliy taʼlim muassasalarida talabalar ishtirokida tadbirlar tashkil etish.<br>**3.** Respublika oliy taʼlim muassasalarida Aksilkorrupsiya kovorking markazlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish. | Doimiy | - | Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi<br>**X. Umarova**,<br>Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov**,<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br>**A. Burxanov** |
| 26. | **Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini** yanada takomillashtirish. | 1. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi hamda hududiy kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish.<br>2. Joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini oʻrganish hamda korrupsiya koʻrinishlari namoyon boʻlishig� olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati toʻgʻrisida Milliy kengashga takliflar kiritish. | 2023-yil noyabr<br>2023-yil noyabr | - | Oliy Majlis Senati<br>*(kelishuv asosida)*,<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br>**A.Burxanov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Milliy kengash majlislarida vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborotlarini tizimli eshitib borish. | Har chorakda | | |

*(4-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi PF-216-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son — 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
4a-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan**

MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR

| T/r | Maqsadli ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| **4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar** | | | | |
| **74-maqsad: Aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish** | | | | |
| 1. | Mahallalarda **100 dan ortiq** davlat xizmatlarini “bir qadam”da ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish. | ta | - | **15** |
| 2. | Aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag‘larni yiliga **24 trillion so‘mga** yetkazish. | trln so‘m | **4** | **12** |
| **75-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish** | | | | |
| 3. | Mahalliy Kengashlarning **300** dan ortiq funksiyalarini qayta ko‘rib chiqib, ular faoliyatiga xos bo‘lmaganlarini bekor qilish. | ta funksiya | **300** | - |
| 4. | Mahalliy Kengashlar faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish. | ta | **500** | - |
| **76-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish** | | | | |
| 5. | Hokimliklar va vazirliklar bo‘linmalarining bir-birini takrorlovchi **70 dan ortiq** funksiyalarini optimallashtirish. | ta | **20** | **30** |
| 6. | Hokimliklarga yuklatilgan **500 dan ortiq** vazifa orasidan ular faoliyatiga xos bo‘lmaganlarini bekor qilish. | ta | **80** | **80** |
| 7. | Hokimliklar faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish. | ta | **500** | - |
| **77-maqsad: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish** | | | | |
| 8. | Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini **100 foizgacha** yetkazish. | foiz | **10** | **20** |
| 9. | Faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar ulushini **50 foizgacha** yetkazish. | foiz | **5** | **10** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Kompozit va proaktiv tarzda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini kamida **40** taga oshirish. | ta | **5** | **10** |
| 11. | Kamida **300 ta** davlat xizmatlarini xususiy sektorga o‘tkazish. | ta | - | **20** |
| 12. | Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini kamida **20 foizga** qisqartirish. | foiz | - | **5** |
| 13. | Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarining **50 foizi**ni soddalashtirish. | foiz | - | **10** |
| 14. | **300 ta**ga yaqin davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish. | ta | **15** | **25** |
| **78-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish** | | | | |
| 15. | Sog‘liqni saqlash, qurilish, transport, ta’lim, qishloq xo‘jaligi sohalarida xususiy sektor ulushini kamida **3 barobar** oshirish. | barobar | - | **1** |
| 16. | Davlat boshqaruvida mavjud bo‘lgan **5 mingga** yaqin funksiyani amalga oshirish jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish. | ta | - | **500** |
| 17. | **Majburiy talablar yagona elektron reyestri**ga kiritilgan majburiy talablarni kamida **20 foizga** kamaytirish. | foiz | - | **5** |
| **79-maqsad: Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish** | | | | |
| 18. | Qonun loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish hajmini **kamida 2 baravarga oshirish**. | barobar | - | **0,5** |
| 19. | Parlament va uning organlari ish jarayonlarini **to‘liq** raqamlashtirish. | foiz | - | **20** |
| 20. | Saylovchilar bilan elektron muloqot qilish, deputat so‘rovini elektron tarzda yuborish va nazorat qilish imkoniyatini ta’minlash. | foiz | - | **100** |
| **80-maqsad: Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish** | | | | |
| 21. | Qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida ular sonini **30 foizga** qisqartirish. | foiz | - | **10** |
| 22. | Umumiy tusdagi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonunlarning ulushini kamida **60 foizga** yetkazish. | foiz | - | **5** |
| **81-maqsad: Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish** | | | | |
| 23. | Davlat fuqarolik xizmati tizimi bilan **70 dan ziyod** davlat organlari qamrab olinishini ta’minlash. | ta | - | **70** |
| 24. | Milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida **1000 nafar**ga yetkazish. | nafar | **200** | **500** |
| 25. | Har yili kamida **30 ming nafar** davlat fuqarolik xizmatchilari malakasini oshirish. | nafar | - | **10 ming** |
| 26. | Kadrlar bilan ishlash bo‘yicha **2 mingdan ortiq** tarkibiy tuzilmalar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish. | ta | **200** | **300** |
| **82-maqsad: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish** | | | | |
| 27. | Davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog‘oz shaklida ro‘yxatga olish amaliyotini **to‘liq** bekor qilish. | foiz | - | **100** |
| 28. | **Barcha davlat organlari va tashkilotlari** hamda ularning hududiy bo‘linmalariga elektron shaklda, shu jumladan tegishli **mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini** yaratish. | foiz | - | **100** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 29. | Murojaatlarning kamida **80 foizi** mahalliy darajada qanoatlantirilishini ta’minlash. | foiz | **50** | **80** |
| 30. | Takroriy murojaatlar ulushini kamida **2 barobar** qisqartirish. | barobar | - | - |
| **83-maqsad: Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish** | | | | |
| 31. | Ijtimoiy sheriklikda amalga oshiriladigan loyihalar sonini kamida **3 barobarga** ko‘paytirish. | barobar | - | **1** |
| 32. | Davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini **kamida 80 taga** yetkazish. | ta | - | **20** |
| 33. | Kamida **500 nafar** nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. | barobar | - | **100** |
| **4.2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish** | | | | |
| **84-maqsad: Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish** | | | | |
| 34. | Sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni **masofadan turib amalga oshirish** imkoniyatlarini kamida **2 barobarga** oshirish. | barobar | - | **0,8** |
| 35. | Aholi punktlarida ikki va undan ortiq polosali tartibga solinmagan piyodalar o‘tish yo‘laklarini svetoforlar bilan to‘liq jihozlash. | foiz | - | **30 foizgacha** |
| **85-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma’muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish** | | | | |
| 36. | Sudga qadar bosqichda hal etilgan nizolar sonini **50 foizga** oshirish. | foiz | - | **15** |
| **86-maqsad: Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish** | | | | |
| 37. | Jahon odil sudlov loyihasining **Huquq ustuvorligi indeksi** bo‘yicha **0,64 ball** to‘plashga erishish. | ball | **52** | **53** |
| 38. | Boshqaruv sifati indikatorlarining **Huquq ustuvorligi yo‘nalishi** bo‘yicha **61,5 ball** to‘plashga erishish. | ball | **40** | **41** |
| **87-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish** | | | | |
| 39. | Jiddiy oqibatlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini kamida **50 foizga kamaytirishga erishish**. | foiz | - | **10** |
| **88-maqsad: Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish** | | | | |
| 40. | Advokatlar sonini kamida **2000 nafarga** ko‘paytirishga erishish. | nafar | **300** | **500** |
| **89-maqsad: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish** | | | | |
| 41. | “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida **50 pog‘onaga** ko‘tarilishga erishish. | pog‘ona | **7** | **7** |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
4b-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari**

RO‘YXATI

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi nomi | Asosiy mazmuni | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **IV. QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASh, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOShQARUVINI TAShKIL ETISh** | | | | |
| **4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar**<br>*(Mas’ullar — A. Aripov, J. Qo‘chqorov, A. Ramatov)* | | | | |
| **74-maqsad: Aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish** | | | | |
| 1. | Mahalla faoliyatining **moliyaviy va tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada kuchaytirishni** nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. | **1.** Har bir mahallada **“Mahalla budjeti” tizimini** joriy etish, aholining mol-mulk va yer soliqlarini mahallaning o‘zida qoldirish amaliyotini yo‘lga qo‘yib, ularni mahalla raisi tomonidan **infratuzilma va ijtimoiy masalalarni hal qilish, tadbirkorlik uchun sharoitni yaxshilash** kabi masalalarga yo‘naltirish tartibini belgilash.<br>**2.** Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **ishsiz aholini obodonlashtirish va mavsumiy ishlarga jalb etish, ularga haq to‘lash** vakolatini mahalla raisiga berish. Shuningdek:<br>tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari vakant o‘rinlar haqidagi ma’lumotlarni mahallaga taqdim etib borishi;<br>mahalla raisi mahalladagi ishsiz fuqarolarni bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirishi nazarda tutiladi.<br>**3.** Mahallalarga tegishli hududdagi tuman (shahar) mahalliy Kengashlari sessiyalari **kun tartibiga ko‘rib chiqish uchun taklif kiritish**, tuman (shahar) mahalliy Kengashlarining **qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish** huquqini t�qdim etish.<br>**4.** Fuqarolar ishonchini qozonmagan mahalla raislariga aholi tomonidan **“rais vakolatini muddatidan ilgari tugatish bo‘yicha taklif kiritish”** tartibini joriy qilish.<br>**5.** Mahalla raisi faoliyati kafolatlarini ta’minlash doirasida mahalla raislari faoliyatiga **asossiz aralashish** va unga **taalluqli bo‘lmagan vazifalarni yuklaganlik uchun javobgarlikni** belgilash. | 2023-yil noyabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Xaydarov,** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **B. Musayev,** Ijtimoiy himoya milliy agentligi **S. Abdullayev** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **6.** Mahalla raislariga hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektorlari, mahallaga biriktirilgan tuman (shahar) soliq inspektorlari, ijtimoiy xodimlarni **rag‘batlantirish**, zarur bo‘lganda **chora ko‘rish bo‘yicha taklif kiritish** vakolatini berish. | | |
| 2. | Mahalla raislarini **saylashning mexanizmlari**ni takomillashtirish bo‘yicha qonun loyihasi. | **1.** Mahalla raisi lavozimiga **nomzodlar ko‘rsatishning** yangi tartibini joriy qilish.<br>**2.** Mahalla raisining **vakolat muddatini 5 yilga uzaytirish**, aholi oldidagi hisobdorligini oshirish. | 2023-yil noyabr | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **B. Musayev** |
| **75-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish** | | | | |
| 3. | Hududlarda muammolarni hal etishda **ijro organlari ustidan mahalliy Kengashlar va ular deputatlarining vakillik nazoratini** kuchaytirish bo‘yicha qonun loyihasi. | **1.** Mahalliy Kengashlarning **nazorat funksiyalarini kengaytirish,** ularni tizimlashtirish maqsadida **“Xalq deputatlari Kengashlari nazorati to‘g‘risida”gi** qonun loyihasini ishlab chiqish.<br>**2.** Mahalliy Kengashlarning Nazorat tadbirlarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini, **“Kengash deputati murojaati”**, **“Kengash so‘rovi”** va **“Kengash tekshiruvi”** kabi ta’sirchan institutlarni joriy etish hisobiga kengaytirish. | 2023-yil dekabr | Oliy Majlis Senati *(kelishuv asosida)*, Adliya vazirligi **A. Tashkulov,** Davlat boshqaruvi akademiyasi **A. Bekmurodov** |
| 4. | Oliy Majlis Senatining **mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga ko‘maklashish sohasidagi** faoliyat samaradorligini oshirish. | **1.** Oliy Majlis Senatining Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasi negizida **Hududiy rivojlanish va mahalliy davlat hokimi�ti vakillik organlari bilan hamkorlik qilish masalalari qo‘mitasi** va **Senat devonida “Hududiy vakillik organlarini o‘rganish markazi”ni** tashkil etish.<br>**2.** Tashkil etilgan qo‘mita va Markazning **mahalliy Kengashlar bilan samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yishga** qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash. | 2023-yil sentyabr | Oliy Majlis Senati *(kelishuv asosida)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari |
| **76-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish** | | | | |
| 5. | Yangi konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda **hududlarda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi** hamda **o‘zaro tiyib** | **“Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida”**gi qonun loyihasini ishlab chiqish va unda quyidagilarni nazarda tutish:<br>hokimlarning mahalliy **Kengashlar oldidagi hisobdorligini oshirish;** | 2023-yil dekabr | Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **turish va manfaatlar muvozanati tizimining** qonuniy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qonun loyihasi. | hokimlar lavozimga tayinlanayotganda **aholi muammolarini hal etish va hududni rivojlantirish** bo‘yicha o‘z dasturini taqdim etishi amaliyotini yo‘lga qo‘yish;<br>hokimlarni **muddatidan oldin lavozimidan ozod** etishning huquqiy asoslarini yaratish;<br>hokimlarning **mahalliy Kengashga rahbarlik qilish** amaliyotini bekor qilib, Kengash **raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari** hamda javobgarlik doirasini aniq belgilash;<br>joylarda hokimiyatlar **bo‘linishi prinsipi** hamda **o‘zaro tiyib turish** va **manfaatlar muvozanatini** ta’minlash**;**<br>hududlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda, **viloyat, tuman va shaharlar darajasidagi mahalliy Kengashlarning javobgarlik doirasini belgilab**, vakolatlarini kengaytirish orqali **hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni** kuchaytirish;<br>mahalliy Kengashlarning mahallalar, **xalq qabulxonalari, hokimliklar va Oliy Majlis Senati bilan o‘zaro aloqalarini** qayta ko‘rib chiqib, yangi mexanizmlarni joriy qilish;<br>mahalliy Kengashlar huzuridagi organlar, shu jumladan **doimiy komissiyalar va partiya guruhlarining** faoliyatini takomillashtirish;<br>**mahalliy Kengashlarning kotibiyatlari** faoliyati samaradorligini yanada oshirish, ularda **kadrlar salohiyatini** kuchaytirish;<br>mahalla aholisi tomonidan **har chorakda qonunchilikda belgilangan mas’ullarning hisobotlarini eshitish tartibining** amalda ta’minlanishi ustidan **xalq deputatlari mahalliy Kengashlari nazorati institutini** joriy etish. | | |
| **77-maqsad: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish** | | | | |
| 6. | **“Biznesga litsenziyasiz kirish” (Zero Licensing) rejimini** joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi | Ayrim faoliyat turlari bo‘yicha litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olmasdan **tegishli faoliyatni boshlash amaliyotini** yo‘lga qo‘yish.<br>3 oylik **“o‘tish va moslashish davri”**ni belgilash. | 2023-yil oktyabr | Adliya vazirligi **A. Tashkulov,** Savdo-sanoat palatasi **D. Vaxobov**, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Prezidenti qarori loyihasi. | | | Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| **78-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish** | | | | |
| 7. | Jamoatchilik oldida **davlat organlari rahbarlari mas’uliyatini** yanada oshirish bo‘yicha qonun loyihasi. | Davlat hokimiyatida siyosiy lavozimni egallovchi shaxslarning qarorlari va harakatlari oqibatlari yuzasidan ularning **siyosiy javobgarligi institutini** joriy qilish.<br>Bunda, davlat organi rahbariga nisbatan, o‘zi rahbarlik qilayotgan **idora yoki tizim faoliyatida jiddiy xato va kamchiliklarga yo‘l** qo‘yilganda, **ishonchsizlik bildirish** yoki uning **lavozimidan o‘z xohishi bilan iste’foga chiqishi** tartibini ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | Adliya vazirligi **A. Tashkulov**, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi **O. Xasanov**, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi **A. Burxanov**, Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| 8. | **Davlatning nazorat funksiyalarini tubdan qayta ko‘rib chiqib**, ularni **amalga oshirish mexanizmlarini** takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. | **1.** Davlatning nazorat funksiyalarini **amalga oshirishning aniq mexanizmlarini** belgilash.<br>**2.** Davlatning nazoratni **raqamlashtirish, tahlika-tahlil usullarini qo‘llash** amaliyotini kengaytirish.<br>**3. Davlat nazoratini amalga oshirishda xususiy sektor�ing va jamoatchilikning faol** ishtirokini ta’minlashning **qonuniy asoslarini** ishlab chiqish.<br>**4.** Davlat nazoratini amalga oshirishda **ochiqlik tamoyilini kengaytirish, tadbirkorlar va fuqarolar manfaatlari** bo‘yicha muvozanatni ta’minlash. | 2023-yil dekabr | Strategik islohotlar agentligi **A. Musayev**, Adliya vazirligi **A. Tashkulov,** Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi **O. Xasanov** |
| **79-maqsad: Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish** | | | | |
| 9. | Oliy Majlis palatalari faoliyatiga oid **qonunchilikni takomillashtirish**, ularning faoliyatini **yangi konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillar asosida** tashkil etish bo‘yicha qonun loyihasi. | Oliy Majlis palatalari faoliyatiga oid qonunchilikni **yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablaridan kelib chiqib takomillashtirish**. | 2023-yil sentyabr | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati *(kelishuv asosida)* |
| 10. | Qonun ijodkorligi **samaradorligini yanada oshirish,** mazkur jarayonda **jamoatchilik** | Qonun ijodkorligi jarayonining samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning ushbu jarayondagi faol ishtirokining huquqiy asoslarini yaratish maqsadida **fuqarolarning qonunchilik** | 2023-yil oktyabr | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati *(kel�shuv asosida)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **ishtirokini** yanada kuchaytirish bo‘yicha qonun loyihasi. | **taklifi institutini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilashga qaratilgan** qonun loyihasini ishlab chiqish. | | |
| 11. | Siyosiy partiyalar rolini oshirish, ular o‘z kuchi va imkoniyatlarini amalda to‘la namoyon etishi uchun vakillik organlariga saylovni aralash, ya’ni **majoritar-proporsional tizim** asosida tashkil etish bo‘yicha qonun loyihasi. | Vakillik organlariga nomzodlarni **proporsional-majoritar tizim asosida saylash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.**<br>Unga muvofiq deputatlarning bir qismini **partiyalar ro‘yxati asosida**, qolgan qismini **aholi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash** tartibi joriy etiladi. | 2023-yil oktyabr | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi *(kelishuv asosida)* |
| **80-maqsad: Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish** | | | | |
| 12. | Tadbirkorlik sohasida **qulay shart-sharoitlarni yaratish, tartibga solish yukini kamaytirish** borasidagi ishlarni izchil davom ettirish bo‘yicha qonun loyihasi. | Maxsus huquqiy rejim joriy etilgan loyihalar tahlili natijalari bo‘yicha **“Maxsus huquqiy rejim to‘g‘risida”gi qonun** loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil dekabr | Adliya vazirligi **A. Tashkulov**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **I. Norqulov** |
| **81-maqsad: Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish** | | | | |
| 13. | “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan **davlat fuqarolik xizmati tizimini to‘liq ishga tushirish** bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. | Loyihada:<br>davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan **davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxati**;<br>davlat fuqarolik xizmati **lavozimlarining davlat reyestri**;<br>vakant lavozimlar bo‘yicha **tanlov o‘tkazish tartibi** to‘g‘risidagi nizom;<br>**milliy kadrlar zaxirasini** shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom. | 2023-yil dekabr | Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi **O. Xasanov,** Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| **82-maqsad: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini** | | | | |
| 14. | **“Hukumat kuni”ni o‘tkazib borish amaliyotini** yo‘lga qo‘yish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi | **1. “Hukumat kuni”**ni hududlar kesimida o‘tkazish bo‘yicha reja-grafikni va unda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar ro‘yxatini tasdiqlash.<br>**2. “Hukumat kuni”** doirasida muhokama qilinadigan muammolarni tahlil qilish va uni Hukumat a’zolariga | 2023-yil sentyabr | Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Prezidenti qarori loyihasi. | o'rganish uchun yetkazish bo'yicha sohalar kesimidagi doimiy ishchi guruhlarni shakllantirish.<br>**3. "Hukumat kuni"**ni o'tkazish tartibini tasdiqlash. | | |
| **4.2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar**<br>*(Mas'ullar — B. Islamov, N. Yo'ldoshev, A. Azizov, P. Bobojonov)* | | | | |
| **84-maqsad: Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish** | | | | |
| 15. | Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar faoliyatida xolislikni ta'minlash maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasini **alohida sudyalar** tomonidan ko'rib chiqish tartibini joriy etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. | Quyidagilarni nazarda tutish:<br>**tergov sudyasi institutini joriy etish**;<br>ushbu sudyalar **sudga qadar ish yuritish bosqichida** protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasini ko'rib chiqishini belgilash. | 2023-yil dekabr | Oliy sud **B. Islamov**, Bosh prokuratura **N. Yo'ldoshev**, Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov**, Davlat xavfsizlik xizmati **A. Azizov**, Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| 16. | Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan **huquqiy ta'sir choralarini qayta ko'rib chiqish** va ularning huquqlarini **himoya qilish ishlari samaradorligini oshirish** bo'yicha qonun loyihasi. | Quyidagilarni nazarda tutish:<br>birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u **sud maslahatxonaga kirgunga qadar** soliqlar va yig'imlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilish;<br>tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'zg'atilgan **jinoyat ishi bo'yicha** tergov-sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs jinoyat ishi materiallarini ish yurituviga qabul qilgan vaqtdan boshlab tadbirkorni himoya qilishga Biznes ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, shuningdek, tadbirkorlik subyekti a'zo hisoblangan boshqa tashkilotni **jamoat himoyachisi sifatida jalb etishni** belgilash. | 2023-yil noyabr | Bosh prokuratura **N. Yo'ldoshev**, Oliy sud **B. Islamov**, Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov**, Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| **85-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 17. | Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha **preventiv mexanizmlarni** takomillashtirishga oid qonun loyihasi. | Jinoyat-ijroiya qonunchiligini qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmlarni nazarda tutuvchi quyidagi normalar bilan to‘ldirish:<br>milliy preventiv mexanizm ishtirokchilari, ularning vakolatlari, huquq va majburiyatlari;<br>jazoni ijro etish muassasalariga monitoring tashriflari turlari va davriyligi;<br>monitoring tashriflarini o‘tkazish tartibi;<br>monitoring tashriflari yakunlari bo‘yicha tavsiyalar berish;<br>monitoring tashriflari natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligi va ulardan foydalanish tartibi. | 2023-yil noyabr | Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz **A. Saidov** Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) **F. Eshmatova,** Bosh prokuratura **N. Yo‘ldoshev,** Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov** |
| **86-maqsad: Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish** | | | | |
| 18. | Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashda **sudyalar hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish,** ushbu organlarning to‘laqonli tizimini shakllantirish, **sud tizimini boshqarishga sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini** keng joriy etish bo‘yicha qonun loyihasi. | **1. “O‘zbekiston Respublikasida sudyalar hamjamiyati organlari to‘g‘risida”**gi Qonunni qabul qilish.<br>**2.** Sudyalar oliy malaka hay’ati hamda sudyalarning malaka hay’atlari tarkibiga **tegishli sudlar raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylamaslik**, bir shaxsni **ikki muddatdan ortiq malaka hay’ati raisi** va uning o‘rinbosari lavozimiga **saylamaslik**, malaka hay’ati **kotibini sudyalar konferensiyasida saylash** tartibini joriy qilish. | 2023-yil noyabr | Sudyalar oliy kengashi **X. Yodgorov,** Oliy sud **B. Islamov,** Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| 19. | **Sud-tergov jarayonida** ishtirokchilarning huquq va erkinliklarini **zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** yutuqlaridan foydalangan holda samarali himoya | **Elektron (raqamli) dalil tushunchasi**, elektron dalillarni **aniqlash, to‘plash, taqdim qilish, tekshirish, baho berish, qayd etish**, **saqlash tartiblari** va bu jarayonda protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilash. | 2023-yil sentyabr | Oliy sud **B. Islamov,** Bosh prokuratura **N. Yo‘ldoshev,** Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | qilishni ta’minlash bo‘yicha qonun loyihasi. | | | |
| **87-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish** | | | | |
| 20. | Foto va video qayd etish dasturlari orqali qayd etilgan **ma’muriy huquqbuzarliklarni rasmiylashtirish tartibini** takomillashtirish bo‘yicha qonun loyihasi. | Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda **foto va video qayd etish dasturlari orqali qayd etilgan holat muayyan qisqa muddat davomida qaror qabul qilinmagan** taqdirda huquqiy oqibatini yo‘qotishini belgilash. | 2023-yil noyabr | Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov** |
| 21. | Transport vositasida yo‘l-harakati **qoidalarini buzganlik holatlarini aniqlash tartibini** takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi. | Transport vositasi mulkdorining transport vositasini boshqarish huquqi o‘tkazilgan shaxs bilan **birgalikdag� murojaatiga** ko‘ra vakolatli organ tomonidan **huquqbuzarliklarni qayd etish tizimiga** tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda ushbu transport vositasida sodir etilgan **yo‘l harakati qoidalari buzilganligi uchun boshqarish huquqi o‘tkazilgan shaxsga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani rasmiylashtirish** tartibini joriy etish. | 2023-yil noyabr | Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov,** Oliy sud **B. Islamov,** Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| 22. | Sudga qadar ish yuritishning barcha bosqichida **shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish** bo‘yicha qonun loyihasi. | **1.** Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning **protsessual maqomini aniqlashtirish**, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash.<br>**2.** Tergovga qadar tekshiruv bosqichida **ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga ruxsat berish**. | 2023-yil dekabr | Bosh prokuror **N. Yo‘ldoshev,** Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov** |
| 23. | **Axborotlashtirish qoidalarini buzganlik** uchun **javobgarlik choralarini kuchaytirish** bo‘yicha qonun loyihasi. | Axborotlashtirish va kiberxavfsizlik obyekti, shu jumladan muhim **axborot infratuzilmasi obyektlari kiberhimoyasini ta’minlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarga va qonunbuzilishi holatlariga nisbatan** javobgarlik normalarini ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | Kiberxavfsizlik markazi, Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov,** Bosh prokuratura **N. Yo‘ldoshev,** Davlat xavfsizlik xizmati **A. Azizov** |
| **88-maqsad: Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish** | | | | |
| 24. | Advokatura faoliyatiga oid | Advokatura institutini **o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish** va uning | 2023-yil oktyabr | Adliya vazir�igi **A. Tashkulov,** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonunni ishlab chiqish** bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. | **davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini** ta’minlash, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining **advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini** kuchaytirish. | | Advokatlar palatasi *(kelishuv asosida)* |
| **89-maqsad: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish** | | | | |
| 25. | Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yganlik uchun **javobgarlikni kuchaytirish** bo‘yicha qonun loyihasi. | Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzganlik va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish. | *2023-yil dekabr* | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi **A. Burxanov,** Adliya vazirligi **A. Tashkulov,** Bosh prokuratura **N. Yo‘ldoshev** |

*Izoh: mazkur ro‘yxatda keltirilmagan maqsadlar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2024 va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan dasturlarda nazarda tutiladi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
5-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan**

AMALIY TADBIRLAR REJASI

| T/r | Vazifa | Amaliy chora-tadbir | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **V. “XAVFSIZ VA TINChLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZChIL DAVOM ETTIRISh** | | | | | |
| **5.1. Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha islohotlar** *(Mas’ul — J. Xodjayev)* | | | | | |
| **90-maqsad: Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish** | | | | | |
| 1. | Dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol tashqi siyosat va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini olib borishni izchil davom ettirish. | **1.** O‘zbekistonning manfaatlarini ilgari surish va himoya qilishni tashqi siyosatning ustuvor vazifasi sifatida ta’minlash, yangi xalqaro tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirish; | Doimiy | - | Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Kudratov** |
| | | **2.** Xalqaro hamda mintaqaviy | 2023-yil dekabr | - | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | muammolarni hal qilishda ochiqlik asosida ko‘� tomonlama yondashuvni amalga oshirish, shuningdek, zamonaviy talablardan kelib chiqib mazkur maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlovchi asosiy mexanizmlarni takomillashtirish. | | | |
| | | **3.** Yetakchi hamkor davlatlar bilan birgalikda O‘zbekiston tashqi siyosatining mintaqalar kesimidagi Strategiyasini ishlab chiqish. | Kelishuv asosida | - | |
| 2. | Hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o‘rnatish. | **1.** O‘zbekiston Respublikasining yetakchi hamkor davlatlar bilan keng qamrovli va strategik hamkorligi doirasida xalqaro munosabatlardagi va maydondagi global masalalar bo‘yicha o‘zaro harakatlarini samarali muvofiqlashtirish; | Doimiy | - | Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |
| | | **2.** O‘zbekiston Respublikasining tashabbuslarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari sifatida qabul qilishni tashkil etish; | Doimiy | - | |
| | | **3.** O‘zbekiston Respublikasining tashabbuslari va xalqaro darajadagi dasturlari yetakchi xalqaro tashkilotlar hamda hamkor davlatlar bilan birgalikda qabul qilinishini ta’minlash; | Doimiy | - | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **4.** O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlardagi o‘rni va nufuzini oshirish; | Doimiy | - | |
| | | **5.** O‘zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan istiqbolli hamkorlik yo‘nalishlarini kengaytirish. | Doimiy | - | |
| 3. | Bugungi kunda turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlardan kelib chiqib **xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini** yaxshilash. | **1.** Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish. | 2023-yil noyabr | | Oliy Majlis Senati *(kelishuv asosida)*, Adliya vazirligi **A. Tashkulov** |
| | | **2.** Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha Respublika kengashi yig‘ilishlarida vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborotlarini tizimli eshitib borish. | Har chorakda | | |
| | | **3.** O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy sohalarga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | | |
| **91-maqsad: Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | |
| 4. | Mintaqada turli ustuvor yo‘nalishlar, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan | **1.** Markaziy Osiyoda o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish bo‘yicha tashqi ishlar vazirlari doirasida | Doimiy | - | Vazirlar Mahkamasi **J. Xodjayev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish. | doimiy muloqotlarni tashkil etish; | | | |
| | | **2.** O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha yuqori darajadagi maslahatlashuv jarayonini jadallashtirish. | Doimiy | - | |
| | | **3.** Yetakchi xorijiy davlatlar ishtirokidagi "Markaziy Osiyo plyus" formatlaridagi sammitlarda faol ishtirok etish, ularning yakuni bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish. | Kelishuv asosida | - | |
| **92-maqsad: An'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish** | | | | | |
| 5. | MDH mamlakatlari bilan an'anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklik aloqalarini bundan buyon ham samarali kengaytirib borish. | **1.** Muhim eksport bozorlari sifatida savdo rejimlarini yanada erkinlashtirish hamda davlatlar o'rtasida sanoat va agrar sohalarda kooperatsiyani jadal rivojlantirib borish. | Doimiy | - | Vazirlar Mahkamasi **J. Xodjayev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Kudratov** |
| | | **2.** O'zbekiston Respublikasiga MDH hukumat rahbarlarining tashriflari doirasida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga oid "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash. | Doimiy | - | |
| 6. | Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va | **1.** O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida **kengaytirilgan sheriklik va** | Doimiy | - | Vazirlar Mahkamasi **J. Xodjayev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | texnologik hamkorlikni rivojlantirish, keng ko‘lamli sheriklik va amaliy hamkorlikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash. | **hamkorlik** borasida YI institutlari va davlatlari bilan muzokaralarni jadallashtirish. | | | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Kudratov** |
| | | **2.** YI institutlari va davlatlari bilan innovatsiyalar, “yashil iqtisodiyot” texnologiyalari, raqamlashtirish, sanoat sarmoyalarini jalb qilish, bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish hamda kapital bozori va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish sohalarida hamkorlikni kuchaytirish. | Doimiy | - | |
| **93-maqsad: Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lish** | | | | | |
| 7. | Jahon savdo tashkilotiga a’zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo‘yicha muzokaralarni tizimli olib borish va a’zo bo‘lish jarayonini samarali yakuniga yetkazish. | Xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan muzokaralar davomida qo‘yiladigan savollarga javoblarni tayyorlash. | Doimiy | - | Vazirlar Mahkamasi **J. Xodjayev,** Adliya vazirligi **A. Tashkulov**, Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Kudratov** |
| **94-maqsad: Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish** | | | | | |
| 8. | Xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga axborot jihatidan va huquqiy yordam ko‘rsatish. | **1.** “Vatandoshlar” jamoat fondi huzurida xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarga masofadan turib kunu tun xizmat ko‘rsatuvchi onlayn elektron portalni ishga tushirish.<br>**2.** Xorijiy davlatlarda faol vatandoshlar orasidan volontyorlar | 2023-yil noyabr | “Vatandoshlar” jamoat fondi mablag‘lari | “Vatandoshlar” jamoat fondi **O. Sattarov,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | (*ko'ngillilar*) guruhlarini shakllantirish, faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirish choralarini belgilash.<br>**3.** Xorijdagi vatandoshlar jamoat birlashmalari imkoniyatlari orqali murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga ko'maklashish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish. | | | |
| 9. | Rivojlangan xorijiy davlatlarda yashab kelayotgan olim va ijodkor vatandoshlarning O'zbekistonning nufuzini oshirishga qaratilgan ilmiy, ijodiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash. | **1.** Xorijdagi olim vatandoshlar bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy loyihalar, anjuman va seminarlar, oliy ta'lim muassasalarida ma'ruzalar o'qishni tashkil etish.<br>**2.** Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarning O'zbekiston nufuzini oshirishga qaratilgan ijodiy ishlari to'plamini chop etishga tayyorlash.<br>**3.** Xorijda istiqomat qilib, ilmiy va ijodiy sohada muvaffaqiyatga erishgan vatandoshlar hayotiga bag'ishlangan to'plamlar yaratish, ularning ishlarini keng targ'ib qilish. | 2023-yildan boshlab | "Vatandoshlar" jamoat fondi mablag'lari | "Vatandoshlar" jamoat fondi **O. Sattarov,** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmanov**, Fanlar akademiyasi **B. Yuldashev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |
| **95-maqsad: Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish** | | | | | |
| 10. | Noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish | **1.** Xalqaro migratsiya tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMTning Inson huquqlari | 2023-yil oktyabr oyidan boshlab | - | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **B. Musayev,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish. | bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, Jahon banki kabi tashkilotlar bilan noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohalarida hamkorlik memorandumlarini imzolash.<br>**2.** Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hamda Rossiya, Qozog‘iston, Kanada, AQSh, Buyuk Britaniya, Koreya, Yaponiya, Xitoy, Filippin, Hindiston, BAA, Saudiya Arabistoni va Yevropa Ittifoqi davlatlarining turdosh tashkilotlari bilan sohada ma’lumot va tajriba almashuvini amalga oshirish, migratsiya muammolarini hamkorlikda hal etishga qaratilgan kelishuvlarga erishish. | | | Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov,** Adliya vazirligi **A. Toshkulov,** Ichki ishlar vazirligi **P. Bobojonov** |
| 11. | Tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish doirasida xorijiy davlatlar bilan yangi mehnat bozorlariga chiqish va mazkur yo‘nalishdagi tartib-taomillarni soddalashtirish bo‘yicha hamkorlikni jadallashtirish. | **1.** Mehnat migrantlarini xorijga jo‘natuvchi tashkilotlar va yirik xorijiy rekruting kompaniyalari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirish.<br>**2.** Xususiy bandlik agentliklari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribadan foydalangan holda maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish.<br>**3.** Kanada, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Polsha, Vengriya, Portugaliya, | 2023-yil oktyabr oyidan boshlab | Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi mablag‘lari | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **B. Musayev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Bolgariya, Ruminiya, Turkiya kabi davlatlarda mehnat migratsiyasi forumlarini o‘tkazish.<br>**4.** Yaponiya, Buyuk Britaniya, Isroil, Germaniya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonalarini ochish. | | | |
| **5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar** *(Mas’ul — V. Maxmudov)* | | | | | |
| **96-maqsad: Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarni amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish** | | | | | |
| 12. | Aholini yot va buzg‘unchi ma’lumotlar ta’siridan himoya qilish. | **1.** Radikallashuvning oldini olishga qaratilgan ko‘rsatuv va eshittirishlar sonini oshirish. | 2023-yil sentyabrdan boshlab reja-grafikka asosan | - | O‘zMTRK **A. Xadjayev,** Din ishlari bo‘yicha qo‘mita **S. Toshboyev** |
| | | **2.** Yoshlar o‘rtasida “Men radikalizmga qarshiman” nomli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish. | | | Yoshlar siyosati va sport vazirligi **A. Ikramov** , Din ishlari bo‘yicha qo‘mita **S. Toshboyev** |
| 13. | Shaxsga oid va sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlardan noqonuniy maqsadlarda foydalanishning oldini olish hamda bu boradagi javobgarlik choralarini yanada kuchaytirish. | Axborot xavfsizligi hodisalari monitoringi tizimini joriy etish choralarini ko‘rish. | 2023-yil dekabr | - | Kiberxavfsizlik markazi **O. Mirzayev**, Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| **97-maqsad: Jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish** | | | | | |
| 14. | Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot | **1.** Mudofaa vazirligi harbiy okrug va birlashmalarga qadar yotqizilgan optik tolali aloqa liniyalarini | 2023-yildan boshlab | Mudofaa vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi mablag‘lari | Mudofaa vazirligi **Sh. Xalmuxamedov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish | bosqichma-bosqich zaxiralash. | | | |
| | | **2.** Mudofaa vazirligida barpo etilgan Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazining (Data markaz) ma'lumotlarni saqlash hajmini kengaytirish va zaxirasini yaratish. | 2023-yildan boshlab | Raqamli texnologiyalar vazirligi mablag'lari | Mudofaa vazirligi **Sh. Xalmuxamedov,** Raqamli texnologiyalari vazirligi **Sh.Shermatov** |
| | | **3.** Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tatbiq qilish doirasida qo'shinlarni raqamli aloqa va axborotlashtirish hamda axborotlarni kriptografik himoyalash vositalari bilan ta'minlash. | | Mudofaa vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi mablag'lari | |
| | | **4.** Mudofaa vazirligi kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish maqsadida Axborot xavfsizligi monitoringi markazi (SOC — Security Operations Center)ni tashkil etish. | | Raqamli texnologiyalar vazirligi mablag'lari | |
| | | **5.** Respublika va xorijdagi ilg'or oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish. | | Mudofaa vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi mablag'lari | |
| 15. | Harbiy xizmatchilarga vatanparvarlik, Vatanga va xalqqa sodiqlik tuyg'ularini singdirish, harbiy xizmatni o'tash | **1.** Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning o'quv moddiy-texnik bazasini, shuningdek, harbiy psixologlar institutini moddiy-texnik ta'minlash bo'yicha amaliy | 2023-yil sentyabrdan boshlab | Alohida hisob-kitoblarga asosan, Mudofaa vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari | Mudofaa vazirligi **X. Karshiyev,** Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, O'zMTRK **A. Xadjayev** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tartibini zamon talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish. | ishlarni tashkillashtirish.<br>**2.** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kuch tuzilmalari va xorij davlatlari armiyalari bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan o‘quvlarda axloqiy-ruhiy jihatdan ta’minlash va psixologik tadbirlarni o‘tkazish hamda soha mutaxassislarining yetakchi xorij davlatlari armiyalarida tajriba almashish va malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish. | | hamda qonun hujjatlar bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar. | |
| | | **3.** Vatanni himoya qilishda qahramonlarcha halok bo‘lgan o‘g‘lonlar hayoti va qahramonliklari haqida ko‘rsatuv va qisqa lavhalar tayyorlash va keng tarqatish. | | | |
| | | **4.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarda vatanparvarlik, vatanga sadoqat hissini tarbiyalash maqsadida harbiy-sport o‘yinlari dasturini ishlab chiqish va o‘tkazish muddatlarini belgilash. | | - | Mudofaa vazirligi **X. Karshiyev,** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X. Umarova** |
| 16. | Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g‘oyasi atrofida birlashtirish | **1.** Har yili yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha kompleks dasturni ishlab chiqish. | 2023-yildan boshlab | - | Mudofaa vazirligi **X. Karshiyev,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmonov,** Harbiy-ma’muriy sektorlar, |
| | | **2.** Hududlarda “Vatanparvarlar” harbiy-vatanparvarlik bog‘larini barpo etish, | 2023-yildan boshlab | Alohida hisob-kit�blarga asosan | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | hamda Vatan himoyachilarini tarbiyalashda uzviylikni ta'minlash. | mavjud bog'larni takomillashtirish.<br>**3.** Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini Vatanga bo'lgan muhabbat va buzg'unchi, radikal g'oyalarga qarshi kurashuvchanlik ruhida tarbiyalash tizimini keng joriy etish bo'yicha takliflarni tayyorlash. | | | Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, Yoshlar siyosati va sport vazirligi **A. Ikramov** |
| 17. | Qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta'minlash, mahalliy mudofaa sanoati salohiyatini tubdan kuchaytirish. | **1.** Mudofaa vazirligi qo'shinlari va poligonlar o'quv moddiy-texnika bazasini muntazam takomillashtirib borish. Mudofaa sanoati agentligi korxonalarida majmuaviy trenajyorlarni ishlab chiqarish va qo'shinlarni bosqichma-bosqich ta'minlash. | 2023-yildan boshlab | Mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish jamg'armasi va investorlar mablag'lari Mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish jamg'armasi va investorlar hisobidan | Mudofaa vazirligi **A. Narbayev,** Mudofaa sanoati agentligi **M. Ibodullayev** |
| | | **2.** Mudofaa sanoati agentligi korxonalari sonini, harbiy va ikki maqsadga mo'ljallangan mahsulotlar turini 5 barobarga ko'paytirish. | 2023-yildan boshlab | | |
| **98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish** | | | | | |
| 18. | Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimi bilan integratsiyalashuv asosida Respublikada kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi samaradorligini yanada oshirish. | **1.** Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimiga ulangan qo'shni respublikalarning seysmik stansiyalarini Milliy seysmik kuzatuvlar tarmog'iga integratsiya qilish. | 2023-yildan boshlab | Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan | Vazirlar Mahkamasi **X. Berdibayev,** Fanlar akademiyasi **B. Yuldashev,** Favqulodda vaziyatlar vazirligi **A. Kuldashev** |
| | | **2.** Qo'shni respublikalar bilan seysmik ma'lumotlarni | 2023-yildan boshlab | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | to‘g‘ridan-to‘g‘ri real vaqt rejimida almashinuvini ko‘zda tutuvchi kelishuv/memorandum loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | | | |
| | | **3.** Aholini zilziladan erta ogohlantirish tizimini zamonaviy talablar asosida bosqichma-bosqich yaratish. | 2023-yildan boshlab | | |
| 19. | Iqlim o‘zgarishini tizimli monitoring qilish, baholash va prognozlashni rivojlantirish. | **1.** Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimiga integratsiya qilinib, suv omborlari va boshqa xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar bilan tezkor ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish yuzasidan modul ishlab chiqish.<br>**2.** Loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish, ekspertiza va tender savdolarini o‘tkazish.<br>**3.** Loyihani bosqichma-bosqich to‘liq amaliyotga joriy etish ishlarini tashkil etish | 2023-yildan boshlab | Mas’ul ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan hamda qonun hujjatlar bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A. Abduxakimov,** Favqulodda vaziyatlar vazirligi **A. Kuldashev,** Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| 20. | Senday hadli dasturi asosida 2030-yilgacha tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha xususan, istiqbolda ekstremal ob-havo hodisalari — erta bahorda tog‘ | **1.** Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi a’zolari bilan birgalikda mavsumdan oldin xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar xavfi mavjud | 2023-yildan boshlab | Respublika budjeti va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan | Favqulodda vaziyatlar vazirligi **A. Kuldashev,** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi **A.Abduxakimov,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ko‘llari toshishi, suv toshqini, sel, ko‘chki, shuningdek, yozgi vegetatsiya davrida qurg‘oqchilik, o‘rmon yong‘ini, chang-tuz bo‘ronlarining oldini olish. | hududlarni joyiga chiqqan holda o‘rganib borish, o‘rganish natijalari yuzasidan tabiiy ofatlardan aholini va hududlarni himoya qilish bo‘yicha muhandislik-muhofaza va profilaktik tadbirlarni o‘tkazish.<br>**2.** Toshqin suvlari va sel oqimlaridan aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha daryo va soylarning o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarini mustahkamlash ishlarini tashkil etish.<br>**3.** Vakolatli davlat organlari xodimlarining tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va ularning salohiyatini oshirish maqsadida tizimli ravishda o‘quv kurslari, seminar va treninglarni tashkil etish. | | | Suv xo‘jaligi vazirligi **Sh. Xamrayev,** Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi **B. Islamov,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| | | **4.** Hududlarda barqaror ekologik vaziyatni saqlash va ekologik fojialarning oldini olishga qaratilgan idoraviy dastur loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil dekabr | | |
| **99-maqsad: Chegaralar xavfsizligini mustahkamlash** | | | | | |
| 21. | Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish tizimini raqamlashtirish va unga zamonaviy axborot- | **1.** Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishga raqamli videokuzatuv vositalari, uchuvchisiz uchish apparatlari va ularga qarshi kurashish tizimlarini | 2023-yildan boshlab | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Davlat xavfsizlik xizmati **S. Xusanov,** Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq etish. | keng joriy qilish, shuningdek, ulardan samarali foydalana oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash.<br>**2.** Davlat chegarasi xavfsizligini ta’minlash jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy qilish.<br>**3.** DXX Chegara qo‘shinlarining raqamli radioaloqa tarmog‘ini yanada takomillashtirish. | | | |
| 22. | Davlat chegarasining muhandislik-texnik jihatdan jihozlanganlik darajasini oshirish. | Davlat chegarasi uchastkalarida panel-to‘rsimon va simli to‘siqlar hamda signalizatsiya majmualarni o‘rnatish, suv o‘tkazish inshootlari, frontal va rokad yo‘llar hamda ko‘priklar barpo etish ishlarini jadallashtirish. | 2023-yil oktyabrdan boshlab | Hisob-kitoblarga ko‘ra, Davlat budjeti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Davlat xavfsizlik xizmati **S. Xusanov** |
| **100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish** | | | | | |
| 23. | Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarning amalga oshirilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. | **1.** Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus mukofotini ta’sis etish.<br>**2.** O‘zbekistonning raqamli etnokonfessional atlasini yaratish loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil oktyabrdan boshlab | Davlat budjeti, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari | Madaniyat vazirligi **O. Nazarbekov,** Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi **R. Kurbanov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I. Abduraxmanov** |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
5a-ILOVA

**“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan**

MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR

| T/r | Maqsadli ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| **5.1. Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha islohotlar** | | | | |
| **90-maqsad: Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish** | | | | |
| 1. | *Maqsadli ko‘rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **91-maqsad: Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish** | | | | |
| 2. | *Maqsadli ko‘rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **92-maqsad: An’anaviy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo‘shilish** | | | | |
| 3. | *Maqsadli ko‘rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **93-maqsad: Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lish** | | | | |
| 4. | Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish bo‘yicha ishchi guruhining o‘tkazilgan yig‘ilishlari soni | ta | 2 | 2 |
| 5. | Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish doirasida bozorga kirish yuzasidan muzokaralar o‘tkaziladigan davlatlar soni | ta | 10 | 10 |
| **94-maqsad: Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish** | | | | |
| 6. | O‘zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san’at va hunarmandchilik yo‘nalishidagi oliygohlarda xorijdagi vatandoshlar uchun ajratiladigan grantlar soni | ta | – | 30 |
| 7. | Yangi vatandoshlar jamoat birlashmalari soni | ta | 3 | 7 |
| 8. | Vatandoshlar ishtirokida tibbiyot, ta’lim va ilm-fan sohalarida amalga oshiriladigan loyihalar soni | ta | – | 15 |
| 9. | Vatandoshlar jamoat birlashmalariga yetkazib beriladigan badiiy adabiyotlar soni | ta | 5 000 | 15 000 |
| **95-maqsad: Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish** | | | | |
| 10. | Ishga joylashtirish bo‘yicha xorijiy tomon bilan kelishuvlar soni | ta | 1 | 2 |
| 11. | Xorijiy tomon bilan kelishuv asosida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxona (vakillik)larini ochish orqali mehnat migrantlariga ko‘rsatilayotgan huquqiy va moddiy yordamlar ko‘lamini oshirish | ta | 1 | 2 |
| **5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar** | | | | |
| **96-maqsad: Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarni amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish** | | | | |
| 12. | *Maqsadli ko‘rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **97-maqsad: Jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 13. | *Maqsadli ko'rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish** | | | | |
| 14. | *Maqsadli ko'rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **99-maqsad: Chegaralar xavfsizligini mustahkamlash** | | | | |
| 15. | *Maqsadli ko'rsatkichlar alohida qarorlar asosida belgilanadi* | – | – | – |
| **100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish** | | | | |
| 16. | Sohada ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar soni | ta | 10 | 15 |
| 17. | "Yosh kitobxon" tanlovini qo'shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman) o'tkazish | tillar nomlari | – | qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman |
| 18. | Ta'lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini boyitish. | ta | 835 000 | 955 000 |
| 19. | Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar soni | ta | 100 | 100 |
| 20. | Do'stlik jamiyatlari soni | ta | 38 | 42 |
| 21. | Birodarlashgan shaharlar soni | ta | 55 | 65 |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga
5b-ILOVA

## "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

RO'YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi nomi | Asosiy mazmuni | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **V. "XAVFSIZ VA TINChLIKSEVAR DAVLAT" TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZChIL DAVOM ETTIRISh** | | | | |
| **5.1. Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar** *(Mas'ul — J. Xodjayev)* | | | | |
| **93-maqsad: Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish** | | | | |
| 1. | Jahon savdo tashkilotiga a'zolik bilan bog'liq huquqiy masalalarni hal qilish bo'yicha **normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.** | Jahon savdo tashkilotiga a'zolik majburiyatlarini olish hamda milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyoti qoida va me'yorlarini tashkilot talablariga moslashtirish. | 2023-yil dekabr | Adliya vazirligi **A. Tashkulov**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L. Kudratov**, Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov** |
| **94-maqsad: Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish** | | | | |
| 2. | Xorijda istiqomat | **1.** Mamlakatimizda uy-joy va ko'chmas mulk sotib olish, ta'lim, | 2023-yil oktyabr | Tashqi ishlar vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | qilayotgan vatandoshlarni O'zbekiston hududida tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy va madaniy faoliyat bilan shug'ullanishga faol jalb qilish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi**. | tibbiyot va boshqa davlat xizmatlaridan teng huquqlilik asosida foydalanish imkonini beradigan "Vatandosh guvohnomasi"ni joriy qilish.<br>**2.** Tibbiyot, ta'lim, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar bo'yicha tajribali mutaxassislar — xorijdagi vatandoshlar ishtirokida seminar va master-klass mashg'ulotlarini tashkil etish.<br>**3.** "Vatandoshlar" jamoat fondi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarini kengaytirish, uning huzurida xorijdagi vatandoshlardan iborat tarkibda turli yo'nalishlardagi ekspertlar guruhlarini tashkil etish. | | **B. Saidov,**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Toshkulov,**<br>Ichki ishlar vazirligi<br>**P. Bobojonov,**<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev** |
| 3. | Davlat tomonidan xorijga mehnat faoliyatini yuritish uchun chiqib ketayotgan fuqarolarga moddiy yordam va xizmatlar ko'rsatish ko'lami va sifatini oshirish, ularni sug'urtalash tizimini takomillashtirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi**. | **1.** Malaka sertifikati, yo'l chiptasi va "ishchi viza"ni olish xarajatlar uchun subsidiyalar ajratish.<br>**2.** Xorijga ketish va ishga joylashish xarajatlarini qoplashga 10 million so'mgacha imtiyozli mikroqarzlar berish.<br>**3.** Rivojlangan mamlakatlarda yuqori maosh to'lanadigan ish topib ketayotgan fuqarolarga yo'l chiptasi va "ishchi viza"ni olish xarajatlarini to'liq qoplab berish amaliyotini joriy etish.<br>**4.** Xorijga ishlash uchun ketgan fuqarolarning oilalariga ijtimoiy xodimlar biriktirish orqali ularning bolalariga ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarda ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yordam berish tizimini yaratish.<br>**5.** Xorijda vafot etgan fuqarolarning oila a'zolariga alohida g'amxo'rlik qilish, farzandlarini o'qitish va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha choralar belgilash.<br>**6.** Xorijga mehnat faoliyatini yuritish uchun chiqib ketayotgan fuqarolar sog'lig'i va hayotini sug'urtalash ko'lamini kengaytirish. | 2023-oktabr | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br>**B. Musayev,**<br>Markaziy bank<br>**M. Nurmuratov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**A. Xaydarov** |
| **95-maqsad: Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish** | | | | |
| 4. | Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy | **1.** Xorijdan qaytgan fuqarolarni ishga qabul qilgan tadbirkorlarga bir yil davomida har bir xodim uchun 500 ming so'mdan subsidiya to'lash tizimini joriy etish.<br>**2.** Xorijda ishlab topgan puli hisobidan o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga imtiyozli kreditlar berish. | 2023-dekabr | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**A. Xaydarov,**<br>Markaziy bank<br>**M. Nurmuratov,**<br>Sog'liqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi**. | **3.** Xorijdan qaytgan fuqarolar va ular oila a'zolarining bepul tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy kasalliklarga chalingan fuqarolarga davlat tomonidan zarur tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish. | | |
| 5. | Murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan mehnat migrantlariga huquqiy va boshqa yordam ko'rsatish, dunyoning istalgan nuqtasidan mamlakatimizdagi davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi**. | **1.** Xorijda ishlayotgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ularga advokat jalb etish xarajatlarini qoplash va huquqiy yordam berish tizimini yo'lga qo'yish.<br>**2.** �orijdagi fuqarolarning barcha masalalarini tezkorlik bilan hal qilish uchun elchixonalar, Tashqi ishlar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik hamda Ichki ishlar vazirliklarida tunu kun ishlaydigan "koll-markazlar"ni tashkil etish.<br>**3.** Og'ir ahvolga tushib qolgan barcha fuqarolarga xorijiy davlatning o'zida moddiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini yanada kengaytirish.<br>**4.** Chet eldagi fuqarolar uchun davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratish hamda ularning narxlarini ichki tariflarga tenglashtirish.<br>**5.** Doimiy konsullik hisobida turish badalini bekor qilish va hisobda turish shartlarini soddalashtirish. | 2023-oktabr | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **B. Musayev,** Tashqi ishlar vazirligi **B. Saidov,** Adliya vazirligi **A. Toshkulov** |
| **5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar** *(Mas'ul — V. Maxmudov)* | | | | |
| **96-maqsad: Fuqarolar�ing axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish** | | | | |
| 6. | Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida axborot xavfsizligi hodisalari monitoringi tizimini joriy etish bo'yicha **Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi.** | Raqamli hukumat doirasida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini oshirish maqsadida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida axborot xavfsizligi hodisalari monitoringi tizimini joriy etish. | 2023-yil oktyabr | Kiberxavfsizlik markazi **O. Mirzayev**, Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh. Shermatov** |
| **97-maqsad: Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish.** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. | Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yangi tahrirdagi umumharbiy nizomlarini tasdiqlash boʻyicha **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi**. | Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish. | 2023-yil yakuniga qadar | Mudofaa vazirligi **B. Kurbanov** |
| 8. | Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyati va harbiy xizmatni oʻtashi tartibini takomillashtirish boʻyicha **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi**. | **1.** Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat gʻoyasi atrofida birlashtirish hamda Vatan himoyachilarini tarbiyalashda uzviylikni ta’minlash.<br>**2.** Aholi va yoshlar oʻrtasida muddatli harbiy xizmat nufuzi va jozibadorligini yanada oshirish, Qurolli Kuchlar safida muddatli harbiy xizmatni oʻtab boʻlgan fuqarolarga imtiyozlar berish tizimini takomillashtirish. | 2023-yil yakuniga qadar | Mudofaa vazirligi **X. Karshiyev,** Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar |
| 9. | Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimni muntazam ravishda takomillashtirib borish, oʻquv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish boʻyicha **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari loyihalari**. | **1.** Chirchiq oliy tank qoʻmondonlik-muhandislik bilim yurtiga universitet maqomini berish boʻyicha har tomonlama asoslangan tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish.<br>**2.** Oʻzbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtiga institut maqomini berish boʻyicha har tomonlama asoslangan tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish.<br>**3.** Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi negizida Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari serjantlar tayyorlash institutini tashkil etish.<br>**4.** Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida oliy harbiy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot markazlar va laboratoriyalar tashkil etish. | 2023-yil dekabr | Mudofaa vazirligi **B. Kurbanov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri **I. Abdurahmonov,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **A. Xaydarov** |
| **100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini rivojlantirish** | | | | |
| 10. | Mamlakat hududida yashovchi turli millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odati va an’analarini saqlab | **1.** Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida “Doʻstlik uylari”ni tashkil etish;<br>**2.** Milliy madaniy markazlar faoliyatini moddiy qoʻllab-quvvatlash;<br>**3.** Milliy madaniy markazlar xodimlarining ijtimoiy loyihalarni | 2023-yil noyabr | Madaniyat vazirligi **O. Nazarbekov** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | qolish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha **Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi.** | tayyorlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish. | | |
| 11. | Yurtimizda xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha **Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi**. | **1.** "O'zbekiston", "Zvezda Vostoka" va "Amudaryo" jurnallari, "Yerkin Qaraqalpaqstan", "Nurli jol", "Ovozi tojik", "Mekan" va "Dostuk" gazetalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.<br>**2.** Jurnalistlar o'rtasida har yili an'anaviy o'tkazib kelinayotgan "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda millatlararo munosabatlar yo'nalishida nominatsiya tashkil etish. | 2023-yil oktyabr | Axborot va ommaviy komm?nikatsiyalar agentligi **A. Xodjayev,** Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi **R. Kurbanov** |

Izoh: mazkur ro'yxatda keltirilmagan maqsadlar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari 2024 va undan keyingi yillarga mo'ljallangan dasturlarda nazarda tutiladi.

*(5b-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.11.2023-y., 06/23/193/0844-son)*

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 07/23/300/0693-son; 11.11.2023-y., 06/23/193/0844-son; 24.11.2023-y., 06/23/199/0882-son; 14.12.2023-y., 06/23/205/0934-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 29.12.2023-y., 07/23/422/0994-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son; 08.01.2024-y., 07/24/5/0010-son)*